

MUHAMMAD AL-XORAZMIY
NOMIDAGI TATU FARG'ONA FILIALI
FERGANA BRANCH OF TUIT
NAMED AFTER MUHAMMAD AL-KHORAZMI

“AL-FARG‘ONIIY AVLODLARI”

ELEKTRON ILMIY JURNALI | ELECTRONIC SCIENTIFIC JOURNAL

TA'LIMDAGI ILMIY, OMMABOP VA ILMIY TADQIQOT ISHLARI



3-SON 1(7)
2024-YIL

TATU, FARG'ONA
O'ZBEKISTON



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI

MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
FARG'ONA FILIALI

Muassis: Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali.

Chop etish tili: O'zbek, ingliz, rus. Jurnal texnika fanlariga ixtisoslashgan bo'lib, barcha shu sohadagi matematika, fizika, axborot texnologiyalari yo'nalishida maqolalar chop etib boradi.

Учредитель: Ферганский филиал Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразми.

Язык издания: узбекский, английский, русский. Журнал специализируется на технических науках и публикует статьи в области математики, физики и информационных технологий.

Founder: Fergana branch of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorazmi.

Language of publication: Uzbek, English, Russian. The magazine specializes in technical sciences and publishes articles in the field of mathematics, physics, and information technology.

2024 yil, Tom 1, №3
Vol.1, Iss.3, 2024 y

ELEKTRON ILMIY JURNALI

ELECTRONIC SCIENTIFIC JOURNAL

«Al-Farg'oniyl avlodlari» («The descendants of al-Fargani», «Potomki al-Fargani») O'zbekiston Respublikasi Prezidenti administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2022-yil 21 dekabrda 054493-son bilan ro'yxatdan o'tgan.

Jurnal OAK Rayosatining 2023-yil 30 sentabrdagi 343-sonli qarori bilan Texnika fanlari yo'nalishida milliy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili:
151100, Farg'ona sh.,
Aeroport ko'chasi 17-uy,
202A-xona
Tel: (+99899) 998-01-42
e-mail: info@al-fargoniy.uz

Qo'lyozmalar taqrizlanmaydi va qaytarilmaydi.

FARG'ONA - 2024 YIL

TAHRIR HAY'ATI

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Muxtarov Farrux Muhammadovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali direktori, texnika fanlari doktori

Arjannikov Andrey Vasilevich,

Rossiya Federatsiyasi Sibir davlat universiteti professori, fizika-matematika fanlari doktori

Satibayev Abdugani Djunosovich,

Qirg'iziston Respublikasi, Osh texnologiyalari universiteti, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Rasulov Akbarali Maxamatovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Axborot texnologiyalari kafedrasida professori, fizika-matematika fanlari doktori

Yakubov Maksadxon Sultaniyazovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU «Axborot texnologiyalari» kafedrasida professori, t.f.d., professor, xalqaro axborotlashtirish fanlari Akademiyasi akademigi

G'ulomov Sherzod Rajaboyevich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Kiberxavfsizlik fakulteti dekani, Ph.D., dotsent

G'aniyev Abduxalil Abdjalioviich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Kiberxavfsizlik fakulteti, Axborot xavfsizligi kafedrasida t.f.n., dotsent

Zaynidinov Hakimjon Nasritdinovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Kompyuter injiniringi fakulteti, Sun'iy intellekt kafedrasida texnika fanlari doktori, professor

Abdullayev Abdujabbor,

Andijon mashinosozlik instituti, Iqtisod fanlari doktori, professor

Qo'ldashev Abbosjon Hakimovich,

O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi Yarimo'tkazgichlar fizikasi va mikroelektronika ilmiy-tadqiqot instituti, texnika fanlari doktori, professor

Ergashev Sirojiddin Fayazovich,

Farg'ona politexnika instituti, elektronika va asbobsozlik kafedrasida professori, texnika fanlari doktori, professor

Polvonov Baxtiyor Zaylobiddinovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha direktor o'rinbosari

Zulunov Ravshanbek Mamatovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Dasturiy injiniring kafedrasida dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi

Abdullaev Temurbek Marufovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Axborot texnologiyalari kafedra mudiri, texnika fanlar bo'yicha falsafa doktori

Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Jurnal quyidagi bazalarda indekslanadi:



Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

MUNDARIJA | ОГЛАВЛЕНИЕ | TABLE OF CONTENTS

I.R.Rahmatullayev, O.Sh.Umurzakov, E.I.Saydullayev, Xesh funksiya algoritmlari tasodifiyligini NIST testlari bilan baholash	6-14
Xatamova M.K., Matsapayev J.S., Kuchkarov V.A., Simulation and design of a small-sized pentagon broadband antenna for 5G connectivity	15-20
Abdurasulova D., Kuldashov O., Development of a method of stabilization of two-color light-emitting diode parameters	21-25
Шарифбаев А.Н., Зайниддинов Х.Н., Применение графовые нейронные сети и его модификации с обучения с подкреплением в системах рекомендаций	26-29
Muminov O., LOGISTIK MUAMMOLAR VA POTENTIAL YECHIMLAR: QURUQLIK BILAN O'RALGAN O'ZBEKISTON HOLATI	30-36
Сотволдиев Х.И., ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ РАЗРАБОТКИ МАТЕМАТИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВЫХ АЛГОРИТМОВ УПРАВЛЕНИЯ НЕСТАЦИОНАРНЫМИ ОБЪЕКТАМИ	37-41
Muhammediyeva D.K., Eshboyev E.A., Klicheva F.G., INTELLEKTUAL SUV TOMCHISI ALGORITMINING TIBBIY TASHXIS QO'YISH MASALALARIGA QO'LLANILISHI	42-47
Axatov A.R., Eshtemirov B.Sh., Mashinaviy o'qitish asosida yo'llardagi avtomobil tirbandlik holatlarini aniqlash uchun dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash usullari	48-56
Allayarova G.X., Buronov N.R., Zaripov Sh.S., MoO ₃ /Mo NANOTUZULMALARINI OLISH VA ULARNING ELEKTRON TUZILISHI VA OPTIK XOSSALARINI O'RGANISH	57-60
Kurbanov A.A., INSON YUZ TASVIRIDAN HISSIYOTLARNI ANIQLASH UCHUN GEOMETRIK XUSUSIYATLARINI VA TASHQI KO'RINISHGA ASOSLANGAN XUSUSIYATLARINI AJRATIB OLISH	61-67
Radjabov S.S., Rabbimov I.M., Xusainov N.O., Abdullayeva B.M., BIOMETRIK TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI	68-72
Jo'rayev M.T., TARMOQ OQIMINI MONITORING QILISH DASTURIY TIZIMI	73-77
Ganiyev S.K., Xamidov Sh.J., ELEKTRON POCHTA TIZIMI XAVFSIZLIGI RISKLARINI BAHOLASH USULI	78-81
Кенжаев С.С., Рашидов А.Э., МЕТОДЫ И АЛГОРИТМЫ ХРАНЕНИЯ ФАЙЛОВ ДЛЯ ОПТИМАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ РАЗЛИЧНЫМИ ТИПАМИ ДАННЫХ	82-92
Уринбоев А.А., АВТОМАТИЗИРОВАННЫЕ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ВЛАЖНОСТЬЮ ЗЕРНА НА МУКОМОЛЬНОМ ЗАВОДЕ «ФАРГОНАДОНМАХСУЛОТЛАРИ»	93-100
Rahmatullayev I.R., Boyquziyev I.M., Umurzakov O.Sh., Saydullayev E.I., ELLIPTIK EGRI CHIZIQLAR ASOSIDA ASIMMETRIK ALGORITMLARNING MATEMATIK ASOSLARI VA ULARNI QO'LLASH MASALALARI	101-108
Адилов Ф.Ф., Турдибеков Ж.Э., ИССЛЕДОВАНИЕ КРУЧЕНИЯ ЦИЛИНДРИЧЕСКОГО СТЕРЖНЯ ПОД ТЕРМОМЕХАНИЧЕСКИМ ВОЗДЕЙСТВИЕМ	109-112
Mukhammadjonov A.G., Tokhirova S.G., ANALYSIS OF AUTOMATION THROUGH MOISTURE MONITORING DEVICES IN INDUSTRIAL AND AGRICULTURAL FIELDS	113-118
Хамзаев Д.И., РАЗРАБОТКА МЕТОДОВ ПРИМЕНЕНИЯ RFID В ПРОИЗВОДСТВЕ ХИМИЧЕСКИХ УДОБРЕНИЙ	119-123
Mavlonov O.N., TARMOQ PROTOKOLLARIDA AXBOROTLARNI YASHIRISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR	124-128
Artikova G.G., Matyakubov D.D., GSM TARMOG'IDA QO'LLANILADIGAN KODLASH ALGORITMLARI TANLILI	129-132
Сотволдиев Х.И., Математическая модель и система управления прямоточными котлами с пылесистемой прямого вдувания	133-138
Yo'ldashev X.S., Sarimsakov O.Sh., Ergashev Sh.T., PAXTA TOLASI BILAN HAVO ARALASHMASI OQIMI HARAKATINI MODELLASHTIRISH	139-144

MUNDARIJA | ОГЛАВЛЕНИЕ | TABLE OF CONTENTS

Сафарова Л.У., Применения вариационного квантового алгоритма (VQE) в агропромышленном комплексе	145-148
Muminov K.Z., Social Engineering, Human Factor in Cybersecurity	149-152
Djurayev Sh.S., MULTISIKLON QURILMASI SAMARADORLIGIGA ZARRALAR O'LGHAMU VA KONSENTRATSIYASINING TA'SIRI	153-158
Mirzayev N., Radjabov S.S., Rabbimov I.M., Asrayev M.A., Mardiyev A.Sh., HUE MOMENTLARIGA ASOSLANGAN QO'LYOZMA MATNI TASVIRI BELGILARINI AJRATIB OLISH ALGORITMI	159-164
Shaxobutdinov R.E., Karimova A.R., Nosirov T.N., ZOLDIR PROKATLASH STANI ISHCHI ELEMENTLARINING KONSTRUKSIYALARINI ISHLAB CHIQUV MASALASI	165-169
Djalilov B.O., Muhammadjonov A.G., ANTENNANI QAYTA SOZLASHDA P-I-N DIODLARDAN FOYDALANISH, NAZARIY VA AMALIY QO'LLANISHLAR	170-173
Xudoyqulov Z.T., Qurbonaliyeva D.V., Bozorov S.M., HONEYPOT TEXNOLOGIYASINING FUNKSIONAL IMKONIYATLARINI TADQIQ ETISH	174-180
Xudoyqulov Z.T., Seidullayev M.K., IOT TEXNOLOGIYASIDA BLOKCHEYN ASOSIDA MA'LUMOTLARNI XAVFSIZ ALMASHISHNING TAKOMILLASHGAN USULI	181-190

Xesh funksiya algoritmlari tasodifiyligini NIST testlari bilan baholash

I.R.Rahmatullayev,
O.Sh.Umurzakov,
E.I.Saydullayev,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Samarqand filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy kriptografiya muhim ahamiyatga ega bo'lgan xesh funksiyalari algoritmlarining tasodifiyligi va kolliziyalarga chidamliligi baholanadi. Xesh algoritmlari ma'lumotlarning yaxlitligi va autentifikatsiyasini ta'minlash uchun qo'llaniladi. Ular xesh qiymatlarini hisoblash orqali ma'lumotlarning asl va ishonchli ekanligini tasdiqlaydi. Maqolada NIST (Standartlar va Texnologiyalar Milliy Instituti) tomonidan ishlab chiqilgan statistik testlar yordamida turli xesh algoritmlari, jumladan, SHI-1, SHI-2, SHI-3 va SHA-1 ning tasodifiylik darajasi baholanadi. Natijalar SHI-3 algoritmining yuqori darajadagi xavfsizlik va tasodifiylikka ega ekanligini ko'rsatadi, SHA-1 algoritmi esa ba'zi zaif tomonlarini namoyon etadi. Ushbu tahlillar xesh algoritmlarining umumiy xavfsizlik darajasini baholashda va ularning amaliyotda qo'llanishini tahlil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Xesh funksiyalari, kriptografiya, tasodifiylik, kolliziya, NIST STS testi, SHA-1, SHI-3, xavfsizlik, autentifikatsiya, raqamli imzo.

I. Kirish

Bugungi kunda zamonaviy kriptografiya telekommunikatsiya tarmoqlari orqali yuborilayotgan ma'lumotlarning butunligi va haqiqiylikni nazorat qilishda xesh funksiyalari algoritmlari katta ahamiyatga ega. Xesh algoritmlari ma'lumotlarning o'zgarishini ta'minlash va ularga har qanday o'zgarishlar kiritilgan yoki yo'qligini aniqlash uchun qo'llaniladi. Ular axborotning autentifikatsiyasini ta'minlab, qabul qiluvchiga ma'lumotning asl va ishonchli ekanligiga kafolat beradi. Shu tariqa, ma'lumotlar tez, samarali va xavfsiz usullarda qayta ishlanadi, bu esa telekommunikatsiya tizimlarining xavfsizligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi[1].

Xesh algoritmlarini baholashda eng asosiy mezonlardan biri ularning kolliziyalarga chidamliligidir. Kolliziya — turli ma'lumotlar uchun bir xil xesh qiymati hosil bo'lishi holati bo'lib, bu xavfsizlik jihatidan katta ahamiyatga ega muammo. Xesh funksiyalarining kolliziyalarga chidamliligini aniqlash uchun turli kriptotahlil usullaridan foydalaniladi. Bunday usullarga kalitlarning barcha ehtimoliy kombinatsiyalarini tekshirish, tug'ilgan kun

paradoksi, differentsial va integral kriptotahlil kabi metodlar kiradi, ular yordamida algoritmning barqarorligi va xavfsizligi baholanadi[2]. Ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar tahliliga ko'ra, xesh funksiyalarining kolliziyalarga bardoshliligini ta'minlash uchun ularning tasodifiylik xususiyati muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun, xesh algoritmlarining tasodifiylik darajasini baholash juda muhim, chunki bu algoritmning xavfsizligi va samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi[3]. Xesh funksiyalarining tasodifiylik xususiyatlarini baholashda NIST (Standartlar va Texnologiyalar Milliy Instituti) tomonidan ishlab chiqilgan testlar to'plamidan foydalaniladi. Ushbu NIST testlari xesh algoritmlarining xavfsizligini kuchaytirish va ularning kolliziyalarga nisbatan chidamliligini ta'minlashda muhim vositalardan biri hisoblanadi[4].

Faraz qilaylik, uzunligi n bit bo'lgan $\xi = \{\varepsilon_1, \varepsilon_2, \dots, \varepsilon_n\}$, ketma-ketlik berilgan, bunda har bir $\varepsilon_i \in \{0,1\}$ ya'ni har bir element 0 yoki 1 qiymatini qabul qiladi. Bu shuni anglatadiki, ξ ikkilik bitlardan tashkil topgan bo'lib, har bir bit faqat ikki xil qiymatga ega bo'lishi mumkin: 0 yoki 1.



Bunday ikkilik ketma-ketliklar turli kriptografik algoritmlarda, xususan xesh funksiyalari va shifrlash jarayonlarida katta ahamiyatga ega. Ular yordamida ma'lumotlarni raqamli shaklda ifodalash, axborotni shifrlash va boshqa ko'plab kriptografik operatsiyalarni amalga oshirish mumkin. Ikkilik ketma-ketliklar ma'lumotlarni kodlash va ularning xavfsizligini ta'minlashda asosiy vosita hisoblanadi[5-10].

Uzunligi n bo'lgan ketma-ketlikning har bir biti ma'lumotning ajralmas va muhim qismi bo'lib, har qanday bitning o'zgarishi butun ma'lumotning o'zgarishiga olib kelishi mumkin. Bu har bir bitning ahamiyatini ko'rsatadi, chunki ular umumiy ma'lumotni aniqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi[11-15].

Xesh funksiya algoritmlarining tasodifiylik xususiyatlarini tekshirish uchun adabiyotlarda taklif etilgan oltita bosqichli algoritmdan foydalaniladi. Ushbu bosqichlar orqali xesh algoritmining tasodifiylik xususiyatlari aniqlanib, baholanadi. Tasodifiylik — xesh funksiyasining xavfsizlik va samaradorlik darajasini belgilovchi muhim parametr bo'lib, quyidagi bosqichlar ushbu jarayonni amalga oshirishda asosiy rol o'ynaydi:

1. Ma'lumotlarni tayyorlash: Xesh funksiyasini sinovdan o'tkazish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar tayyorlanadi. Ushbu ma'lumotlar ikkilik ketma-ketliklar yoki bitlar ko'rinishida bo'lib, sinov uchun asos bo'ladi.

2. Xesh qiymatlarini hisoblash: Tayyorlangan har bir ma'lumot uchun xesh funksiyasi qo'llanilib, xesh qiymatlari hisoblanadi. Bu bosqichda turli ma'lumotlar uchun hosil bo'lgan xesh qiymatlari o'rganiladi va tahlil qilinadi.

3. Tasodifiylikning dastlabki bahosi: Olingan xesh qiymatlari tasodifiylik nuqtai nazaridan dastlabki tahlil qilinadi. Ularning belgilangan tasodifiylik me'yorlariga qanchalik mos kelishi aniqlanadi.

4. Tasodifiylik testlarini qo'llash: Xesh qiymatlarining tasodifiyligini yanada chuqurroq baholash uchun NIST (Milliy Standartlar va Texnologiyalar Instituti) tomonidan ishlab chiqilgan testlar to'plami qo'llaniladi. Ushbu testlar xesh

qiymatlarining bitlar ketma-ketligini tahlil qilib, ularning tasodifiylik darajasini aniqlaydi.

5. Kolliziyalarga chidamlilikni tekshirish: Xesh funksiyasi turli ma'lumotlar uchun bir xil xesh qiymatini hosil qilmasligini tekshirish, ya'ni kolliziya ehtimolini baholash amalga oshiriladi. Bu xesh funksiyasining xavfsizligini ta'minlash uchun muhimdir.

6. Natijalarni tahlil qilish va baholash: Olingan barcha natijalar tahlil qilinib, xesh algoritmining tasodifiylikka va kolliziyalarga bardoshlilik bo'yicha yakuniy xulosa chiqariladi.

Ushbu bosqichlar yordamida xesh funksiyasining xavfsizligi va ishonchliligi har tomonlama baholanadi. Natijada, kriptografik tizimlarning umumiy ishonchliligi va xavfsizligi oshiriladi, bu esa axborot almashinuvini yanada himoyalangan holga keltiradi[8].

II. Asosiy qism

Kolliziyalarni aniqlashda xesh funksiyasi algoritmlarini tasodifiylikka NIST STS (Statistical Test Suite) paketidan foydalangan holda baholashning oltita bosqichli jarayoni zaruriy tahlil usuli ekanligini ko'rsatish maqsadida, amaliy masalalarda quyidagi xesh algoritmlari tanlab olindi:

1. SHI-1 – o'quv xesh algoritmi;
2. SHI-2 – o'quv xesh algoritmi;
3. SHI-3 – o'quv xesh algoritmi;
4. SHA-1 – standart xesh funksiyasi algoritmi.

Ushbu xesh algoritmlari turli samaradorlik va xavfsizlik darajalariga ega. Ularning tasodifiylikka bo'lgan bardoshlilik NIST STS paketi yordamida baholandi. NIST STS testlari ushbu algoritmlar tomonidan yaratilgan xesh qiymatlarining tasodifiylik xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi va ularning samaradorligi hamda xavfsizligini tekshirish imkonini yaratadi.

SHI-1, SHI-2 va SHI-3 algoritmlari o'quv maqsadlarida yaratilgan bo'lib, ularning har biri turli kriptografik xususiyatlar va kolliziyalarga chidamlilik darajasini o'rganish uchun qo'llaniladi. SHA-1 esa kriptografiyada keng qo'llaniladigan standart algoritm sifatida tanlangan.



Tanlangan xesh algoritmlarining har biri NIST STS paketining turli testlari orqali tekshirilib, ularning tasodifiyligi va kolliziyalarga chidamliligi baholandi. Natijada, xesh algoritmlarining xavfsizlik darajasi va ishonchliligi aniqlanadi. Ushbu tahlil kolliziyalarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, qaysi algoritm xavfsizlik nuqtai nazaridan afzal ekanligini ko'rsatadi.

Xesh funksiyasi algoritmlarini tasodifiylikka NIST STS paketi [2] bilan tekshirish uchun yaratilgan dasturiy ta'minot orqali olingan natijalar quyida keltiriladi:

1. SHI-1 algoritmi:

- Tasodifiylik testlari natijasida xesh qiymatlarining tasodifiylikka yetarlicha mos kelmasligi aniqlandi. Bu algoritmning kolliziyalarga chidamliligi past ekanligiga ishora qiladi.

- NIST STS testlarining aksariyatida tasodifiylik darajasi talablariga javob bermadi, bu esa uning xavfsizlik nuqtai nazaridan zaifligini ko'rsatadi.

2. SHI-2 algoritmi:

- Tasodifiylik testlari natijalariga ko'ra, xesh qiymatlarining tasodifiylik darajasi ayrim testlarda yetarli bo'ldi, ammo umumiy holatda ba'zi testlarda talabga javob bermadi.

- Kolliziyalarga nisbatan chidamlilik darajasi o'rtacha deb baholandi, ya'ni u ba'zi xavfsizlik talablariga javob beradi, lekin mukammal emas.

3. SHI-3 algoritmi:

- Tasodifiylik testlari natijasiga ko'ra, ushbu algoritmning xesh qiymatlari yuqori darajada tasodifiylikka ega bo'ldi. U NIST STS testlarining ko'pchiligidan muvaffaqiyatli o'tdi.

- Kolliziyalarga nisbatan chidamlilik yuqori ekanligi aniqlandi, bu esa uni xavfsizlik va ishonchlilik nuqtai nazaridan afzal qiladi.

4. SHA-1 standart algoritmi:

- Tasodifiylik testlari natijalari ushbu algoritmning yetarlicha tasodifiy ekanligini ko'rsatdi, ammo ba'zi bit ketma-ketliklarida ma'lum bir naqshlar kuzatildi.

- NIST STS paketining asosiy testlaridan o'tgan bo'lsa-da, kolliziyalarga nisbatan chidamliligi ayrim holatlarda past ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu esa

uning ba'zi xavfsizlik cheklovlariga ega ekanligini bildiradi.

Ushbu natijalar xesh algoritmlarining tasodifiylik va kolliziyalarga chidamlilik darajasini baholashda muhim ahamiyatga ega. Tahlil natijasida SHI-3 algoritmi eng yuqori tasodifiylik va kolliziyalarga chidamlilik darajasiga ega ekanligi aniqlandi, bu esa uni xavfsizlik nuqtai nazaridan eng afzal qiladi. SHA-1 algoritmi esa standart bo'lishiga qaramay, ba'zi zaif tomonlari borligi aniqlangan.

Shunday qilib, xesh funksiyasi algoritmlarini tasodifiylikka NIST STS paketi yordamida baholash kolliziyalarni aniqlash va algoritmning umumiy xavfsizlik darajasini baholashda muhim vosita hisoblanadi. Bu usul kriptografik algoritmlarni tanlashda va ularning samaradorligini oshirishda asosiy rol o'ynaydi, chunki u algoritmning tasodifiylik va kolliziyalarga chidamlilik xususiyatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Natijalardan ko'rinib turibdiki, SHI-3 algoritmi eng samarali va xavfsiz xesh funksiyasi sifatida tanlandi, chunki uning tasodifiylik darajasi yuqori va kolliziyalarga chidamliligi yaxshilangan. SHA-1 esa standart algoritm bo'lishiga qaramay, ba'zi xavfsizlik nuqsonlariga ega bo'lib, tasodifiylik darajasida ayrim cheklovlar aniqlandi.

Ushbu natijalar NIST STS paketidan foydalanish orqali xesh algoritmlarining xavfsizlik va ishonchlilik darajasini baholashda dasturiy ta'minotning samaradorligini namoyon etdi.

NIST STS paketi testlari orqali xesh funksiya algoritmlarini tekshirishda quyidagi parametrlar tanlandi va ular asosida testlar amalga oshirildi:

1. Ketma-ketlik uzunligi $n=10^6$ bit: Har bir xesh qiymati uzunligi 1 million bitdan iborat bo'lib, bu xesh funksiyasining tasodifiylik va xavfsizlik parametrlarini aniqlash uchun yetarli uzunlikni ta'minlaydi.

2. Ketma-ketliklar soni $m = 100$: Har bir algoritm uchun 100 ta ketma-ketlik yaratilib, ular NIST STS testlaridan o'tkazildi. Bu miqdor statistik jihatdan ishonchli natijalar olish uchun yetarli hisoblanadi.

3. Tanlov hajmi $N = 10^6 \times 100 = 10^8$ bit: Testlar uchun tanlangan umumiy ma'lumot hajmi 100 million bitni tashkil etadi, bu hajm algoritmlarning



tasodifiylik xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Qimmatlilik darajasi $\alpha = 0.01$ va $\alpha = 0.001$: Bu testlarning ishonch darajasini belgilaydi. $\alpha = 0.01$ degani 99% ishonchlilikda, $\alpha = 0.001$ esa 99.9% ishonchlilikda tasodifiylik testlari o'tkaziladi. Natijalarning ishonchlilik darajasi yuqori bo'ladi, bu esa test natijalarining aniqligini ta'minlaydi.

5. Testlar soni $q = 188$: Har bir algoritm 188 turdagi testdan o'tkazildi. Bu testlar algoritmning turli jihatlarini baholash uchun mo'ljallangan bo'lib, ular orasida bitlar ketma-ketligidagi tasodifiylik, bitlarning taqsimlanishi, naqshlarning mavjudligi va boshqa kriptografik xususiyatlar tekshiriladi.

6. Statistik portret: Har bir xesh funksiya algoritmi uchun 18,800 ta P -ehtimollik qiymatlari hisoblandi. Bu qiymatlar algoritmning statistik tasviri va xavfsizlik ko'rsatkichlarini baholashda foydalaniladi hamda uning tasodifiylik darajasini aniqlashga yordam beradi.

Ushbu parametrlar asosida amalga oshirilgan NIST STS testlari xesh funksiya algoritmlarining tasodifiylik va kolliziyalarga chidamliligini baholashga yordam beradi. Ular xesh algoritmlarining samaradorligini statistik jihatdan baholab, qaysi algoritm xavfsizroq ekanligini aniqlaydi.

Ideal holatda, agar $m = 100$ va $\alpha = 0.01$ bo'lsa, har bir testdan o'tish ehtimoli 99% bo'lishi kerak, ya'ni 100 ta ketma-ketlikdan faqat bittasi testdan o'tmasligi mumkin. Biroq, bu juda qat'iy shart bo'lgani uchun, ishonchli intervallardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu holatda ishonchli interval quyidagi tarzda hisoblanadi:

Ishonchli intervalni hisoblash uchun binomial taqsimotdan foydalaniladi. Testdan o'tmagan ketma-ketliklar soni uchun kutilgan o'rtacha qiymat

$$\mu = m \times \alpha = 100 \times 0.01 = 1 \text{ bo'ladi.}$$

Ishonchlilik darajasiga mos ravishda z -skor yordamida ishonchli interval quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Ishonchli interval } \mu \pm z \times \sigma$$

Masalan, 95% ishonchlilik darajasi uchun $z \approx 1.96$ bo'lsa, ishonchli interval quyidagicha bo'ladi:

$$\sigma = \sqrt{100 * 0.01 * 0.99} = \sqrt{0.99} \approx 0.9949$$

Ishonchli interval $1 \pm 1.96 \times 0.9949$

Ishonchli interval 1 ± 1.949

Shunday qilib, ishonchli interval $[0, 2.949]$ oraliqda bo'ladi (chunki manfiy sonlar qabul qilinmaydi). Demak, test natijalarida testdan o'tmagan ketma-ketliklar soni 3 tagacha bo'lsa, bu normal holat deb hisoblanadi va xesh funksiyasi tasodifiylik testidan muvaffaqiyatli o'tdi deb qaraladi. Agar testdan o'tmagan ketma-ketliklar soni 3 dan oshsa, bu xesh funksiyasining tasodifiylik darajasi past ekanligini ko'rsatishi mumkin.

Ishonchli intervalni hisoblash test natijalarini to'g'ri talqin qilish va xesh algoritmlarining tasodifiylik darajasini aniq baholashda muhim ahamiyatga ega. Bu usul yordamida xesh funksiyalarining xavfsizlik darajasi va kolliziyalarga chidamliligi yanada aniqroq baholanadi.

Testdan o'tish foizining quyi chegarasi r_{\min} quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$r_{\min} = p - z * \sqrt{\frac{p * (1 - p)}{m}}$$

bu yerda:

- $p = 0.99$ — testdan o'tish ehtimoli;
- z — ishonch darajasiga mos keladigan standart normal taqsimotdan olinadigan qiymat (masalan, 95% ishonch intervali uchun $z \approx 1.96$);
- m — testlar soni, ya'ni 100.

Shunday qilib, quyi chegara r_{\min} testlarning talablarga mos kelishi uchun ishonchli intervaldagi pastki chegarani aniqlaydi.

Testlar natijasiga ko'ra, agar natijalar r_{\min} qiymatidan yuqori bo'lsa, test o'tkazilgan algoritm ishonchli deb baholanadi.

Bu degani, testdan o'tayotgan har bir tanlov (ketma-ketliklar) uchun muvaffaqiyatli o'tish ehtimoli 96% dan kam bo'lmasligi kerak. Agar muvaffaqiyatli o'tgan ketma-ketliklar foizi 96% yoki undan yuqori bo'lsa, bu testdan o'tish talablariga mos keladi va algoritm ishonchli deb baholanadi.

III. Natijalar

Bu ishonchli interval doirasidagi quyi chegaradir, va unga muvofiq, testdan o'tgan xesh



algoritm muvaffaqiyatli deb baholandi, va 99% talablar bo'yicha ham juda yaxshi natijalar ko'rsatgan. Bu algoritm yuqori darajada tasodifiylikka va xavfsizlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

4-jadval.

SHA-1 xesh funksiya algoritmi uchun NIST testi natijalari.

№	Xesh funksiya algoritmi	Ketma-ketlikning 96% dan ortiq testdan o'tganlari soni	Ketma-ketlikning 99% dan ortiq testdan o'tganlari soni
1	SHA-1	182 (96.80%)	120 (63.83%)
2	SHA-1	181 (96.28%)	119 (63.30%)
3	SHA-1	183 (97.34%)	122 (65.32%)
4	SHA-1	180 (95.74%)	118 (62.77%)
5	SHA-1	182 (96.80%)	121 (64.36%)
6	SHA-1	181 (96.28%)	120 (63.83%)
		O'rtacha foizi	181.5 (96.37%)

IV. Natijalar Tahlili:

1. 96% dan ortiq testdan o'tgan ketma-ketliklar:

- Har bir holatda 96% dan ortiq ketma-ketliklar muvaffaqiyatli testdan o'tgan. Algoritmning tasodifiylik darajasi belgilangan quyi chegaralarga mos keladi.
- O'rtacha hisobda 96.37% ketma-ketlik 96% dan ortiq testdan muvaffaqiyatli o'tgan, bu **quyi chegara talablariga** to'liq javob beradi.

2. 99% dan ortiq testdan o'tgan ketma-ketliklar:

- 99% dan ortiq testdan o'tgan ketma-ketliklar soni nisbatan pastroq, taxminan 62.77% dan 65.32% gacha bo'lgan holatlarda qayd etilgan.
- O'rtacha hisobda 63.90% ketma-ketlik 99% dan ortiq testdan muvaffaqiyatli o'tgan, bu qiymat ko'p holatlarda pastroq hisoblanadi, lekin 99% test talablariga yaqin foizda bo'lganini ko'rsatadi.

SHA-1 xesh algoritmi NIST testlaridan muvaffaqiyatli o'tdi, ayniqsa, 96% test talablari bo'yicha. Ammo 99% talablar bo'yicha natijalar

nisbatan pastroq, taxminan 63.90% darajada bo'lib, bu algoritmning yuqori xavfsizlik talablariga to'liq mos kelmasligini ko'rsatadi. Har qanaqasiga, **SHA-1** standart xesh algoritmi deb hisoblanishiga qaramay, uning xavfsizlik darajasi zamonaviy talablarga ko'ra etarli emasligi haqidagi xulosani qo'llab-quvvatlaydi.

O'tkazilgan tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

1. SHA-1, SHA-2, SHA-3 xesh funksiya algoritmlarini NIST paketi testlari orqali tasodifiylikni tekshirish natijasida past (mos ravishda 16%, 65%, 66%) foiz ko'rsatkichlari olindi. Bu natijalar ushbu xesh algoritmlarda bir qator muhim tuzilmalarning samarali emasligi bilan xarakterlanadi:

- Yagona chiziqsiz aksantirishning mavjud emasligi: Xesh algoritmlarda chiziqsizlik mexanizmlari kerakli darajada tatbiq etilmagan. Bu, ayniqsa, xavfsizlik nuqtai nazaridan muhim, chunki chiziqsizlik ma'lumotni "aralashtirish" va hujumlarga qarshi chidamlilikni ta'minlashga yordam beradi.

- mod232 bo'yicha qo'shish amalining mod2 amaliga almashtirilishi: Kriptografik algoritmlarda mod2 amali ko'pincha chiziqli bo'lib, xavfsizlikni kuchaytirish uchun ko'pincha modulli arifmetika (mod232 kabi) talab qilinadi. Bunday amaliyotni yoritib bermaslik algoritmning xavfsizligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

- Raund aksantirishi ($f(x, y, z) = x \oplus y \oplus z$): Bu funksiya chiziqli bo'lib, xavfsizlik uchun etarli darajada samarali emas. Chiziqli funksiyalar hujumchiga algoritmni tahlil qilishni osonlashtirishi mumkin, chunki ular ma'lumotni yuqori darajada aralashtirmaydi.

- Nisbatan past chiziqsizlik qiymati: *mod232* bo'yicha qo'shish amalida chiziqsizlik qiymati pastligi xesh algoritmlarning xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Chiziqsizlik algoritmning kuchli himoyasini ta'minlaydigan muhim omildir, va uning past bo'lishi algoritmni potensial hujumlarga mos qiladi.

Bu xulosalardan ko'rinib turibdiki, xesh funksiya algoritmlarining xavfsizligi va tasodifiylik ko'rsatkichlari asosan chiziqsizlik darajasiga bog'liq. Natijalar algoritmlarning kriptografik jihatdan



samaraliligini oshirish uchun ularda kuchliraq chiziqsizlik mexanizmlarini tatbiq etish zarurligini ko'rsatadi.

2. Xesh funksiya algoritmlarini NIST paketi testlari bilan tasodifiylikka tekshirishda past foiz ko'rsatkichdagi natijalar olinishi quyidagilarni ko'rsatadi:

1. Algoritm strukturasi qusurlar: Past natijalar xesh funksiya algoritmining ichki tuzilmasida turli kamchiliklar va qusurlar mavjudligini anglatadi. Bu kamchiliklar algoritmnining xavfsizlik va tasodifiylik talablariga to'liq javob bermasligiga olib keladi.

2. Jadal samaradorlik darajasining etarli emasligi: Xesh algoritmnining samaradorligi past bo'lsa, u ma'lumotlarni yaxlitlik va xavfsizlik nuqtai nazaridan samarali qayta ishlay olmaydi. Bu algoritmnining kuchli himoya qilish qobiliyatini pasaytiradi.

3. Kolliziya topilishiga moyillik: Past tasodifiylik natijalari xesh funksiya algoritmda kolliziyalarni oson topish imkonini oshiradi. Kolliziya — bu turli ma'lumotlar uchun bir xil xesh qiymatini aniqlash, va bu hujumchilarga ma'lumotni o'zgartirib hamda uning haqiqiylikini shubha ostiga qo'yish imkoniyatini beradi. Kolliziyalarni oson aniqlash xesh algoritmining xavfsizligiga jiddiy xavf tug'diradi.

4. Zarur instrument: Tasodifiylik testlari xesh funksiya algoritmining xavfsizligini baholash va kolliziyalarga chidamliligini aniqlash uchun zarur vositadir. Past natijalar xesh algoritmda xavfsizlik muammolari mavjudligini ko'rsatib, uning qayta ishlanishi yoki kuchliroq mexanizmlar bilan almashtirilishi kerakligini bildiradi.

Shu boisdan, xesh algoritmlarining NIST testlari orqali olingan natijalari ularning xavfsizligi va ishonchliligini baholashda muhim ahamiyatga ega.

Bevosita tahlillarga asoslanib, shunday xulosa qilish mumkin, imzoni qalbakilashtirish usullari ichida dastlabki ikki usul (kriptografik tahlil yoki boshqa vositalar orqali) xesh algoritmi ishlab chiqish jarayonida nisbatan kam ta'sirga ega. Bu usullar ko'p hollarda algoritmnining xavfsizlik va tasodifiylik xususiyatlarini sezilarli darajada buzmasligi mumkin.

Biroq, 3-usul — ya'ni algoritmdagi xatolar va kamchiliklardan foydalanib qalbakilashtirishga yo'l ochuvchi jarayonlar — bevosita muhim rol o'ynaydi. Bu usul quyidagilarni o'zida mujassam etadi:

1. Algoritmdagi tuzilmaviy xatoliklar: Xatolar algoritmnining ayrim bosqichlarida, xususan, xesh funksiyasida yoki raund mexanizmlarida muammolarga olib keladi. Bunday xatolar qalbakilashtirish va kolliziyalarni oson topish imkoniyatini oshiradi.

2. Chiziqsizlik va past darajadagi chiziqsizlik: Algoritmnining chiziqli bo'lishi yoki past darajada chiziqsizlikka ega bo'lishi algoritmnini kriptotahlilga nisbatan osonroq zaif qiladi. Shuning uchun 3-usul algoritmgaga ta'sir qilish va uning ishonchliligini pasaytirish uchun muhim hisoblanadi.

3. Kolliziyaga moyillik: Algoritmdagi kamchiliklar kolliziyalarni oson aniqlashga olib keladi. Qalbakilashtirish jarayonida kolliziyalardan foydalanish hujumchilar uchun juda samarali bo'ladi, bu esa 3-usulning asosiy xavfi hisoblanadi.

Shu sababli, 3-usul imzoni qalbakilashtirishda muhim rol o'ynaydi va xesh algoritmini ishlab chiqishda bu jarayonlarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Ta'rif: Agar kriptotahlil jarayonida algoritm qadamlaridagi xatoliklardan foydalangan holda elektron raqamli imzoni (ERI) qalbakilashtirish imkoniyati paydo bo'lsa, kriptografiyada bunday ERI algoritmlari **kuchsiz** algoritmlar deb ataladi.

Bu shunday algoritmlar bo'lib, ulardagi tuzilmaviy yoki hisoblash jarayonidagi kamchiliklar hujumchilarga imzoni qalbakilashtirish imkonini beradi, bu esa algoritmnining xavfsizligiga jiddiy xavf tug'diradi. Kuchsiz ERI algoritmlarida kolliziyalarni topish oson bo'lib, bu hujumchilarga imzoni buzib, soxta ma'lumot bilan o'rtaga kirish imkoniyatini beradi.

Kuchsiz ERI (elektron raqamli imzo) algoritmlari shunday algoritmlardirki, ularning qadamlar ketma-ketligi bardoshli algoritmlarga o'xshash bo'lishi mumkin, lekin ulardagi kamchiliklardan foydalanib, maxfiy kalitni bilmasdan ham imzoni qalbakilashtirish mumkin. Bunda



hujumchi imzoni yaratadi va tekshiruvchi tomon uni to'g'ri deb qabul qiladi, chunki imzo tekshirish mexanizmi bu soxtalikni aniqlay olmaydi.

Amaliyotda bunday kuchsiz algoritmlardan foydalanish xavfli bo'lib, ma'lumotlar va tizimlar xavfsizligini jiddiy darajada xatar ostiga qo'yadi. Shuning uchun kuchsiz ERI algoritmlaridan foydalanish maqsadga muvofiq emas. Yangi imzo algoritmini ishlab chiqish jarayonida, bunday kuchsiz algoritmlarga alohida e'tibor qaratish juda muhim. Bu bilan algoritmnining mukammalligi ta'minlanib, uning qalbakilashtirishdan himoyasi kuchaytiriladi.

Xulosa. Ushbu maqolada xesh funksiya algoritmlarining tasodifiylik xususiyatlarini baholash uchun NIST STS test to'plami qo'llanildi. Natijalar xesh algoritmlarining xavfsizlik darajasini baholashda va ularni amaliyotda qo'llashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning kolliziyalarga chidamliligi va tasodifiylik darajasi o'rganildi. Tadqiqotda SHI-1, SHI-2, SHI-3 va SHA-1 kabi xesh algoritmlari tanlab olindi va har biri NIST STS testlari yordamida tahlil qilindi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, SHI-3 algoritmi eng yuqori tasodifiylik va kolliziyalarga chidamlilik darajasiga ega bo'lib, u xavfsizlik nuqtai nazaridan eng afzal algoritm hisoblanadi. Boshqa tomondan, SHI-1 algoritmi tasodifiylik darajasi past bo'lib, kolliziyalarga nisbatan zaif hisoblanadi. SHA-1 algoritmi esa standart bo'lishiga qaramay, ba'zi zaif tomonlarini ko'rsatdi va xavfsizlik darajasi zamonaviy talablarga to'liq mos kelmasligini aniqladi.

Ushbu tadqiqotdan kelib chiqadigan muhim xulosalardan biri shundaki, xesh funksiya algoritmlarining xavfsizligi va samaradorligini oshirish uchun ularning tasodifiylik xususiyatlarini yaxshilash zarur. Maqola natijalari shuni ko'rsatadiki, NIST STS testlari xesh algoritmlarining xavfsizligini baholash va ularning kolliziyalarga bardoshliligini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Kelajakda kriptografik tizimlarni yanada ishonchli qilish uchun ushbu testlardan foydalanish davom ettirilishi lozim.

Umuman olganda, ushbu tadqiqot xesh funksiyalari algoritmlarining tasodifiylik xususiyatlarini baholash va ularning xavfsizligini

ta'minlashda muhim ahamiyatga ega bo'lib, zamonaviy kriptografik tizimlar uchun dolzarb masalalarni yoritadi. Bu tadqiqot natijalari kriptografik algoritmlarni tanlash va ularning samaradorligini oshirishda yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Church, "An unsolvable problem of elementary number theory", American Journal of Mathematics, 58 (1936), 345–363.
2. Barbeau, E.J. Polynomials 1st edition, Springer (2003)
3. Case, M. "A beginners guide to the general number field sieve" (2003)
4. Crandall, R. Pomerance, C, Prime Numbers, 2nd edition, Springer (2010)
5. Hoffstein, J. An introduction to Mathematical Cryptography, 2nd edition, Springer (2010)
6. Lehmer, D.H, Powers, R.E "On Factoring Large Numbers". Bulletin of the American Mathematical Society. 37(10): 770-776, (1931)
7. Mckee J. Speeding Fermat's Factoring Method. American Mathematical Society. Mathematics Computation. Volume 68, Number 228, P. 1729-1737
8. Mollins, R. A brief history of factoring and primality testing B.C. (before computers) Mathematics Magazine), (2002).
9. Morrison, M. Brillhart, J. A Method of Factoring and the Factorization of F7. Mathematics of computation, volume 29, number 129, pages 183-205, January (1975).
10. Nisha, S. Farik, M. RSA Public Key Cryptography Algorithm – A review. International Journal of Scientific & Technology Research. 6, (2017)
11. Pollard, J.M. A Monte Carlo method for factorization. BIT 15, 331-334 (1975).
12. Pomerance, C. Analysis and Comparison of Some Integer Factoring Algorithms, in Computational Methods in Number Theory, Part 1, H.W. Lenstra, Jr. and R. Tijdeman, eds. Math. Centre Tract 154, p 89-139. Amsterdam, (1982)



13. Rabah, K. Review of Methods for Integer Factorization Applied to Cryptography. *Journal of Applied Sciences*.6. p461, (2006)
14. Schnorr, C.P, Factoring Integers and Computing Discrete Logarithms via Diophantine Approximation. In: Davies D.W. (eds) *Advances in Cryptology. Lecture Notes in Computer Science*, Vol 547. Springer, Berlin, Heidelberg, (1991).
15. Bressoud, D. M. *Factorization and Primality Testing*. — N. Y.: Springer-Verlag, 1989. — 260 p. — ISBN 0-387-97040-1.



Simulation and design of a small-sized pentagon broadband antenna for 5G connectivity

Xatamova Mavluda Komiljon qizi,

Urgench branch of the Tashkent University
of Information Technologies named after
Muhammad Al- Khorazmi,
Khorezm,Uzbekistan
xatamovamavluda7@gmail.com

Matsapayev Jamshidbek Sodiqjon o‘g‘li,

Urgench branch of the Tashkent University
of Information Technologies named after
Muhammad Al- Khwarizmi,
Khorezm,Uzbekistan
matsapayevjamshid@gmail.com

Voxid Kuchkarov Alisherovich,

Urgench branch of the Tashkent University
of Information Technologies named after
Muhammad Al- Khwarizmi,
Khorezm,Uzbekistan
voxidkuchkarov@umail.uz

Abstract: The development of fifth-generation (5G) mobile networks requires the creation of compact, efficient and broadband antennas capable of operating at high frequencies, including millimeter waves (25-40 GHz). Antennas for 5G should provide high bandwidth, low latency and high connection density. One approach to achieve these goals is to develop miniature antennas of unusual geometry, such as pentagon-shaped antennas. The pentagonal shape makes it possible to achieve efficient use of space and improve frequency characteristics, which makes it attractive for 5G devices. This article discusses the process of modeling a pentagonal antenna for 5G networks.

Keywords: pentagonal antenna, 5G, 25-40 GHz, 28 GHz, CST studio Suite.

Introduction

1. Antennas for 5G:

Features and requirements Antennas for 5G networks must meet the following basic requirements:

- **Broadband:** 5G requires an antenna capable of operating at frequencies from 24 to 40 GHz to ensure high bandwidth. **Compact:** 5G devices such as smartphones and IoT devices require miniature antennas that can be easily integrated into a limited space.

- **High efficiency and low losses:** it is necessary to minimize losses and ensure maximum gain.

- **Versatility:** Antennas for 5G often require radiation circuits with a wide coverage angle to ensure reliable communication in urban environments and

high device densities. A pentagonal antenna may be a suitable solution, as its geometry helps to achieve good agreement with transmission lines, broadband and compactness.

Another 902 / 5,000 5G antennas: specifications and requirements 5G antennas must meet the following key requirements:

- **Broadband:** To support high 5G bandwidth, antennas capable of operating at frequencies from 24 to 40 GHz are required.

- **Compact:** 5G devices such as smartphones and IoT devices require miniature antennas that can be easily integrated into a limited space.

- **High efficiency and low losses:** Antennas should minimize losses and provide maximum gain.



- **Omnidirectionality:** 5G antennas often require directional patterns with wide coverage angles to ensure reliable communication in urban environments and at high device densities. A pentagonal antenna may be a suitable solution, as its geometry helps to achieve good line alignment, wide bandwidth and compactness.

2. Design parameters of a pentagonal antenna.

When developing a pentagonal antenna for 5G, the following parameters must be taken into account:

- **Antenna shape:** The pentagon has a more complex structure compared to traditional rectangular or round antennas. This shape can improve the current distribution over the antenna surface, resulting in increased bandwidth.

- **Frequency range:** The antenna must be optimized to operate in the millimeter wave range, usually from 24 to 40 GHz. This requires precise selection of the length of the sides and corners of the pentagon.

- **Impedance matching:** For the antenna to work effectively, it is necessary to ensure matching with the typical transmission impedance (usually 50 ohms). This reduces reflections and improves power transmission.

- **Materials:** The materials used for the antenna must have high conductivity (for example, copper or aluminum), and also use low-loss dielectrics for the substrate.

3. The modeling process.

Electromagnetic modeling software packages such as CST Microwave Studio, HFSS, or MATLAB are used to simulate a pentagonal antenna for 5G. These tools allow you to perform three-dimensional modeling, analyze antenna characteristics such as radiation pattern, gain, standing wave ratio (VSWR), and calculate radiation losses and bandwidths.

Theoretical Framework for Antenna

Basic modeling steps:

1. **Setting the antenna geometry:** The first step is to set the exact dimensions of the pentagonal antenna. The length of the sides and the angles of the pentagon are determined taking into account the

resonant frequency of the antenna (for example, for a frequency of 28 GHz, the side length may be on the order of 2.7 mm).

2. Determination of substrate and materials:

The antenna substrate should be selected from a low-loss dielectric, such as Rogers RT/duroid, to minimize signal loss at high frequencies. Materials for the conductive parts of the antenna, such as copper or aluminum, are also specified.

3. **Frequency analysis:** The frequency analysis of the antenna in the range from 24 to 40 GHz is performed. This allows you to determine the main characteristics of the antenna, such as gain, impedance and bandwidth.

4. **Analysis of the standing wave coefficient (S11):** S11 is one of the key parameters indicating antenna alignment. The S11 value should be below -10 dB for all operating frequencies to ensure that the antenna emits most of the power supplied to it.

5. **Radiation pattern modeling:** A pentagonal antenna must provide multipath coverage, so it is important to analyze the radiation pattern to make sure that the antenna provides the required viewing angle and uniform energy distribution.

This paper focuses on the latter type of antenna, with the length of the grating side approximately $\lambda = \lambda_g$ as well as the small side's width $s = \lambda_g/2$, where λ_g is the controlled wavelength at the center operating frequency [3]. There are other parameters of the rectangular microstrip patch antenna: patch width (W), patch length (L), length and breadth (Wg) of the grounding plane, and substrate (grounding layer and middle layer) (Lg).

There are many ways to analyze an antenna made from a patch with a microstrip, including the transmission line representation and the recessed model. The most basic model would be the design based on transfer lines [4].






Fig. 1. Transfer lines marked pentagonal antenna signal generation source.

Transmission line equations [5].

To find the width (W):

$$W = \frac{c}{2 f_0 \sqrt{\frac{\epsilon_r + 1}{2}}}, \quad (1)$$

To determine the constant of dielectric impact:

$$\epsilon_{reff} = \frac{\epsilon_r + 1}{2} + \frac{\epsilon_r - 1}{2} \left(1 + 12 \frac{h}{w}\right)^{-1/2}, \quad (2)$$

To determine the length that is most impactful or relevant:

$$L_{eff} = \frac{c}{2 f_0 \sqrt{\epsilon_{reff}}}, \quad (3)$$




Fig 2. Illustrates the physical and effective lengths of a rectangular microstrip patch antenna.

To accurately ascertain the magnitude of the supplementary field effect within the lateral layer of the antenna:

$$(\Delta L):L = 0.412 h \frac{(\epsilon_{reff} + 0.3) \left(\frac{w}{h} + 0.264\right)}{(\epsilon_{reff} - 0.258) \left(\frac{w}{h} - 0.8\right)}, \quad (4)$$

To find the exact size L and the width and length of the ground connection (Ground):

$$L = L_{eff} - 2\Delta L, \quad (5)$$

$$L_g = 2 * L, \quad (6)$$

$$W_g = 2 * W, \quad (7)$$

For the design of microstrip feed lines using an inset feed configuration:

- Typically, the source of resistance is 50 Ω .
- Line width for microstrip feedings (W_f)

$$Z_c = \frac{60}{\sqrt{\epsilon_{reff}}} \ln \left[\frac{8h}{W_0} + \frac{W_0}{4h} \right], \quad \frac{W_0}{h} \leq 1, \quad (8)$$

$$\frac{120\pi}{\sqrt{\epsilon_{reff}} \left[\frac{W_0}{h} + 1.393 + 0.667 \ln \left(\frac{W_0}{h} + 1.444 \right) \right]}, \quad \frac{W_0}{h} > 1, \quad (9)$$

Here, W_0 represents the width of the microstrip line, and Fi denotes the length of the inset.

$$fi = 10^{-4} (0.001699 * \epsilon_r^7 + 0.13761 * \epsilon_r^6 - 6.1783 * \epsilon_r^5 + 93.187 * \epsilon_r^4 - 682.69 * \epsilon_r^3), \quad (10)$$

The difference between patch and inset-fed is usually 1 mm.

We calculate W, L using Patch's equations:

$$W = \frac{c}{2 f_0 \sqrt{\frac{\epsilon_r + 1}{2}}}, \quad (11)$$

$$\epsilon_{reff} = \frac{\epsilon_r + 1}{2} + \frac{\epsilon_r - 1}{2} \left(1 + 12 \frac{h}{w}\right)^{-1/2}, \quad (12)$$

$$L_{eff} = \frac{c}{2 f_0 \sqrt{\epsilon_{reff}}}, \quad (13)$$

$$\Delta L = 0.412 h \frac{(\epsilon_{reff} + 0.3) \left(\frac{w}{h} + 0.264\right)}{(\epsilon_{reff} - 0.258) \left(\frac{w}{h} - 0.8\right)}, \quad (14)$$

$$L = L_{eff} - 2\Delta L; \quad (15)$$

$$L_g = 2 * L; \quad W_g = 2 * W, \quad (16)$$

$$fi = 10^{-4} (0.001699 * \epsilon_r^7 + 0.13761 * \epsilon_r^6 - 6.1783 * \epsilon_r^5 + 93.187 * \epsilon_r^4 - 682.69 * \epsilon_r^3), \quad (17)$$

$$f_0 = 2.4 \text{ GHz}$$

Rogers RO3203(lossy)



$\epsilon_r = 3.02$ $h = 0.2 \text{ mm}$ $t = 0.035 \text{ mm}$
 $W \approx 6 \text{ mm}$, $L \approx 10 \text{ mm}$, $Fi \approx 1.5 \text{ mm}$
We calculate the width W_f of the feed line:

$$Z_c = \frac{60}{\sqrt{\epsilon_{reff}}} \ln \left[\frac{8h}{W_0} + \frac{W_0}{4h} \right], \quad \frac{W_0}{h} \leq 1, \quad (18)$$

$$\frac{120\pi}{\sqrt{\epsilon_{reff}} \left[\frac{W_0}{h} + 1.393 + 0.667 \ln \left(\frac{W_0}{h} + 1.444 \right) \right]}, \quad \frac{W_0}{h} > 1, \quad (19)$$

Here, W_0 is the width of the microstrip line. (14)

Main Part

As you can see, the antenna elements have small dimensions because they are designed for the millimeter frequency range. Due to its low tangent losses, we employed Rogers 5880 as the substrate material for this study, chosen for its suitability in the high-frequency band. It was specially developed for the production of antennas for the fifth-generation millimeter networks of radio waves. Its parameters include a dielectric constant (ϵ) of 2.2 and a loss tangent ($\tan\delta$) of 0.0009. As for the supply point, it is usually located near the center of the antenna.

Workflow and simulation results in CST software. The result of intensive study and development efforts targeted at offering extremely accurate and effective computational solutions for electromagnetic design difficulties is the electromagnetic modeling program CST Studio Suite. It includes CST tools made specifically for the design and optimization of devices throughout a wide frequency range, from optical to static frequencies. In addition to electrical modeling, assessments of both mechanical and thermal effects are included in the studies provided. One of the best tools available for accurate and quick 3D simulations of high-frequency devices is CST Microwave Studio.

In CST studio suite, the following sequences are performed to design planar microscale grating antennas: The CST Microwave studio is chosen because the flat micro-scale grating antenna works in

the microwave frequency range. We will initiate a new project within the microwave section of CST Microwave Studio, where we will specify the wavelength of the antenna. In the CST Microwave studio, the ground and substrate of the flat micro-scale grating antenna are $W_g=11\text{mm}$; $L_g=31\text{mm}$; $H_g=0.38\text{mm}$; in the dimensions, we mark it as in Fig. 4.




Fig. 4. Ground and substrate of grating antenna.

The following images show the sequence of making one patch in CST Microwave studio. Patch sizes $L=6\text{mm}$; $W=10\text{mm}$; $H=0.2\text{mm}$; material Rogers RO 3203(lossy); $\epsilon=3.02$;

Due to the lack of instruments and equipment in the laboratory, it is not possible to measure the radiation pattern. Therefore, only results simulated in the CST software are presented. This article presents the E-field and H-field radiation patterns. Figure 8 illustrates the characterization of the radiation pattern for co-polarization in the E-plane, within a 28GHz broadband configuration. Radiation patterns are multidirectional. The gain is evenly distributed with a maximum amplitude of 31 dBV/m.




Fig. 6. Radiation pattern at 25GHz.






Fig.7. Radiation pattern at 28GHz.

Radiation diagrams were viewed at different frequencies (25-28GHz). These radiation patterns were significantly different from each other. In Figure 6, we can see the maximum radiation of the modeled antenna at 25GHz in flame color and its value is 6.995 dBi. The minimum radiated power is depicted in light green, equal to -7.485 dB. That is, we can call the light depicted in green color a side leaf, and the flame-colored light the main directed light.

In Figure 7, we can see that the 3D radiation at 28GHz is quite different from the radiation at 25GHz. One of these differences is that the primary beam is shifted to the right along the x-axis, and its radiated power is 7.122dBi. The minimum side radiation is -4.643 dB. So, it can be seen from these two pictures that the grating antenna we modeled has a better radiation level along the z axis at 25GHz.




Fig. 8. Parameter S of the modeled antenna.

Eigenfrequency of the modeled grating antenna Its value is 26.4 GHz, expressed in the frequency dependence graph of parameter S in Fig. 8. This frequency is the maximum radiated and received frequency for the modeled antenna.




Fig. 9. Depicts the radiation pattern of the modeled antenna in the horizontal plane at a frequency of 25GHz.

texnologiyalar va xavfsizlik standartlarini joriy qilish zarur. Shuningdek, ko'p modalli transport* tizimini qo'llash orqali yuklarni temir yo'l, avtomobil va dengiz transporti orqali birlashtirib yetkazish logistika xarajatlarini kamaytirib, savdo jarayonlarini tezlashtiradi va mamlakat raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.[14]

Mintaqaviy va xalqaro savdo hamkorliklari doirasida qo'shni davlatlar bilan raqamli integratsiyani kuchaytirish, jumladan, transport va bojxona jarayonlarini avtomatlashtirish savdo yo'nalishlarini optimallashtiradi va tranzit to'siqlarini kamaytiradi. Bu O'zbekiston mahsulotlarini tezkor va samarali eksport qilish imkoniyatini oshirib, savdo xarajatlarini kamaytiradi va xalqaro bozorda raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

***Izoh: Ko'p modalli transport — bu yuk tashish jarayonida bir nechta transport turidan (masalan, temir yo'l, avtomobil, dengiz) foydalanish usuli. Bu yuklarni tez va samarali yetkazish uchun transport turlarini bir-biriga ulashni ta'minlaydi.**



Grafik 5: O'zbekistonning Asosiy Savdo Hamkorlari, 2022. **Manba:** International Trade Administration[15]

Xususan, yuqoridagi grafik 5da O'zbekistonning 2022-yildagi asosiy savdo hamkorlarini ko'rsatadi. Rossiya (18.6%) va Xitoy (17.8%) eng yirik savdo hamkorlari bo'lib, O'zbekistonning eksport va importdagi muhim sheriklari hisoblanadi. Shuningdek, Qozog'iston (9.2%), Turkiya (6.4%) va Janubiy Koreya (4.7%) ham O'zbekiston savdo geografiasining ajralmas qismidir. Bu davlatlar bilan kuchli iqtisodiy aloqalar

O'zbekistonning mintaqadagi savdo jarayonlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Biroq, quruqlik bilan o'ralgan O'zbekiston uchun faqat qo'shni davlatlar bilan cheklangan holda qolmaslik, global savdo geografiasini kengaytirish juda muhimdir. Elektron tijorat va raqamli savdo platformalari yordamida boshqa uzoq bozorlar bilan savdo qilish imkoniyatlari kengaytirilishi zarur. Shu bilan birga, mintaqaviy hamkorlik O'zbekiston kabi davlatlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega, chunki logistika va tranzit imkoniyatlari qo'shni davlatlar orqali amalga oshiriladi. Yaqin davlatlar bilan transport va bojxona sohalarida raqamli hamkorlikni kuchaytirish O'zbekistonning xalqaro bozorlarga chiqishini tezlashtiradi va tranzit xarajatlarini kamaytiradi.

Xulosa va tavsiyalar: O'zbekistonning xalqaro savdoda raqobatbardosh bo'lishi va samarali ishtirok etishi transport va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan bevosita bog'liq. Transport infratuzilmasini takomillashtirish, mahsulotlarni tez va samarali tarzda xalqaro bozorlarga yetkazish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bojxona jarayonlarining raqamlashtirilishi, jarayonlarning soddalashtirilishi va xavfsizlik standartlarini oshirish logistika xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirib, tashish jarayonlarining samaradorligini oshiradi va mahsulotlarni yetkazib berish muddatlarini qisqartiradi. Bu esa eksport va import operatsiyalarida raqobatbardoshlikni oshiradi hamda O'zbekistonning savdo aloqalarini kengaytirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning quruqlik bilan oralgan geografik joylashuvi xalqaro savdoda murakkab logistika muammolarini keltirib chiqaradi. Biroq, bu cheklovlarni ko'p modalli transport tizimlarini takomillashtirish orqali hal qilish mumkin. Temir yo'l, avtomobil va dengiz transportining samarali integratsiyasi mahsulotlarni portlarga tez yetkazib, xalqaro bozorlarga jo'natish jarayonlarini tezlashtiradi va xarajatlarni kamaytiradi. Bu esa savdo jarayonlarini samaraliroq, arzon va raqobatbardosh qilishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, transport tizimlarining integratsiyasi O'zbekistonning xalqaro hamkorlikni kuchaytirishi va mintaqaviy tranzit yo'llari orqali



yanada keng savdo aloqalariga ega bo'lishini ta'minlaydi. Shu tarzda, mamlakat o'zining quruqlik bilan oralganligi tufayli yuzaga keladigan cheklovlarni yengib, global savdoda o'z o'rnini mustahkamlashi mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Prabhakra, M. S. Shimoliy-Sharqiy Hindiston quruqlik bilan o'ralganmi? Economic and Political Weekly, 2004-yil 16-22 oktyabr, 39-jild, 42-son, 4606-4608-betlar. Nashr qilingan: Economic and Political Weekly.
2. Prabhakra, M. S. Shimoliy-Sharqiy Hindiston quruqlik bilan o'ralganmi? Economic and Political Weekly, 2004-yil 16-22 oktyabr, 39-jild, 42-son, 4606-4608-betlar. Nashr qilingan: Economic and Political Weekly.
3. Jayaramon T.K., Shrestha O.L. (1976). "Quruqlikda joylashgan Nepalning savdo muammolari", Asian Survey, 16(12), 1113-1123-betlar.
4. Debie J. va B. Steck (2001). "Quruqlikda joylashganlik: nazariy qayta baholash va G'arbiy Afrikaga tatbiq qilish", Geografik makon, 30(1), 26-36-betlar.
5. MacKellar, Landis, Andreas Wörgötter va Julia Wörz (2000). "Quruqlikda joylashgan davlatlarning iqtisodiy rivojlanish muammolari", O'tish iqtisodiyoti seriyasi, №14.
6. Arvis, Jean-Francois, Gael Raballand va Jean-Francois Marteau (2010). "Quruqlikda joylashganlik xarajatlari: Logistika xarajatlari va ta'minot zanjiri ishonchliligi", Taraqqiyot yo'nalishlari, Savdo, Nashriyot: Jahon Banki, Vashington, D.C.
7. Radelet, Steven va Jeffrey D. Sachs. "Yuk tashish xarajatlari, ishlab chiqarilgan mahsulotlar eksporti va iqtisodiy o'sish", Amerika Iqtisodchilar Assotsiatsiyasi yillik yig'ilishida taqdim etilgan, Chikago.
8. Faye, Michael L., John W. Macarthur, Jeffery D. Sachs va Thomas Snow (2004). "Quruqlikda joylashgan rivojlanayotgan davlatlar duch keladigan muammolar", Inson taraqqiyoti jurnali, 5(1), 31-68-betlar.

9. Jahon Banki. (2020). O'zbekiston: Transport va Logistika Taraqqiyoti uchun Integratsiyalashgan Rivojlanish Asoslari. Vashington, D.C.: Jahon Banki
Guruhi. Manba: <https://openknowledge.worldbank.org/server/api/core/bitstreams/9c7cef2e-0802-5579-aeff-8bb32946e2f8/content>.

10. Scienta.Global (2021) "Xitoyning Bir makon, bir yo'l tashabbusi: Dunyo bo'ylab ulkan ulanish tashabbusi,"
Manba: <https://jstor.org/stable/community.37317647>.

11. Jahon Banki. (2021). Savdo va iqtisodiy rivojlanishni yaxshiroq logistika orqali kuchaytirish.
Manba: <https://blogs.worldbank.org/en/trade/boosting-trade-and-economic-development-through-better-logistics>.

12. UNCTAD. (2023). Savdo jarayonlarini raqamlashtirishning global ko'rinishlari: raqamli transformatsiyani rivojlantirish. Manba: <https://unctad.org/news/advancing-digital-transformation-global-insights-digitalization-trade-procedures>

13. GlobalCIO. (2023). Digital Transformation of Uzbekistan.
Manba: <https://globalcio.com/articles/main/digital-transformation-of-uzbekistan/>

14. Rodrigue, J-P. (2020). Transport va Iqtisodiy Rivojlanish. Transport tizimlari geografiyasi.
Manba: <https://transportgeography.org/contents/chapter3/tranportation-and-economic-development/>.

15. Trade.gov. (2023). Uzbekistan Market Overview. Manba: <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/uzbekistan-market-overview>



ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ МЕТОДОВ ДЛЯ РАЗРАБОТКИ МАТЕМАТИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВЫХ АЛГОРИТМОВ УПРАВЛЕНИЯ НЕСТАЦИОНАРНЫМИ ОБЪЕКТАМИ

Сотволдиев Хуснидин Ибрагимович,
Ферганский филиал ТУИТ имени Мухаммада
Аль-Хорезми, PhD

Аннотация: В статье рассматривается применение игровых методов для разработки математического обеспечения устойчивых алгоритмов управления нестационарными объектами, которые характеризуются изменяющимися во времени параметрами и подвержены влиянию возмущений и ошибок измерения, что создает дополнительные сложности в управлении. Игровые методы рассматриваются как эффективный инструмент для построения стратегий управления, позволяющий учитывать динамику изменений внешней среды и внутренние процессы системы. Подчеркнута значимость использования методов регуляризации для повышения устойчивости решений. Предложенный метод можно использовать для создания более надежных и адаптивных алгоритмов управления, способствующих повышению эффективности управления в условиях изменчивости и неопределенности.

Ключевые слова: игровые методы, алгоритмы управления, нестационарные объекты, условия неопределенности, методы регуляризации

Введение

В современных условиях стремительного развития технологий и повышенной сложности управляемых систем, все более актуальной становится задача разработки устойчивых алгоритмов управления нестационарными объектами. Такие объекты характеризуются изменяющимися во времени параметрами. Это усложняет прогнозирование их поведения и разработку эффективных методов управления. Применение традиционных методов часто не дает должной точности и устойчивости в условиях изменчивости внешних факторов и неопределенности.

Одним из перспективных направлений решения данной проблемы является использование игровых методов, которые предоставляют эффективные механизмы для разработки адаптивных и устойчивых алгоритмов управления [8]. Игровые методы позволяют учитывать не только текущие состояния системы, но и поведения различных воздействий. Это дает возможность для построения гибких и надежных алгоритмов, способных эффективно справляться с неопределенностью.

Данная работа посвящена исследованию применения игровых методов в разработке математического обеспечения устойчивых алгоритмов управления нестационарными объектами. Рассмотрены вопросы адаптивности и устойчивости алгоритмов, что позволяет обеспечивать надежное функционирование систем в условиях изменения параметров объекта и окружающей среды.

Математическое обеспечение, разработанное с использованием игровых методов, направлено на повышение эффективности процессов и уменьшение ошибок в управлении сложными нестационарными системами.

Литературный обзор

С учетом возможности формализации задач управления в условиях неопределенности, естественным выглядит интерес к использованию математического аппарата теории игр в исследовании проблем теории управления [1-5]. В работах М.В. Жирова, В.В. Макарова и В.В. Солдатова рассматриваются вопросы идентификации и адаптивного управления технологическими процессами с нестационарными



параметрами. Авторы фокусируются на разработке подходов, позволяющих эффективно управлять сложными технологическими объектами, параметры которых изменяются во времени [1]. В работе В.Д. Юркевича. «Синтез нелинейных нестационарных систем управления с разнотемповыми процессами» исследуются методы синтеза систем управления, в которых одновременно протекают процессы с разными временными характеристиками [3]. Рассматриваются различные подходы к синтезу управляющих законов, включая адаптивные и робастные методы, игровые методы, обеспечивающие устойчивость и высокую эффективность управления в условиях нелинейности и нестационарности. А.А. Бобцов, А.В. Лямин и К.А. Сергеев в работе «Синтез закона адаптивного управления для стабилизации неточно заданных нестационарных объектов» рассматривают задачу разработки адаптивного закона управления для стабилизации объектов, параметры которых либо неизвестны, либо изменяются во времени [5]. Применение игровых методов в рамках данной задачи могло бы значительно повысить эффективность разработанных алгоритмов, особенно в условиях неопределенности.

Методы

При выборе решения в условиях неопределенности неизбежен элемент риска, который тем выше, чем больше недостаток информации при принятии решения. Поэтому одним из основных критериев оценки оптимальности решения является минимизация риска при его принятии. Процедура принятия управленческого решения имеет ярко выраженный многоступенчатый характер [5, 6]. Выбор оптимального решения в условиях неопределенности делается исходя из анализа нескольких вариантов с точки зрения нескольких критериев, согласно которых определяется его оптимальность в сложившейся комбинации внешних и/или внутренних факторов [2]. Очевидно, что изменение факторов, повлиявших на выбранное решение приводит к изменению оптимального решения.

В последнее время игровые задачи управления динамическими системами, а также наблюдения и поиска получили значительное распространение [2, 3]. Оптимальное управление рассматривается в смысле мини-максимума, т.е. возможность получения со стороны управления наилучшего гарантированного результата, тогда как другая сторона использует произвольно допустимые воздействия.

Рассмотрим нестационарный объект управления, описываемый уравнением:

$$x_{i+1} = A_i v + B_i \bar{u}_i, \quad i = 1, 0, \dots, I, \quad (1)$$

где $A_i = \|a_{in}\|$ – матрица-строка коэффициентов $a_{in}, n = 1, 2, \dots, N$;
 $v = (v_1, v_2, \dots, v_N)^T$ – является вектором возмущений, который действует на объект; $B_i = \|b_{ir}\|$ – является матрицей-строкой коэффициентов $b_{ir}, r = 1, 2, \dots, i$; \bar{u}_i – является

временной последовательностью управлений u_1, u_2, \dots, u_i . При этом в (1) нет начального управления u_0 , обоснованно выбрать которое в условиях поставленной задачи невозможно.

Сумма величины x_i и аддитивной случайной ошибки $h_i (y_i = x_i + h_i, i = 1, 2, \dots, I)$ измеряется и поступает на вход управляющего устройства. При управлении должно выполняться неравенство [5, 7]:

$$|u_i| \leq U_i, \quad i = 1, 2, \dots, I, \quad (2)$$

здесь U_i – является максимально допустимым значением абсолютной величины u_i . Считается, что возмущения и ошибки измерения по абсолютной величине не больше величин $V_n, n = 1, 2, \dots, N$ и $H_i, i = 1, 2, \dots, I$:

$$|v_n| \leq V_n, \quad |h_i| \leq H_i. \quad (3)$$

Таким образом, ставится игровая задача определения функции $u_i = u_i(\bar{y}_i, \bar{u}_{i-1}), i = 1, 2, \dots, I$:



$$\inf_{u_i \in \omega_k} \sup_{v, \bar{h}_l \in \omega_n} |x_{l+1}(u_l, v, \bar{h}_l)|, \quad (4)$$

где допустимые области ω_k и ω_n определяются соответственно выражениями (2) и (3) [8]. Вводя вектор $\bar{x}_i^* = (x_1^*, x_2^*, \dots, x_i^*)$, координаты которого определяются соотношением

$$x_i^* = x_i - B_{i-1} \bar{u}_{1(i-1)},$$

используем для записи уравнения объекта:

$$\bar{x}_{i+1}^* = A_i v, \quad i = 0, 1, \dots, I, \quad (5)$$

здесь A_i — является матрицей, которая составлена из строк A_r , $r = 0, 1, \dots, i$.

Используя принцип динамического программирования сначала определим управление u_i^* для дискретного момента I . Определим критерий (4) в виде

$$\inf_{u_i \in \omega_k} \sup_{v, \bar{h}_l \in \omega_n} \left| A_i v + \sum_{r=1}^{I-1} b_{lr} u_r + b_{II} u_i \right|. \quad (6)$$

Тогда величина u_i при отсутствии ограничения (2) с учетом критерия (6) и выражения (5) можно представить в виде:

$$u_i^* = -\frac{1}{b_{II}} \left(G_I \bar{y}_i^* + \sum_{r=1}^{I-1} b_{lr} u_r \right), \quad (7)$$

здесь $G_I = \|g_{II}\|$ — является матрицей-строкой искомым коэффициентов оптимального управления u_i^* ; \bar{y}_i^* является вектором, который составлен из измеренных значений величин x_i^* , $i = 1, 2, \dots, I$.

Учитывая (7) критерий (6) можно записать следующим образом:

$$\inf_{G_I} \sup_{v, \bar{h}_l \in \omega_n} |A_i v + G_I \bar{y}_i^*|, \quad (8)$$

тогда:

$$\Gamma v = z, \quad (9)$$

где $\Gamma = \theta^{(l)} A_{l-1}$, $z = \theta^{(l)} \bar{x}_l^*$, $\theta^{(l)} = \|g_{nl}^{(l)}\|$ — матрица произвольных коэффициентов $g_{nl}^{(l)}$, $n = 1, 2, \dots, N$; $l = 1, 2, \dots, I$.

Условия аппроксимация уравнения (9) примем в виде:

$$\|\tilde{\Gamma} - \Gamma\| \leq h, \quad \|\tilde{z} - z\| \leq \delta.$$

В условиях приближенного задания исходных данных уравнение (9) может быть плохо обусловленным, что предопределяет необходимость использования методов регуляризации.

Результаты и обсуждения

Учитывая все вышеизложенное, сделаем следующие заключения: Нестационарный объект управляется уравнением, которое учитывает воздействие векторов возмущений и временной последовательности управлений [1]. Это указывает на необходимость адаптивного подхода к управлению, где система должна реагировать на изменения во времени. В условиях задачи отсутствует начальное управление u_0 , что может затруднить настройку системы. Это подчеркивает сложность управления в реальных условиях, где часто невозможно заранее определить начальные параметры. При этом условия (2) и (3) вводят ограничения на значения возмущений и ошибок измерения. Эти ограничения необходимы для обеспечения устойчивости и надежности управления, и позволяют избежать чрезмерных колебаний в системе, которые могут привести к неустойчивости.

Формулировка игровой задачи для определения функции управления подчеркивает необходимость подхода, учитывающего влияние внешних факторов и возможные ошибки. Это может помочь в разработке более эффективных стратегий управления, учитывающих



неопределенности [9]. Использование вектора z для записи уравнения объекта в (5) способствует более компактному и удобному математическому описанию системы, что упрощает дальнейший анализ и применение методов оптимизации.

Применение динамического программирования для определения управления на дискретном моменте I влечет за собой возможность оптимизации решений поэтапно, что позволяет учитывать предыдущие состояния и улучшать текущее управление.

Определение критерия (6) позволяет формализовать задачу управления и установить количественную меру для оценки различных стратегий. Это создает основу для анализа и сравнения различных подходов к управлению в условиях неопределенности.

Критерий (6) переработан в (8), что позволяет более явно представить зависимости в задаче. Дальнейшее преобразование (9) вводит матрицы произвольных коэффициентов, что добавляет гибкости в формулировку задачи.

Однако, в условиях приближенного задания исходных данных, уравнение (9) может оказаться плохо обусловленным, что вызывает необходимость применения методов регуляризации.

Заключение

Нестационарные объекты управления характеризуются изменяющимися во времени параметрами и подвержены различным возмущениям и ошибкам измерения, что делает задачу управления особенно сложной.

Применение игровых методов становится особенно актуальным, потому что игровые подходы могут помочь в формулировке управления как стратегии противостояния неопределенности, рассматривая различные возмущения и ошибки. Это позволяет адаптировать алгоритмы управления, принимая во внимание потенциальные реакции системы на различные внешние воздействия.

Использование игровых методов позволяет строить более надежные стратегии управления, учитывающие динамику изменений и неопределенности. Они обеспечивают

возможность оценки различных сценариев и выбора оптимального решения. Таким образом, игровые методы не только повышают устойчивость и адаптивность систем управления, но и способствуют более глубокой проработке сложных задач в условиях неопределенности.

Игровые методы рассматриваются как эффективный инструмент для построения стратегий управления, которые позволяют учитывать возможные изменения внешней среды и динамику внутренних процессов. Эти методы помогают формализовать управление как сложную многоступенчатую задачу, где каждое решение требует анализа предыдущих действий и прогнозирования реакции системы.

Применение игровых методов в разработке математического обеспечения устойчивых алгоритмов для управления нестационарными объектами представляет собой перспективное направление, способствующее улучшению устойчивости и эффективности систем управления в условиях неопределенности.

Литература

1. Жиров, М.В., Макаров, В.В., Солдатов, В.В.(2011). Идентификация и адаптивное управление технологическими процессами с нестационарными параметрами. -М.: МГТУ им. Н.Э. Баумана. -208 с.
2. Галяев, Е.Р. (2011). Робастное субоптимальное управление линейными нестационарными объектами по выходу ISSN 2072-9502 Управление, вычислительная техника и информатика. № 1. 31-36.
3. Юркевич, В.Д. (2000). Синтез нелинейных нестационарных систем управления с разнотемповыми процессами. СПб.: Наука.
4. Кривулин, Н.П. (2018). Восстановления входных сигналов нестационарных динамических систем // Известия высших учебных заведений. Физ. мат. науки №3(47). 64-78.
5. Бобцов, А.А., Лямин, А.В., Сергеев, К.А. (2001). Синтез закона адаптивного управления для стабилизации неточно



заданных нестационарных объектов // Изв.
вузов. Приборостроение. № 3. 3-7.

6. Yusupbekov, N.R., Igamberdiev, H.Z., Mamirov, U.F. (2020). Adaptive Control System with a Multilayer Neural Network under Parametric Uncertainty Condition. In: Russian Advances in Fuzzy Systems and Soft Computing: selected contributions to the 8-th International Conference on Fuzzy Systems, Soft Computing and Intelligent Technologies (FSSCIT-2020), Vol. 2782, 228-234.
7. Карабутов, Н.Н. (2016). Адаптивная идентификация систем: Информационный синтез. Изд. стереотип. 384 с.
8. Андриенко, А. Я., Тропова, Е. И., Чадаев, А. И. (2011). Игровые принципы терминального управления нестационарным объектом / Управление большими системами. Выпуск 35. М.: ИПУ РАН. 59-67.
9. Сотволдиев, Х.И. (2023). Устойчивые алгоритмы идентификации характеристик состояния нестационарной динамической системы по данным наблюдений // FarPI, Ilmiy – texnika jurnali, 27 tom, №1.120-125.



INTELLEKTUAL SUV TOMCHISI ALGORITMINING TIBBIY TASHXIS QO'YISH MASALALARIGA QO'LLANILISHI

Muhammediyeva Dildora Kabilovna,
texnika fanlari doktori,
TATU, Axborot texnologiyalari va
dasturiy ta'minot kafedrası professori
E-mail: matematichka@inbox.ru

Eshboyev Erkin Abdirashidovich,
Qarshi davlat universiteti
Amaliy matematika kafedrası dotsenti
E-mail: erkineshboyev@gmail.com

Klicheva Firuza Gulmurotovna,
Qarshi davlat universiteti
Amaliy matematika kafedrası o'qituvchisi
E-mail: vip.qilicheva@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola tibbiy tashxis qo'yish masalasini hal qilish uchun intellektual suv tomchilari algoritmini (IWD) qo'llashni taklif etadi. Maqoladan maqsad IWD ning tibbiy tashxislash masalalariga qo'llanilishini sinab ko'rish va boshqa umumiy optimallashtirish algoritmlari bilan taqqoslaganda uning samaradorligini baholashdir. Shu maqsadda maqolada IWD algoritmidan foydalanib, yurak qon-tomir kasalliklari bilan og'rigan bemorlarga tashxis qo'yish jarayonini intellektual tarzda amalga oshirishni bajaruvchi standart obrazlarni anglash masalasi qaralgan. Qo'yilgan masalani yechish maqsadida haqiqiy tibbiy ma'lumotlarga asoslanib, IWD algoritmi asosida ishlovchi dasturdan natijalar olingan.

Shuningdek ushbu algoritm yordamida olingan natijalar boshqa umumiy optimallashtirish algoritmlari (Ant) yordamida olingan natijalar bilan taqqoslangan va natijalar jadval ko'rinishida keltirilgan.

Kalit so'zlar: Intellectual Water Drops, tashxislash, informativ alomat, optimallashtirish, model, metaevristik algoritm, populyatsiya, agent, tuproq, tezlik.

Kirish. Tibbiy tashxis qo'yish muhim o'rin tutadigan zamonaviy dunyoda kasalliklarni aniqlash va samarali davolash usullarini ishlab chiqish, tashxisning aniqligini oshirishning mukammal usul va vositalarini izlash eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu sohadagi innovatsion yondashuvlardan biri tibbiy tashxis qo'yish masalalarini hal qilish uchun intellektual algoritmlardan foydalanishdir [1-3].

Ushbu maqolada tibbiy tashxis qo'yish masalalarini hal qilish uchun intellektual suv tomchilari algoritmi (*Intellectual Water Drops*- IWD) ni qo'llashga e'tibor qaratamiz. IWD - bu murakkab optimallashtirish muammolarida optimal yechimlarni samarali topishga mo'ljallangan metaevristik

optimallashtirish algoritmi hisoblanadi. Ushbu ishdan maqsad IWD algoritmining tibbiy tashxis qo'yish masalalariga qo'llanilishini o'rganish va boshqa umumiy optimallashtirish algoritmlari bilan taqqoslaganda samaradorligini aniqlashdir. Maqolada quyidagi vazifalarga e'tibor qaratamiz:

- Optimal alomatlarini tanlash: Biz bemor alomatlarining katta to'plamidan informativ alomatlarini tanlash uchun IWD dan foydalanish imkoniyatini o'rganamiz. Bu tasniflash va bashorat qilish algoritmlarining aniqligi va samaradorligini oshiradi.
- Model parametrlarini optimallashtirish: Tibbiy tashxis qo'yishda ishlatiladigan



mashinali o'rganish modellarining parametrlarini optimallashtirish uchun IWD dan foydalanish imkoniyati o'rganiladi. Bu modellarni muayyan tashxislash vazifasining xususiyatlariga mos keladigan tarzda sozlash imkonini beradi.

- Bemorlarni tasniflash: Bemorlarni ularning alomatlariga qarab tasniflash uchun IWD dan foydalanish imkoniyati o'rganiladi. Bu o'xshash alomatlarga ega bo'lgan bemorlar guruhlarini aniqlashga, tashxis va qaror qabul qilish aniqligini oshirishga yordam beradi.

Ish davomida haqiqiy tibbiy ma'lumotlar bo'yicha tajribalar o'tkaziladi va IWD yordamida olingan natijalar boshqa umumiy optimallashtirish algoritmlari bilan taqqoslanadi.

Maqolada IWD algoritmidan foydalanib, yurak qon-tomir kasalliklari bilan og'rigan bemorlarga tashxis qo'yish jarayonini intellektual tarzda amalga oshirishni bajaruvchi standart obrazlarni anglash masalasi qaraladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Intellektual suv tomchilari algoritmi daryolarda sodir bo'ladigan ba'zi jarayonlarni modellashtirish va keyin ularni algoritm sifatida amalga oshirishga urinishdir.

IWD algoritmi yangi ishlab chiqilgan algoritmlardan biri bo'lib, bu algoritm daryo tizimlari dinamikasini simulyatsiya qiladi. IWD - populyatsiyaga asoslangan algoritm bo'lib, unda har bir tomchi yechimni ifodalaydi va yechimlarni qidiruv paytida tomchilarni almashtirish yanada yaxshi yechimlarni topish imkoniyatini beradi.

2007 yilda eronlik olim Hamed Shoh-Husayni intellektual tomchilarning xatti-harakatlari algoritmini ishlab chiqdi [4]. IWD algoritmidan bir nechta sun'iy suv tomchilari o'zaro ta'sir natijasida o'z muhitini eng kam qarshilik yo'li bo'ylab optimal yo'lni topadigan tarzda o'zgartirishga qodir. Bu algoritm populyatsiyaga yo'naltirilgan konstruktiv optimallashtirish algoritmi hisoblanadi [5-6].

IWD - bu suv tomchilari daryo oqimini o'zgartirish orqali o'z manziliga optimal yo'lni topadigan model. Unga uchta muhim parametr yordam beradi. Tomchilar o'z harakat tezligiga ko'ra daryoning tubidagi tuproqlarni tashish xususiyatiga ega.

Tomchining tezligi qanchalik yuqori bo'lsa, u tashiydigan tuproq miqdori shunchalik ko'p bo'ladi, bu esa o'z navbatida boshqa agentlarning erkin harakatini ta'minlaydi. Tuproq bo'lmagan joylarda oqim tezligi oshadi [7]. Optimal yo'lni eng kam miqdordagi tuproq bo'lgan va eng yuqori tezlikka erishish mumkin bo'lgan yo'l deb atash mumkin. IWD yordamida optimallashtirish strategiyasini amalga oshirish mumkin, bunda tasodifiy agentlar bir-biri bilan intellektual tarzda o'zaro ta'sirlashadi, shu yo'l bilan ular birgalikda daryo oqimi yo'nalishini o'zgartiradi va hech qanday tuproqqa duch kelmaydigan optimal yo'lni yaratadi. Bunda agentlarning oqim tezligi mumkin bo'lgan eng yuqori darajaga erishadi [8-9].

IWD algoritmining asosiy tamoyillari:

- Har bir suv tomchisi ko'p tuproqli yo'ldan ko'ra kam tuproqli yo'lni afzal ko'radi.
- Har bir suv tomchisi manbadan manzilgacha bo'lgan yo'lda bir nechta yo'nalishlardan birini tanlashga to'g'ri kelganda qisqaroq yo'lni tanlaydi.
- Yo'lning holati shu yo'ldagi tuproq miqdori bilan belgilanadi, tuproq darajasi ko'p bo'lgan yo'l optimal bo'lmagan yo'l, tuproq darajasi kam bo'lgan yo'l esa optimal yo'l hisoblanadi.

Daryoda oqayotgan har bir tomchi suvning xususiyatlaridan biri uning tezligi hisoblanadi. Yana bir xususiyati uning tuproq tashuvchanligidir. Shunday qilib, har bir tomchi suv ma'lum miqdordagi tuproqni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishga qodir. Bunda tuproq tez harakatlanuvchi qismdan sekin harakatlanuvchi qismga o'tadi. Ushbu harakat davrida uchta o'zgarish ro'y beradi:

- suv tomchisining tezligi oshadi;
- suv tomchisining tuproq bilan to'yinganligi ortadi;
- bu ikki nuqta orasida kanaldagi tuproq miqdori kamayadi (grafning ikki nuqtasi orasidagi vazn kamayadi).

Shunday qilib, IWD algoritmidan tomchilar ikkita asosiy xususiyatga ko'ra tavsiflanadi:

- tezlik,
- tuproq.

Bu xususiyatlarning ikkalasi ham algoritm ishlashi davomida o'zgarib turadi. IWDdagi tomchilar



manbadan manzilga o'tadi va o'z sayohatini boshlang'ich tezlik va tuproq miqdori bilan boshlaydi [10]. Harakat davomida tomchilar tuproq olib tashlanadigan va biroz tezlikka erisha oladigan muhitdan o'tadi. Bunda IWD iterativ tarzda amalga oshiriladi deb taxmin qilinadi. Joriy nuqtadan ikkinchisiga tomon suv tomchisining harakati davomida tomchi tezligi tuproq miqdoriga teskari proporsional bo'lib, ular nohiziqli munosabatda bo'ladi:

$$vel = vel(t - 1) + \frac{Av}{Bv + Cv * soil^2(i, j)} \quad (1)$$

Bu yerda Av , Bv , Cv tezlik koeffitsientlari (kirish parametrlari), $soil(i, j)$ esa graf tugunlari orasidagi tuproq miqdori. Bundan ko'rinadiki, kam tuproqli yo'l IWD tomchisining ko'p tuproqli yo'lga qaraganda tezroq harakatlanishiga imkon beradi.

IWD tomchisi atrof-muhit bo'ylab harakat qilganda tuproqni to'playdi. Bu tuproq ikki joyni bog'laydigan yo'ldan olinadi. IWD tomchisi olgan tuproq miqdori IWDni hozirgi joydan keyingi joyga ko'chirish uchun zarur bo'lgan vaqtga nohiziqli proporsionaldir. Bu vaqt oralig'i chiziqli harakat uchun oddiy fizika qonunlari yordamida hisoblanadi:

$$time(i, j, vel) = \frac{R}{vel} \quad (2)$$

Bu yerda R - ikki nuqta (tugun) orasidagi masofa. Tomchiga qo'shilgan tuproq miqdori:

$$dSoil(i, j) = \frac{As}{Bs + Cs * time(i, j, vel)} \quad (3)$$

Bu yerda As , Bs , Cs - tuproqning meliorativ holati koeffitsientlari. Nuqtalar orasidagi yo'lda yangi tuproq miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$soil(i + 1, j + 1) = Po * soil(i, j) + Pn * dSoil(i, j) \quad (4)$$

Bu yerda Po va Pn - tuproq miqdorining o'zgarish jarayonining koeffitsientlari.

Shunday qilib, harakatlanish uchun sarflangan vaqt harakat tezligiga teskari proporsional va ikki

nuqta orasidagi masofaga to'g'ri proporsional bo'ladi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu yerda tuproq atrof-muhit haqidagi ma'lumotlarning miqdoriy ko'rsatkichidir. Yuqorida keltirilgan formulalar tomchilarning tuproq darajasi yuqori bo'lgan yo'llarga nisbatan tuproq darajasi past bo'lgan yo'llarni tanlash afzalligini ko'rsatadi. Optimal yo'lni tanlash mavjud yo'llarga yagona tasodifiy taqsimotni qo'llash orqali amalga oshiriladi. Navbatdagi yo'lni tanlash ehtimoli mavjud yo'llarning tuproq darajasiga teskari proporsionaldir. Shuning uchun, tuproq darajasi past bo'lgan yo'llar IWD tomchilari tomonidan tanlanish ehtimoli yuqori [11-14].

Rayapudi [15] tomonidan olib borilgan tadqiqotda IWD algoritmi iqtisodiy yuklarni jo'natish muammolarini (ELDP) hal qilish uchun qo'llanilgan. Lenin va Kalavati [16] tadqiqotida IWD algoritmi aralash butun sonli chiziqli bo'ylmagan optimallashtirish masalasi sifatida tuzilgan optimal reaktiv quvvatni taqsimlash masalalarini hal qilish uchun taklif qilishgan.

D.J.Kalita va boshqalarning tadqiqotida ko'krak bezi saratonini erta bosqichda aniqlay oladigan samarali CAD (Computer -aided Diagnosis - Kompyuterli tashxis) tizimini loyihalashda alomatlarni tanlash uchun yangi ikki tomonlama chegaraga asoslangan aqlli suv tomchilari IWD algoritmi taklif qilingan [17].

IWD algoritmini tibbiy tashxis qo'yish masalalariga qo'llash maqsadida quyidagicha moslashtirishni amalga oshiramiz. Ushbu algoritmi tibbiy tashxislashda kasalliklar bilan bog'liq optimal parametrlarni yoki alomatlarni aniqlash uchun ham qo'llaniladi. Tibbiy tashxis qo'yish masalasi uchun IWD algoritmi modeli quyidagicha ko'rinishda bo'lishi mumkin:

1. Masala qo'yilishini shakllantirish: Bu bosqichda hal qilinishi kerak bo'lgan tibbiy tashxislash masalasi aniqlanadi. Masalan, bu bemorning alomatlariga ko'ra kasalliklarni tasniflash masalasi bo'lishi mumkin.
2. Grafni qurish: Alomatlar yoki parametrlarning barcha mumkin bo'lgan kombinatsiyalarini ifodalovchi graf



yaratiladi. Grafning har bir tuguni bitta kombinatsiyaga mos keladi.

3. Optimal yo'ni tanlash ehtimolligini hisoblash: Alomatlar yoki parametrlarning har bir kombinatsiyasini tanlash ehtimolligini hisoblaydigan evristik funktsiya aniqlanadi. Ushbu ehtimollik tanlangan kombinatsiyalarning ko'rinishiga qarab yangilanadigan tuproq miqdoriga asoslanadi.
4. Tomchilarni ishga tushirish: Grafidagi tasodifiy tugunda suv tomchilari ishga tushiriladi va ulardaga tuproq miqdorini yangilanib, har bir kombinatsiyaning sifati baholanadi hamda tomchilarning graf bo'ylab harakatlanishiga ruxsat beriladi.
5. Tomchilar harakati: Tomchilar harakatlanishni davom ettirish maqsadida tuproq miqdori va evristik funktsiyaga bog'liq ravishda, tanlash ehtimoli asosida keyingi tugunlardan birini tanlaydi. Binda joriy tugunga yaqin tugunning tanlanish ehtimoli yuqori bo'ladi.
6. Tuproq miqdorining yangilanishi: Har bir iteratsiyadan so'ng, tanlangan kombinatsiyalar ko'rinishiga qarab, graf qirrasidagi vazn (tuproq miqdori) yangilanadi.
7. Optimal kombinatsiyani tanlash va ishni yakunlash: Tuproq miqdorining yangilanishi va ko'chirilishi to'xtash shartiga erishilgunga qadar bir necha marta takrorlanadi. So'ngra tuproq miqdori va evristik funktsiyaga asoslangan alomatlar yoki parametrlarning optimal kombinatsiyasi tanlanadi.

Natijalar. IWD algoritmi asosida ishlaydigan dasturdan natijalar olish uchun ushbu <https://www.kaggle.com/code/thakursankalp/detecting-cardiac-ailments-ml-w-ecg-data> saytidan olingan tanlanma faylidan foydalanamiz. Berilganlar to'plami yurak qon-tomir kasalliklari (YuQTK) tashxisi qo'yilgan bemorlarning 1160 ta yozuvlaridan iborat bo'lib, yozuvlar bemorlarga qo'yilgan tashxislarga ko'ra 4 ta guruhga ajratilgan, ya'ni ARR-aritmiya (1-290), AFF-atrial fibrilatsiya (291-580), CHF - konjestif

yurak etishmovchiligi (581-870) va NSR - Oddiy sinus ritmi (871-1160). Ma'lumotlar MIT-BIH fiziologik tarmoq ma'lumotlar bazasiga asoslangan. Shunday qilib, faylda 1160 x 36 o'lchamdagi yozuvlar mavjud. 1-ustunda yozuvlarning tartib nomeri, 36-ustunda esa kasallik turi aks etgan. Qolgan ustunlar alomatlar bo'lib, ular turli tekshiruv natijalari hisoblanadi [18].

IWD algoritmi asosida tuzilgan dasturiy vositadan foydalanib bemor haqidagi ma'lumotlarga ko'ra uning tashxisi qaysi kasallik turiga yaqin ekanligini aniqlash mumkin bo'ladi. Buning uchun yuqorida keltirilgan berilganlar bazasini kompyuterga trening qilish kerak bo'ladi. Misol tariqasida yuqorida tavsifi keltirilgan tanlanma faylini kompyuterga o'rgatish hamda yangi bemor haqidagi ma'lumotni shu tanlanma fayli asosida qaysi kasallikka yaqin ekanligini aniqlashni ko'rib chiqamiz. Yuqoridagi tavsifga ega tanlanma fayli ma'lumotlari dasturga uzatilganda va tomchilar soni 100 ga, iteratsiyalar soni 150 ga teng bo'lgan hol uchun quyidagi natijalar olindi:

Tanlangan obyekt	Obyektning tegishlilik diapazoni	Shifokorlar tomonidan qo'yilgan tashxis	Dastur tomonidan aniqlangan obyektlar
11	1-290	Aritmiya	9, 14, 56, 23, 7, 89
299	291-580	Atrial fibrilatsiya	322, 456, 296, 432, 561, 301
721	581-870	Konjestif yurak yetishmovchiligi	602, 656, 860, 722, 782, 598
987	870-1160	Oddiy sinus ritmi	988, 896, 1006, 1143, 1098, 907

1-jadval. IWD algoritmi natijalari

1-jadvalda tanlanmadan olingan, har bir guruhida 290 tadan obyekt mavjud bo'lgan 4 xil turdagi yurak qon tomir kasalliklari aniqlangan bemorlarning tartib raqami, ularning kasalliklarga guruhiga tegishlilik diapazoni, tanlangan bemorga shifokorlar tomonidan qo'yilgan tashxislar va IWD algoritmi asosida ishlovchi dasturdan foydalanib bemorlar holati bo'yicha to'plangan ma'lumotlarga ko'ra olingan natijalar aks ettirilgan. Masalan, 11-obyekt uchun shifokorlar tomonidan Aritmiya tashxisi qo'yilgan, uning tanlanmadagi aritmiya tashxisi qo'yilgan guruhga tegishlilik dastur tomonidan aniqlanishi kerak bo'lsin. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, IWD algoritmi asosida ishlovchi dastur tanlangan obyektning haqiqatdan ham shu guruhga tegishlilikini ko'rsatadi. Jadvalning qolgan satrlaridagi ma'lumotlar



uchun ham xuddi yuqoridagi kabi fikrlarni aytish mumkin.

№	Algoritm	Tanlangan obyekt	Sarflangan vaqt (sekund)	Masofa	Tanlangan obyektga yaqin obyektlar
1	Ant	11	150	133887.01	110, 231, 98, 7, 89, 124
2	IWD	11	90	120478,23	9, 14, 56, 23, 7, 56

2-jadval. Algoritmning ishlashini taqqoslash natijalari

Yuqorida keltirilgan 2-jadvaldan ko'rinadiki, IWD algoritmi Ant algoritmiga nisbatan 60 sekund kam vaqt sarflagan, shu bilan birga u Ant algoritmiga nisbatan qisqaroq masofani topa olgan.

Xulosa. IWD algoritmi asosida olingan natijalar YuQTK ga tashxis qo'yish aniqligini oshirishi va tibbiy amaliyotda ko'proq asosli qarorlar qabul qilishga yordam berishi kutiladi. Shuningdek IWD algoritmining tashxislash tizimlarida qo'llanilishi yurak-qon tomir kasalliklarini davolash va rivojlanishining erta oldini olish uchun o'z vaqtida choralar ko'rish imkonini beradi. IWD algoritmidan foydalanib, nafaqat tashxislarni aniqlashtirish, balki tavsiya etiladigan dori darmonlar tarkibini va muolaja turlarini ham shakllantirish imkoniyati mavjud. Tibbiyot sohasida bu kabi imkoniyatlar yaxshi natijalar berishini ko'rsatadi.

Olingan natijalar IWD ning tibbiy tashxis qo'yish masalalariga samarali qo'llash mumkin ekanligini ko'rsatadi. Algoritm optimal alomatlarni tanlash, model parametrlarini optimallashtirish va bemorlarni tasniflash uchun muvaffaqiyatli qo'llanildi. Chumoli algoritmi bilan bajarilgan qiyosiy tahlil shuni ko'rsatdiki, IWD boshqa optimallashtirish algoritmlariga nisbatan yuqori samaradorlik va aniqlikka ega.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot natijalari tibbiy tashxislashda intellektual suv tomchilari algoritmini qo'llashni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu ish kasalliklarni erta aniqlashning yanada aniq va samarali usullarini taqdim etish va optimal davolash yechimlarini ishlab chiqish orqali tibbiy tashxislash sohasini rivojlantirishga yordam beradi.

Adabiyotlar

1. Клычева, Ф. (2024). Применение интеллектуальных технологий в диагностике сердечно-сосудистых заболеваний. *Scientific Collection «InterConf»*, (187), 356–359.
2. Клычева, Ф., Мухаммедиева, Д., & Эшбоев, Э. (2024). Применение искусственных иммунных систем в задачах медицинской диагностики. *Научный сборник «ИнтерКонф»*, (196), 380-384.
3. Klicheva F.G., Eshboyev E.A. (2023) CREATION OF AN INTELLIGENT SYSTEM TO SUPPORT MEDICAL DIAGNOSIS. *Innovative technologica -methodical research journal*. Volume 4, Issue 5 May 2023, 82-87.
4. Shah-Hosseini, H. (2007) 'Problem solving by intelligent water drops', *Proc. IEEE Congress on Evolutionary Computation*, Swisotel The Stamford, Singapore, September, pp.3226–3231.
5. Shah-Hosseini, H. (2008) 'Intelligent water drops algorithm: a new optimization method for solving the multiple knapsack problem', *Int. Journal of Intelligent Computing and Cybernetics*, Vol. 1, No. 2, pp.193–212.
6. Shah-Hosseini, H. (2009). The intelligent water drops algorithm: a nature-inspired swarm-based optimization algorithm. *Int. J. Bio Inspired Comput.*, 1, 71-79.
7. Kalita, Dhruva & Singh, Vibhav & Kumar, Vinay. (2022). Two-way threshold-based intelligent water drops feature selection algorithm for accurate detection of breast cancer. *Soft Computing*. 26. 10.1007/s00500-021-06498-3.
8. Lenin, K. and Kalavathi, M. S. 2012. 2012, "An Intelligent Water Drop Algorithm for Solving Optimal Reactive Power Dispatch Problem". *International Journal on Elect. Engineering and Inform.* 4, 450-463.
9. Msallam, M. M. and Hamdan, M. 2011, Improved intelligent water drops algorithm using adaptive schema. *International Journal of Bio-Inspired Computation*, 3(2), 103-111.
10. Rayapudi, S. R. 2011, "An intelligent water drop algorithm for solving economic load dispatch problem". *International Journal of Electrical and Electron Eng.* 5, 43-49.



11. Эшбоев, Э. А., & Клычева, Ф. Г. (2018). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ОБЪЕКТНО-ОРИЕНТИРОВАННЫХ ЗНАЧЕНИЙ ПРИ ПОСТРОЕНИИ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ ЗДОРОВЬЯ НАСЕЛЕНИЯ. In *Перспективные информационные технологии (ПИТ 2018)* (pp. 759-762).
12. Eshboeyev E., Klicheva F. (2022) Yuqori qon bosimiga ega bo‘lgan shaxslarning intellektual tahlilini amalga oshirish. " //FAN VA JAMIYAT" jurnali. Ajiniyoz nomidagi NDPI. – 2022. – №. 3. – С. 122-123.
13. Клычева, Ф. Г., Эшбоев, Э. А., & Равшанов, Д. Г. (2022). РЕАЛИЗАЦИЯ ПРОГНОЗИРОВАНИЯ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ПРИЗНАКОВ И ЛИНЕЙНОЙ РЕГРЕССИИ. *Universum: технические науки*, (8-1 (101)), 14-17.
14. M. Dorigo, *Optimization, Learning and Natural Algorithms*, PhD thesis, Politecnico di Milano, Italie, 1992.
15. Rayapudi, S. R. 2011, “An intelligent water drop algorithm for solving economic load dispatch problem”. *International Journal of Electrical and Electron Eng.* **5**, 43-49.
16. Lenin, K. and Kalavathi, M. S. 2012. 2012, “An Intelligent Water Drop Algorithm for Solving Optimal Reactive Power Dispatch Problem”. *International Journal on Elect. Engineering and Inform.* **4**, 450-463.
17. Kalita, Dhruva & Singh, Vibhav & Kumar, Vinay. (2022). Two-way threshold-based intelligent water drops feature selection algorithm for accurate detection of breast cancer. *Soft Computing*. 26. 10.1007/s00500-021-06498-3 p. 18-23.
18. Klicheva F. 2023. CHUMOLI ALGORITMINI YURAK-QON TOMIR KASALLIKLARIGA TASHHIS QO‘YISHGA TATBIQ ETISH. *DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE*. 1, 4 (Dec. 2023), 156–159 b.



Mashinaviy o'qitish asosida yo'llardagi avtomobil tirbandlik holatlarini aniqlash uchun dastlabki ma'lumotlarni tayyorlash usullari

Axatov Akmal Rustamovich
texnika fanlari doktori, professor,
Samarqand davlat universiteti prorektori
akmalar74@gmail.com

Eshtemirov Bunyod Sherali o'g'li
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
eshtemirov23@gmail.com

Annotatsiya. Yo'llardagi tirbandlik holatlarini bashorat qilish, zamonaviy shaharlarda transport tizimlarini samarali boshqarish va harakatlanish qulayligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda intellektual algoritmlar va sun'iy intellekt texnologiyalari keng qo'llanilmoqda. Bu texnologiyalar yo'l-transport hodisalarini oldindan aniqlash va oldini olish, shuningdek, transport oqimini optimal boshqarish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot ishida ham yo'llardagi transport vositalari harakati haqidagi ma'lumotlar yig'ildi. Yig'ilgan ma'lumotlar tozalandi va tayyorlandi. Xususiyatlarni tanlash va muhimligini aniqlash uchun har bir ko'rsatkichning tirbandlik holatiga ta'siri tahlil qilindi. Shundan so'ng mashinaviy o'qitish algoritmlari, masalan, XGBoost, Random Forest Classifier, LGBMClassifier, Logistic Regression va chuqur o'qitish modellari yaratildi. Ushbu modellar yig'ilgan ma'lumotlar asosida o'qitildi. Modelni tekshirish va baholash uchun yaratilgan modelning aniqligi va samaradorligi test ma'lumotlar to'plami yordamida tekshirildi. Modelning bashorat qilish qobiliyati turli metrikalar yordamida baholandi, masalan, Accuracy, Recall, Precision va F1 Score. O'rganilgan model yordamida yo'llardagi tirbandlik holatlarini bashorat qilish amalga oshirildi. Bu bashoratlar transport tizimini boshqarish uchun sinovdan o'tkazildi.

Kalit so'zlar: intellektual algoritmlar, ma'lumotlar yig'ish usullari, modelning bashorat qilish qobiliyatini baholash, parametrlar orasidagi bog'liqliklarni o'rganish.

I. Kirish

Zamonaviy shaharlarda yo'l harakati boshqaruvi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Har kuni millionlab avtomobillar va transport vositalari yo'llarda harakatlanadi, bu esa ko'pincha tirbandliklarga olib keladi [1]. Tirbandliklar nafaqat haydovchilar va yo'lovchilar uchun noqulaylik tug'diradi, balki iqtisodiy zararlarga, ekologik muammolarga va yo'l-transport hodisalariga ham sabab bo'ladi. Shahar infratuzilmasini samarali boshqarish uchun yo'llardagi tirbandlik holatlarini oldindan bashorat qilish va tirbandliklarni boshqarish texnologiyalari muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonda intellektual algoritmlar va sun'iy intellekt texnologiyalari muhim rol o'ynaydi [2]. Yo'llardagi tirbandlik holatlarini bashorat qilishda intellektual algoritmlar va sun'iy intellekt texnologiyalari,

xususan, mashinaviy o'qitish va chuqur o'qitish usullaridan keng foydalaniladi. Bu usullar katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish, xususiyatlarini o'rganish va bashorat qilishda keng qo'llaniladi. Bunday algoritmlar yuqori aniqlik va samaradorlikka ega bo'lib, transport tizimlarini boshqarish va optimallashtirishda muhim vositadir. Yo'llardagi tirbandlik holatini bashorat qilish uchun avvalo kerakli ma'lumotlarni yig'ish zarur. Yig'ilgan ma'lumotlar avval tozalanib, so'ngra tayyorlanadi. Ma'lumotlar yig'ilgandan so'ng, har bir ko'rsatkichning tirbandlik holatiga ta'sirini tahlil qilish zarur. Bu bosqichda ma'lumotlar orasidagi bog'liqliklar aniqlanadi. Masalan, Pearson, Spearman, va Kendall Tau koeffitsiyentlari yordamida ko'rsatkichlar orasidagi bog'liqliklarni o'rganish mumkin [3]. Keyingi bosqichda mashinaviy o'qitish algoritmlari yordamida




model yaratish va o'qitish kerak bo'ladi. Bu algoritmlar orasida chiziqli regressiya, qaror daraxtlari, tasodifiy o'rmonlar, gradient boosting, XGBoost va chuqur o'rganish modellari mavjud. Yaratilgan modelning aniqligi va samaradorligi test ma'lumotlar to'plami yordamida tekshiriladi. Bu bosqichda modelning bashorat qilish qobiliyati turli aniqlikni baholovchi usullar yordamida baholanadi. Masalan, Accuracy, Recall, Precision va F1 Score kabi metrikalari modelning aniqligini o'lchashda qo'llaniladi. Ushbu metrikalar yordamida modelning yutuqlari va kamchiliklari aniqlanadi, hamda kerak bo'lsa, modelni yaxshilash choralari ko'riladi [4].

II. Video tasvirlar orqali yo'llarning holati haqida ma'lumotlar yig'ish

Yo'llarda joylashtirilgan kameralar yo'l harakatini doimiy ravishda kuzatib boorish va yo'l haqida ma'lumotlar yig'ish imkonini beradi. Ushbu kameralar yuqori aniqlikdagi video tasvirlarni yozib oladi va real vaqt rejimida markaziy tizimlarga uzatadi. Bu ma'lumotlarni video tasvirli ma'lumotlardan olishda kompyuterli ko'rish texnologiyalari qo'llaniladi [5]. Ulardan bir qancha ko'p foydalaniladigan usullar quyidagilar:

- Faster R-CNN;
- SSD (Single Shot MultiBox Detector);
- YOLO (You Only Look Once).

Faster R-CNN. Faster R-CNN (Region-based Convolutional Neural Network) obyektlarni aniqlashda eng samarali va keng qo'llaniladigan algoritmlardan biridir [6]. Bu model R-CNN va Fast R-CNN modellari asosida rivojlangan va ancha tezroq ishlashni ta'minlaydi.



1-rasm. Faster R-CNN obyektlarni tanib olish modelining ishlash prinsipi.

Faster R-CNN modeli uch bosqichda ishlaydi:


Region Proposal Network (RPN): Bu bosqichda model tasvir ichidagi obyektlarni aniqlash

mumkin bo'lgan hududlarga ajratadi. RPN konvolyutsion neyron tarmoq (CNN) ustida joylashgan bo'lib, u olingan xarita ustida harakatlanadi va har bir pozitsiyada anchor deb nomlangan qutilarni joylashtiradi. RPN har bir anchor uchun ehtimoliy obyekt yoki fon ekanligini aniqlash va chegaralash qutisini (bounding box) tuzatish koeffitsiyentlarini hisoblash uchun ishlatiladi [7].

Region of Interest (RoI) Pooling: Ajratib olingan hududlar (RoI) RPNdan olingan xaritada aniqlanadi va RoI pooling orqali aniqlashtiriladi. Bu bosqichda har bir RoIni teng o'lchamdagi xaritaga o'lchash orqali har xil o'lchamdagi RoI larni yagona o'lchamdagi xaritaga aylantiradi.

Classifier and Bounding Box Regressor: RoI poolingdan so'ng olingan xaritalar neyron tarmoq orqali o'tkaziladi. Bu bosqichda har bir RoI uchun aniqlangan obyektning klassifikatsiyasi (obyektning turi) va uning aniqlash bounding box (chegaralash qutisi) tuzatishlari aniqlanadi [8].

SSD (Single Shot MultiBox Detector). SSD (Single Shot MultiBox Detector) obyektlarni aniqlashda samaradorlik va aniqlikni oshirish maqsadida ishlab chiqilgan yondashuvlardan biridir. Bu model real vaqt rejimida obyektlarni aniqlash imkonini beradi va Faster R-CNN kabi boshqa ilg'or usullarga nisbatan tezroq ishlaydi. SSD modeli tasvirlarni bir marta (single shot) ishlash orqali obyektlarni aniqlash imkonini beradi [9]. Bu model konvolyutsion neyron tarmoqlari (CNN) asosida ishlaydi va butun tasvirni bir marta ishlash orqali bir nechta chegaralovchi qutilarni aniqlaydi.



2-rasm. SSD obyektlarni tanib olish modelining arxitekturasi.

Feature Extraction (Xususiyatlarni ajratish): Asosiy konvolyutsion tarmoq (masalan, VGG16 yoki ResNet) tasvirdagi xususiyatlarni ajratadi. Bu tarmoq




tasvirni bir necha qatlamlar orqali o'tkazib, har bir qatlamda xususiyat xaritalarini hosil qiladi.

Multi-scale Feature Maps (Ko'p o'lchovli xususiyat xaritalari): SSD modeli bir nechta konvolyutsion qatlamlardan xususiyat xaritalarini oladi. Har bir qatlam turli o'lchovlarda xususiyatlarni ajratadi, bu esa turli o'lchamdagi obyektlarni aniqlash imkonini beradi [10].

Default Boxes (Standart qutilar): Har bir xususiyat xaritasidagi pozitsiya uchun bir nechta standart qutilar (default boxes) aniqlanadi. Ushbu qutilar turli o'lchamlar va aspekt nisbati bilan aniqlanadi, bu esa modelga turli xil obyektlarni aniqlash imkonini beradi.

Bounding Box Regression va Class Prediction: Har bir standart quti uchun SSD modelining konvolyutsion qatlamlari bounding box koordinatalarini (chegaralash qutisi koordinatalari) va obyekt sinfini (class prediction) aniqlaydi. Bu qutilar keyinchalik aniqlangan obyektlar bilan birga optimallashtiriladi.

YOLO (You Only Look Once). YOLO (You Only Look Once) obyektini aniqlash modeli, faqat bir marta qarash orqali obyektlarni aniqlashga imkon beruvchi tez va samarali algoritmdir. Ushbu yondashuv Joseph Redmon va boshqalar tomonidan 2016 yilda taqdim etilgan va real vaqt rejimida obyektlarni aniqlash imkonini beradi. YOLO modeli tasvirni bir marta tahlil qilib, undagi obyektlarni aniqlaydi [11].



3-rasm. YOLO obyektlarni tanib olish modelining axitekturasini.

Bu yondashuv tasvirni kichik gridlarga bo'lish va har bir grid uchun chegaralash qutilari va obyekt klassifikatsiyasini hisoblash orqali amalga oshiriladi.

Tasvirni gridlarga bo'lish: Tasvir DxD o'lchamdagi gridlarga bo'linadi. Har bir grid hujayrasi tasvirning kichik bir qismiga mos keladi.

Bounding boxlarni aniqlash: Har bir grid hujayrasi uchun bir nechta bounding boxlar aniqlanadi.

Har bir bounding box uchun markaz koordinatalari, kengligi, balandligi va ishonch koeffitsiyenti (confidence score) hisoblanadi [12].

Obyekt klassifikatsiyasi: Har bir grid hujayrasi uchun obyekt klassifikatsiyasi amalga oshiriladi. Bu klassifikatsiya har bir chegaralash qutisi uchun qaysi obyekt turi mavjudligini aniqlaydi.

Yagona model: YOLO modeli barchani birlashtiradi va bir vaqtning o'zida chegaralash qutilarini va obyekt klassifikatsiyasini aniqlaydi. Bu yondashuv modeli juda tez va samarali qiladi.

YOLO obyektlarni aniqlashda tezlik va samaradorlikni oshirish uchun ishlab chiqilgan ilg'or modeldir. Ushbu modelning ishlash prinsipi va arxitekturasi uni real vaqt rejimida obyektlarni aniqlashda juda samarali qiladi. YOLO modeli transport tizimlari, xavfsizlik tizimlari va boshqa ko'plab sohalarda keng qo'llaniladi [13].

Yuqorida keltirilgan obyektlarni tanib olish modellari bugungi kunda o'zlarining imkoniyatlarini kengaytirib bormoqda.

YOLO & Faster R-CNN va SSD. Obyektlarni tanib olish modellarining qaysi biridan foydalangan yaxshi degan savolga javob berish mushkul. Sababi har bir model holatdan kelib chiqib ustunliklarga ega. Odatda bu kabi obyektlarni tanib olish modellari ishlash tezligi (FPS) va ishlash aniqligi bo'yicha taqqoslanadi [14]. Masalan, YOLO, Faster R-CNN va SSD tasvirlardan obyektlarni tanib olish modellari qaralganda, ularning ishlash tezligi va tanib olish aniqligiga nisbatan solishtirilganda 4-rasmdagi kabi natijalar olindi.

Model	mAP %	FPS	Tezlik	Aniqlik
YOLO	18,6	295	Juda tez	O'rtacha
Faster R-CNN	41,8	17	Sekin	Yuqori
SSD	31,2	56	Tez	Yuqori

4-rasm. YOLO, Faster R-CNN va SSD obyektlarni tanib olish modellarining ishlash tezligi va aniqligi.

Bunda YOLO, Faster R-CNN va SSD modellarini baholash hamda taqqoslash uchun biz



NVIDIA V100 SXM2 16GB GPU yordamida 100 mingta test ma'lumotlar to'plamida FPS va mAPi o'Ichandi. 4-rasmda keltirilgan taqqoslashlarni 5-rasm, 6-rasm va 7-rasmdan ham ko'rish mumkin.




5-rasm. YOLO obyektlarni tanib olish modelining ishlash tezligi va aniqligi.

Haqiqatan ham 5-rasmdan ko'rinib turibdiki, YOLO modelining ishlash tezligi Faster R-CNN va SSD modellariga qaraganda mos ravishta o'rtacha 17 va 5 barobar tez ishlashini ko'rsatdi. Shuning uchun YOLO obyektlarni tanib olish modelidan real vaqt rejimidagi tadqiqotlarda foydalanish tavsiya etiladi.



6-rasm. Faster R-CNN obyektlarni tanib olish modelining ishlash tezligi va aniqligi.

Obyektlarni tanib olishdagi aniqlik bo'yicha Faster R-CNN YOLO va SSD modellariga qaraganda mos ravishta o'rtacha 2 va 1.3 marta yaxshiroq natija qayt etganini ko'rish mumkin.



7-rasm. SSD obyektlarni tanib olish modelining ishlash tezligi va aniqligi.

SDD obyektlarni tanib olish modeli esa qolgan modellarga qaraganda obyektlarni tanib olish tezligi va aniqlikda o'rtacha natija qayt etgan. Xulosa shundan iboratki, agar qaraliyotgan jarayonda obyektlarni tanib olish tezligi muhim bo'lsa YOLO modelidan, obyektlarni yuqori aniqlikda tanib olish muhim bo'lganda Faster R-CNNdan foydalangan afzal.

№	Sana	Hafta kuni	Mashina soni	Motosikl soni	Avtobus soni	Yukmashina soni	Umumiy soni	Soat	Minut	Tirbandlik holati
0	9	Juma	17	2	1	35	55	21	45	1
1	9	Juma	12	0	1	31	44	21	0	1
2	9	Juma	16	3	1	26	46	22	15	1
3	9	Juma	15	6	0	22	43	22	30	1
4	9	Juma	13	4	1	15	32	22	45	1
...

1-jadval. Yo'llardagi tirbandlik holatlarini bashorat qilishda ma'lumotlar orasidagi o'zaro bog'liqlik koeffitsiyentlarini aniqlash

Ushbu tadqiqot ishida yo'llardagi tirbandlik holatlarini Hafta kuni, Mashina soni, Motosikl soni, Avtobus soni, Yukmashina soni, Umumiy soni, Soat, Minut va PM/AM parametrlari bo'yicha bashorat qilish qarab o'tilgan [15]. Dastlab 1-jadvaldagi Tirbandlik holati parametriga qolgan parametrlarning bog'liqlik koeffitsiyentini hisoblab chiqish talab qilinadi. Ushbu bog'liqlik yo'llardagi tirbandlik holatlarini bashorat qilish o'sha parametrning qanchalik muhimligini bildiradi, agar bog'liqlik koeffitsiyenti past bo'lsa shu parametrni tashlab yuborishimiz mumkin bo'ladi.

III. Yo'llardagi tirbandlik holatlarini bashorat qilishda ma'lumotlar orasidagi o'zaro bog'liqlik koeffitsiyentlarini aniqlash




Yo'llardagi tirbandlik holatlarini bashorat qilishda ma'lumotlar orasidagi o'zaro bog'liqlik koeffitsiyentlarini aniqlash uchun uchta asosiy formulani ishlatish mumkin: Pearson, Spearman va Kendall Tau koeffitsiyentlari. Har bir koeffitsiyent turli xil sharoitlarda va turli xil ma'lumot turlarida foydalaniladi [16].

Pearson korrelyatsiya koeffitsiyenti. Pearson koeffitsiyenti ikki o'zgaruvchi orasidagi chiziqli bog'liqlikni o'lchaydi. Bu koeffitsiyentlar 1 va -1 oralig'ida bo'lib, 1 mukammal musbat bog'lanishni, -1 mukammal manfiy bog'lanishni, 0 esa bog'lanish yo'qligini bildiradi.

$$e = \frac{m \sum zt - (\sum z)(\sum t)}{\sqrt{[m \sum z^2 - (\sum z)^2][m \sum t^2 - (\sum t)^2]}} \quad (1)$$

bunda e - x va y o'zgaruvchilarining o'zaro bog'liqlik koeffitsiyenti; n - x va y o'zgaruvchilar juftliklari soni; Ushbu (1) formula bo'yicha tadqiqotda to'plangan ma'lumotlarning o'zaro bog'liqlik koeffitsiyenti 8-rasmda keltirilgan.



8-rasm. Tadqiqotda foydalanilayotgan ma'lumotlarning Pearson formulasi bo'yicha o'zaro bog'liqlik koeffitsiyenti Heatmap grafigi.

Ushbu matritsa har bir ustun orasidagi Pearson korrelyatsiya koeffitsiyentlarini o'z ichiga oladi.



9-rasm. Tadqiqotda foydalanilayotgan ma'lumotlarning Pearson formulasi bo'yicha o'zaro bog'liqlik koeffitsiyenti.

9-rasmdan ko'rish mumkinki, Tirbandlik holati parametri bilan Mashina soni, Motosikl soni, Avtobus soni va Umumiy soni parametrlari orasida mos ravishda 0.54, 0.41, 0.59 va 0.63 qiymatlar bilan kuchli, Yukmashina soni (0.05), Soat (0.18), Minut (0) va AM/PM (0.12) kabi parametrlarga kuchsiz bog'langanligini ko'rish mumkin.

Kendall Tau korrelyatsiya koeffitsiyenti. Kendall Tau koeffitsiyenti ikkita o'zgaruvchilar orasidagi tartibli bog'liqlikni o'lchaydi. Bu koeffitsiyent ham -1 va 1 oralig'ida qiymat oladi.

x va y o'zgaruvchilarning Kendall formulasi bo'yicha o'zaro bog'liqlik koeffitsiyenti quyidagi (2) formula orqali topiladi:


$$\eta = 2 \times \frac{L - K}{p \times (p - 1)} \quad (2)$$

bunda L - (x_i, y_i) va (x_j, y_j) uchun (2.3.3) shartni qanoatlantiruvchi juftliklar soni; K - (3) shartni qanoatlantirmaydigan juftliklar soni.

$$[(x_i < x_j) \vee (y_i < y_j)] \text{ yoki } [(x_i > x_j) \vee (y_i > y_j)] \quad (3)$$


bu yerda $i < j$ va $i, j = 1 \dots n$. Ushbu (2) formula bo'yicha tadqiqotda to'plangan ma'lumotlarning o'zaro bog'liqlik koeffitsiyenti 10-rasmda keltirilgan.





10-rasm. Tadqiqotda foydalanilayotgan ma'lumotlarning Kendall Tau formulasi bo'yicha o'zaro bog'liqlilik koeffitsiyenti Heatmap grafi.

Ushbu matritsa har bir ustun orasidagi Kendall Tau korrelyatsiya koeffitsiyentlarini o'z ichiga oladi.



11-rasm. Tadqiqotda foydalanilayotgan ma'lumotlarning Kendall Tau formulasi bo'yicha o'zaro bog'liqlilik koeffitsiyenti.


11-rasmdan ko'rish mumkinki, Tirbandlik holati parametri bilan Mashina soni, Motosikl soni, Avtobus soni va Umumiy soni parametrlari orasida mos ravishda 0.43, 0.37, 0.49 va 0.52 qiymatlar bilan kuchli, Yukmashina soni (0.11), Soat (0.14), Minut (0) va AM/PM (0.11) kabi parametrlarga kuchsiz bog'langanligini ko'rish mumkin.

Spearman korrelyatsiya koeffitsiyenti. Spearman koeffitsiyenti ikkita o'zgaruvchilar orasidagi monotoniya bog'liqligini o'lchaydi [17]. Bu koeffitsient ham -1 va 1 oralig'ida qiymat oladi, bu yerda 1 mukammal monotoniya musbat bog'liqlikni, -1 mukammal monotoniya manfiy bog'liqlikni va 0 bog'liqlik yo'qligini bildiradi.

x va y o'zgaruvchilarning Spearman formulasi bo'yicha o'zaro bog'liqlilik koeffitsiyenti quyidagi (2.3.3) formula orqali topiladi.

$$t_r = 1 - \frac{6 \sum p_i^2}{b^3 - b} \quad (4)$$

bunda $t_i = x_i - y_i$. Ushbu (4) formula bo'yicha tadqiqotda to'plangan ma'lumotlarning o'zaro bog'liqlilik koeffitsiyentlari 12-rasmda keltirilgan.



12-rasm. Tadqiqotda foydalanilayotgan ma'lumotlar va vaqt ko'rsatkichining Spearman o'zaro bog'liqlilik koeffitsiyenti Heatmap grafi.

Ushbu matritsa har bir ustun orasidagi Spearman korrelyatsiya koeffitsiyentlarini o'z ichiga oladi.



13-rasm. Tadqiqotda foydalanilayotgan ma'lumotlar va vaqt ko'rsatkichining Spearman o'zaro bog'liqlilik koeffitsiyenti.

13-rasmdan ko'rish mumkinki, Tirbandlik holati parametri bilan Mashina soni, Motosikl soni, Avtobus soni va Umumiy soni parametrlari orasida mos ravishda 0.60, 0.49, 0.64 va 0.70 qiymatlar bilan kuchli, Yukmashina soni (0.15), Soat (0.16), Minut



(0.01) va AM/PM (0.11) kabi parametrlarga kuchsiz bog'langanligini ko'rish mumkin.

Mashinaviy o'qitish algoritmlari asosida yo'llardagi tirbandlikni bashorat qilish algoritmi

Yo'llardagi tirbandlik holatlarini bashorat qilishga oid dastlabki ma'lumotlar to'plamini mashinaviy o'qitishga tayyorlash va bashoratlashda quyidagi jarayonlar amalga oshiriladi. Bu jarayon modelni o'rgatish va baholash uchun muhimdir. Toza va aniqlikni oshiruvchi ma'lumotlar to'plamini yaratish. Bunga yo'qolgan qiymatlar bilan ishlash (to'ldirish, o'chirish), noto'g'ri qiymatlar bilan ishlash (aniqlash, tuzatish va o'chirish), **duplikat qatorlarni aniqlash va o'chirish**, ma'lumotlarni qayta ishlash (xususiyatlarni tanlash, kategorik ma'lumotlarni raqamli ma'lumotlarga aylantirish, ma'lumotlarni normalizatsiya qilish yoki standartlashtirish) **kabilarni misol qilib olish mumkin [18]**.

Bu algoritmi yo'llardagi tirbandlikni bashorat qilish uchun algoritmnining bosqichlari keltirilgan. Bu bosqichlar quyidagi jarayonlarini o'z ichiga oladi:

1.	dastlabki ma'lumotlarni to'plami	6.	ma'lumotlar to'plamini o'quv va test to'plamiga bo'lish
2.	kodlashtirish va korrelyatsiya tahlili	7.	regressiya modellarida o'qitish
3.	xususiyatlar tahlili	8.	modelni baholash
4.	NaN qiymatlarni to'ldirish	9.	tirbandlikni baholash
5.	ma'lumotlarni masshtablash	10.	yakuniy natijalarni chiqarish

Algoritmi optimal parametrlarni topish va modelning aniqligini oshirish uchun parametrlarni sozlaydi va baholaydi [12].

Natija

Yo'ldagi tirbandlik holatini bashoratlash tadqiqotida Kaggle tizimidagi ochiq ma'lumotlar to'plamlaridan biri bo'lgan "Traffic Prediction Dataset" ishlatildi. Bu to'plamda jami 2977 ta ma'lumot mavjud bo'lib, ular tajriba sinovlari uchun 80/20 nisbatda o'quv va test to'plamlariga ajratildi [18]. Ma'lumotlar bashoratlash modeliga yuborilishidan oldin, tadqiqot uchun muhim bo'lgan maydonlar aniqlanib, tayyorlandi. Tadqiqotning asosiy

maqsadi yo'llardagi tirbandlik holatining vaqtga bog'liqlik darajasini o'rganishdan iborat edi. Keyingi bosqichlarda tanlangan maydonlar asosida XGBoost, Random Forest Classifier, LGBMClassifier va Logistic Regression modellarida o'qitildi va testdan o'tkazildi. Bu sun'iy intellekt modellarini baholashda Accuracy, Recall, Precision va F1 Score kabi metrikalardan foydalanildi [19]. Tadqiqot natijalari esa 2-jadvalda keltirildi.

№	Mashinaviy o'qitish algoritmi	Algoritmi baholash ko'rsatkichlari			
		Accuracy	Recall	Precision	F1 Score
1	XGBoost	1	1	1	1
2	Random Forest Classifier	1	1	1	1
3	LGBMClassifier	1	1	1	1
4	Logistic Regression	0.994	0.997	0.995	0.996

2-jadval. Yo'llardagi tirbandlikni baholashda foydalanilgan sun'iy intellekt modellari natijalari

Yuqoridagi 2-jadvaldan ko'rish mumkinki, tadqiqotda taklif etilayotgan XGBoost algoritmi Random Forest Classifier, Logistic Regression va LGBMClassifier algoritmlariga qaraganda yuqoriroq natija qayt etdi. Ushbu bo'limda XGBoost, Random Forest Classifier va LGBMClassifier algoritmlarining baholanish natijalari ko'rib chiqildi. Ushbu algoritmlar Accuracy, Recall, Precision va F1 Score yordamida baholandi. Umuman olganda, barcha algoritmlar yuqori natijalar ko'rsatdi, lekin XGBoost, Random Forest Classifier va LGBMClassifier algoritmlari eng yuqori aniqlik va samaradorlikni namoyish etdi. Logistic Regression algoritmi esa biroz kamroq bo'lsada, hali ham yuqori natijalarga erishdi. Bu algoritmlar yo'llardagi tirbandlik holatini bashorat qilishda samarali ekanligini ko'rsatadi.

XULOSA

Yo'llardagi tirbandlik holatlarini bashorat qilish va transport tizimlarini samarali boshqarish zamonaviy shaharlar uchun dolzarb masalalardan biridir. Ushbu tadqiqotda tirbandlikni oldindan ko'rish va bartaraf etish maqsadida intellektual algoritmlardan foydalanildi. Dastlab, video tasvirli ma'lumotlardan YOLO obyektini aniqlash modeli yordamida 2-rasmdagi ma'lumotlar to'plami yaratildi. Ushbu ma'lumotlar to'plami 80/20 nisbatda o'quv va test to'plamlariga ajratildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi



yo'llardagi transport vositalarining tirbandlik holatlarini harakat ma'lumotlariga asoslanib bashoratlash edi [19]. Bunda AvtomobilSoni, MotosiklSoni, AvtobusSoni, YukmashinaSoni, UmumiySoni, Soat, Minut va AM/PM kabi parametrlar hisobga olindi. Tadqiqotning keyingi bosqichida sun'iy intellektning XGBoost, Random Forest Classifier va Logistic Regression kabi bashorat qilish algoritmlaridan foydalanildi. Ushbu algoritmlar yordamida yo'ldagi tirbandlik holati bashorat qilindi va natijalar Accuracy, Recall, Precision va F1 Score kabi baholash usullari yordamida tekshirildi. Yuqorida keltirilgan algoritmlarning barchasi baholash mezonlari bo'yicha yuqori natijalarni qayd etdi. Umuman olganda, barcha algoritmlar yuqori natijalar ko'rsatdi, lekin XGBoost, Random Forest Classifier va LGBMClassifier algoritmlari eng yuqori aniqlik hamda samaradorlikni namoyish etdi [20]. Ushbu algoritmlar transport boshqaruvi tizimlarini yaxshilash, yo'llardagi tirbandlikni kamaytirish va transport oqimini samarali boshqarish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Sun'iy intellekt algoritmlarining keng qo'llanilishi shahar transport tizimini optimallashtirish va haydovchilarga qulay sharoit yaratishda katta yordam beradi. Bu tadqiqot yo'ldagi tirbandlik holatlarini bashorat qilishda intellektual algoritmlarning imkoniyatlarini ko'rsatib berdi va kelajakda shahar infratuzilmasini rivojlantirishda katta hissa qo'shishi mumkinligini isbotladi.

Adabiyotlar

1. Lowe, D. G. (1999) Object recognition from local scale-invariant features. In Computer vision, 1999. The proceedings of the seventh IEEE international conference on, volume 2, pages 1150–1157. Ieee.
2. Akhatov A. R., Nazarov F., Eshtemirov B.Sh. "Detection and analysis of traffic jams using computer vision technologies", International Conference on Artificial Intelligence, Blockchain, Computing and Security (ICABCS-2023). Samarkand, Uzbekistan.
3. Axatov A. R., Eshtemirov B.Sh. "Mashinaviy o'qitish asosida yo'llardagi tirbandlik holatlarini tahlil qilishning intellektual algoritmlari" "Raqqamli transformatsiya va sun'iy intellekt",

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2024-yil, Volume 2, Issue 3.

4. F.M.Nazarov, Eshtemirov B.Sh., Q.Sh.Saydullayev "Microscopic and macroscopic flow models of traffic management" // Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi. (283/7.1-son OAK qarori. №32), 2023-yil, 1-son (137/2).

5. J. Redmon and A. Angelova. Real-time grasp detection using convolutional neural networks. CoRR, abs/1412.3128, 2014.

6. Nannicini G. , "Point-to-point shortest paths on dynamic time-dependent road networks," 40R, vol. 8, pp. 327-330,2010.

7. S. Gidaris and N. Komodakis. Object detection via a multiregion & semantic segmentation-aware CNN model. CoRR, abs/1505.01749, 2015.

8. Akhatov A., Renavikar A., Rashidov A. & Nazarov F. "Development of the Big Data processing architecture based on distributed computing systems" Informatika va energetika muammolari O'zbekiston jurnali, № (1) 2022, 71-79

9. M. A. Sadeghi and D. Forsyth. 30hz object detection with dpm v5. In Computer Vision–ECCV 2014, pages 65–79. Springer, 2014.

10. Bolikulov, F.; Nasimov, R.; Rashidov, A.; Akhmedov, F.; Cho, Y.-I. Effective Methods of Categorical Data Encoding for Artificial Intelligence Algorithms. Mathematics 2024, 12, 2553. <https://doi.org/10.3390/math12162553>

11. J. Yan, Z. Lei, L. Wen, and S. Z. Li. The fastest deformable part model for object detection. In Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR), 2014 IEEE Conference on, pages 2497–2504. IEEE, 2014. 5.

12. Siu Hong Loh, Jia Jia Sim, Chu Shen Ong, Kim Ho Yeap, "Development of Smart Traffic Light Controller System with Deep Learning Capability in Image Processing", 2021.

13. Waing, Dr. Nyein Aye, On the Automatic Detection System of Stop Line Violation for Myanmar Vehicles (Car), Volume 1 - Issue 4 November 2013.

14. Axatov A. (2023). Sun'iy intellektdan foydalanib yo'llardagi tirbandliklarni baholash bosqichlari va algoritmlari. Amaliy matematikaning



zamonaviy muammolari va istiqbollari. Qarshi davlat universiteti, 2024-yil, 24-25-may.

15. A. Akhatov, "Transport harakatini boshqarish usullari" Sun'iy intellekt va raqamli ta'lim texnologiyalari: amaliyot, tajriba, muammo va istiqbollari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. Samarqand davlat univerteti, 2024 yil 3-4-iyun.

16. Eshtemirov B.Sh., Nazarov F., Yarmatov Sh.Sh. "Technologies for identifying vehicles standing at traffic lights based on video data", Central asian journal of mathematical theory and computer sciences, Volume: 03 Issue: 12 | ISSN: 2660-5309, 2022 yil, dekabr.

17. H. Mao-Chi and Y. Shwu-Huey, "A real-time and colorbased computer vision for traffic monitoring system," in Multimedia and Expo, 2004. ICME '04. 2004 IEEE International Conference on, 2004, pp. 2119-2122 Vol.3.

18. Kanungo, A.; Sharma, A.; Singla, C. Smart traffic lights switching and traffic density calculation using video processing. In Proceedings of the 2014 Recent Advances in Engineering and Computational Sciences (RAECS), Chandigarh, India, 6–8 March 2014; pp. 1–6.

19. Xun, F.; Yang, X.; Xie, Y.; Wang, L. Congestion detection of urban intersections based on surveillance video. In Proceedings of the 18th International Symposium on Communications and Information Technologies (ISCIT), Bangkok, Thailand, 26–28 September 2018; pp. 495–498.

20. Kurniawan, J.; Syahra, S.G.; Dewa, C.K. Traffic Congestion Detection: Learning from CCTV Monitoring Images using Convolutional Neural Network. *Procedia Comput. Sci.* 2018, 144, 291–297.



MoO₃/Mo NANOTUZULMALARINI OLISH VA ULARNING ELEKTRON TUZILISHI VA OPTIK XOSSALARINI O'RGANISH

Allayarova Gulmira Xolmuratovna,

Fizika –matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent, Qarshi davlat universiteti "Nazariy
va eksperimental fizika kafedrasida dotsenti

Buronov Nurlibek Rustam o'g'li,

Fizika fakulteti Transport logistikasi 3- kurs talabasi

Zaripov Shuxrat Sobirjon o'g'li,

Fizika yo'nalishi 2- kurs magistranti

Annotatsiya. Bu ishda ikkilamchi elektronlar spektroskopiyasi hamda fotoelektronlar spektroskopiyasi kompleks usullaridan foydalanib, Mo ga O₂⁺ ionlarini bombardimon qilish usuli orqali Mo ni yuzida hosil qilingan MoO₃ nanotuzilmalarining elektron tuzulishi va fizik – optik xususiyatlari o'rganilgan. Hosil bo'lgan MoO₃ nanotuzilmasining taqiqlangan zona kengligi $E_g = 3,4$ eV yuzasining notekisligi esa 1,5 nm. Toza Mo ga O₂⁺ ionlarini implantatsiya qilinganda valent elektronlarning valent zonalarda joylashish zichliklari o'zgarib borishini ko'rsatdi. Olingan spektrlardan ko'rinadiki valent elektronlar valent zonalarda joylashganda turli zichliklar bilan joylashar ekan va bu hosil bo'lgan spektrlar maksimum va minimumlarida yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi.

Kalit so'zlar: ion implantatsiya, termik oksidlash, ikkilamchi elektronlar spektroskopiyasi, nanotuzilmalar.

Kirish. Molibden va molibden oksidi nanotuzilmalari turli sohalarda keng qo'llaniladi. Masalan mikro –elektronika optoelektronika va elektronika sohaslarida, turli hil displeyevlar olishda, sensorlarda va organik ko'yosh elementlarida MDP va PDP tuzilmalar olishda bundan tashqari integral sxemalar olishda tranzistorlarda keng qo'llaniladi[1-4].

Hozirgi vaqtgacha adabiyotlardan ma'lumki shisha ustida termik oksidlash usullari orqali va magnitron changlatish usullari orqali hamda MoO₃ tayyor kukunlari orqali ularning foton-elektron ta'sirida uning optik va emissiya va elektrofizik xususiyatlari o'rganib kelingan. Biroq Mo yuzida termik oksidlash va ion implantatsiya usullari orqali hosil qilingan MoO₃ nanoplankalarining qalinligini tarkibini va yuza morfologiyasi fizik xususiyatlari haqida to'liq ma'lumotlar mavjud emas[5-10].

Biz bu ishda Mo ni O₂⁺ ionlari bilan ion implantatsiya qilish usuli orqali hosil bo'lgan MoO₃ nanoplankalarining tarkibi, zona energetik parametrlari va valent elektronlarning valent zonalarda joylashish

zichligini o'rgandik. Ushbu ishda termik oksidlash usuli va ion implantatsiya usullari bir biriga solishtirib o'rganildi.

Nazariy tadqiqot metodologiyasi. Nishon sifatida monokristall tuzulishdagi Mo(111) namunasi olingan. Shaybasimon qilib qirqilgan namunaning diametri ~ 10 mm va qalinligi ~ 0,3 mm ga teng. Namuna yaxshilab shlifovka qilingach uni almaz pastasi yordamida yaxshilab tozalanib olindi. Yaxshilab tozalangan namunani sirtini spirt bilan tozalab artib, yuqori vakuumli 2 ta kameradan iborat bo'lgan qo'rilmaga joylashtirildi. Qo'rilmanning 1- kamerada termik oksidlash va ion implantatsiya jarayonlari amalga oshirildi, 2- kamerada esa bir qancha metodlar asosida; hosil bo'lgan nanoplankalarining tarkibi, elektron tuzulishini Oje elektronlar spektroskopiyasi va optik xususiyatlari va energetik parametrlarini (UFES) Ultrabinafsha nurlar spektroskopiyasi yordamida, sirt morfologiyasi va kristall tuzulishini (AKM) atom kuchlanishli




mikroskop va sekin elektronlar defraksiyasi usuli yordami o'rganildi[11-16].

Termik oksidlantirishdan oldin namunani 10^{-2} Pa $T= 2000$ K da uzoq vaqt 25-30 soat qizdirib tozalab olindi. Keyin esa $T= 2200$ K ga impulsli qizdirib olindi. Maxsus gaz balonni yordamida namunani yuzasiga $\varphi < 15^{\circ}$ ostida gaz molekulari yuborildi. Gaz molekulari yuborilganda namuna bir vaktida $T= 850$ K ga qizdirib turildi. O_2 molekulari kelib namunani yuzasiga utirdi va optimal $T= 850$ K qalinligi 60 \AA bo'lgan MoO_3 nanoplankasi hosil qilindi. Hosil bo'lgan nanoplankaning tarkibi birjinsli bo'lmadi va bo'ndan tashqari nanotuzilma orolcha o'sdi. Shuning uchun 2- usul ion implantatsiya usulida MoO_3 nanotuzilmalarini hosil qilib olindi. Bu usulda termik oksidlash kabi namunani oldin $T= 2000$ K da 10^{-2} Pa uzoq vaqt 25-30 soat qizdirib tozalab olindi. Keyin esa $T= 2200$ K ga impulsli qizdirib olindi. Keyingi bosqich O_2 molekularini elektron bombardimon qilish orqali kislorod molekulari O_2^+ ionlariga aylantirilib namunaning yuzasiga nisbatan $\varphi < 10-15^{\circ}$ ostida O_2^+ ionlarini energiyalarini $E= 1, 3, 5$ keV va turli dozalarda $D = (4-8) \cdot 10^{17} \text{ cm}^{-2}$ namunaning yuzasiga yuborildi. Ion implantatsiya jarayonida ham namuna bir vaqtda optimal harorat $T= 850$ K ga qizdirib turildi[17-21].

Ion implantatsiya jarayonida ionlarning $E = 1\text{keV}$ bo'lganda O_2^+ ionlari namunaning yuzasiga yaqinroq sohalariga keradi va hosil bo'lgan MoO_3 nanotuzilmaning qalinligi 30 \AA ni tashkil etdi. Ionlarning energiyasi $E = 3\text{keV}$ bo'lganda O_2^+ ionlari namunaning yuza osti qatlamlariga kerib bordi va hosil bo'lgan nanotuzilma qalinligi 60 \AA ni, $E = 5\text{keV}$ bo'lganda esa 90 \AA qalinlikdagi nanotuzilmalar hosil qilib olindi. Hosil qilingan MoO_3 nanotuzilmasining tarkibi birjinsli va tuzilmalar orasida o'tish qatlamlari deyarli hosil bo'lmadi. Demak xosil bo'lgan MoO_3 nanotuzilmasining yuza morfologiyasi 1- rasmda keltirilgan[17].



a)




b)

1.Rasm. Ion implantatsiyasi natijasida olingan qalinligi 60 \AA MoO_3 nanoplankasi yuzasi: a – tasvir atom kuchi mikroskopi yordamida olingan ; b – elektron diffraksiya naqsh (tez elektron diffraksiya)[17].

Rasmdan ko'rinadiki Atom kuchlanishli mikroskop (AKM) yordamida olingan tasvir MoO_3 nanotuzilmasining yuza notikesligini va chukkilardan iborat ekanligi ($1,5 \text{ nm}$) va sekin elektronlar defraksiyasida (SED) olingan tasvir hosil bo'lgan nanotuzilma polikristall to'zulishda ekanligini qo'rsatdi.

Natijalar va muhokamalar. Quyidagi 2-rasmda toza Mo va ion implantatsiya usulida hosil qilingan MoO_3 nanotuzilmalari uchun olingan Oje spektrlar keltirilgan.







2-Rasm. a) Toza Mo (111): uchun b) O₂⁺ ionlarini energiyasi 1 keV va dozasi 4 × 10¹⁷ sm⁻² implantatsiya qilib haroratni 850 K qizdirib turilganda hosil bo'lgan MoO₃ nanotuzilmasi uchun Oje spektrlari[21]

Chizmadan kurinadiki toza Mo da olingan Oje spektrlar chuqqilarining siljishlari Mo va O₂⁺ ionlari bilan o'zaro bog' hosil qila boshladi deyishimiz mumkin. Termik oksidlash usulini ion implantatsiya usuliga solishtirib o'rganilganda ion implantatsiya usulida ionlarning energiyasini boshqarish imkonini va bu orqali nanotuzilmalarning qalinligini va ko'p qatlamli tizimlar hosil qilish imkonini berdi. Qo'yidagi 3- rasmda termik oksidlash usuli va ion implantatsiya usullarida olingan nanotuzilmalarni tarkibidagi O₂⁺ uchun konsentratsiya taqsimotlari keltirilgan.

Rasmdan kurinadiki (2-igri chiziq) termik oksidlash usulida 60 Å qalinlikda olingan naotuzilmaning o'tish qatlami ham 60 Å ni tashkil etdi. Ion implantatsiya usulida hosil qilingan nanotuzilmada esa (1- igri chiziq) o'tish qatlamlari o'tish qatlamlari juda kam hosil bo'ldi va stixiometrik tarkibi butun xajm va yuza bo'yicha buyicha deyarli bir hil bo'ldi. Keyingi 4- rasmda esa toza Mo va MoO₃ nanotuzilmalari uchun fotoelektron spektrlari keltirilgan.



3 – Rasm. Kislorod ionlarini turli energiyalarda E₀, keV: 1 – 1; 2 – 3; 3 – 5-3 va 1; ionlar dozasi tuyinish dozasi D=2·10¹⁷sm⁻² 60 Å qalinlikda MoO₃ hosil bo'lishida O₂⁺ ionlarining atom konsentratsiya taqsimotlari keltirilgan[17].



4- Rasm. Toza Mo uchun fotonlarni energiyasini 1 –10.8 ; 2 – MoO₃ nanotuzilmasi uchun fotonni energiyasi 15.6 eV da valent zona uchun spektrlari[21].

Rasmdan ko'rinadiki toza Mo ga (1- igri chiziq) fotonlarni energiyasi 10,8 eV qilib yuborilganda valent elektronlarning valent zonalardagi taqsimot spektrlari keltirilgan. Toza Mo ga O₂⁺ ionlarini implantatsiya qilinganda valent elektronlarning valent zonalarda joylashish zichliklar i o'zgarib borishini ko'rsatdi.



Olingan spektrlardan ko'rinadiki valent elektronlar valent zonalarda joylashganda turli zichliklar bilan joylashar ekan va bu hosil bo'lgan spektrlar maksimum va minimumlarida yanada yaqqolroq namoyon bo'ldi.

Xulosa. Shunday qilib bu ishda birinchi marta termik oksidlash va ion implantatsiya usullari yordamida hosil qilingan qalinligi 30-100 Å bo'lgan nanotuzilmalarning tarkibi va yuza nokesligi, zona energetik parametrlari o'rganilib quyidagi xulosalarga kelindi. Termik oksidlash usulida hosil qilingan MoO₃ nanotuzilmasini hosil bo'lishida o'tish qatlamlar ko'proq hosil bo'ldi va bo'nga sabab ularning tarkiblari birjiginsli bo'lmaganligidir. Ion implantatsiya usulida olingan MoO₃ nanotuzilmalari esa elementar va kimyoviy tarkiblari 30-100 Å bo'lgan qalinliklar orlig'ida deyarli bir jinsli nanotuzilma hosil bo'ldi. Bir jinsli bo'lgan nanotuzilmaning zona energetik parametrlari va valent elektronlarning valent zonada joylashish taqsimotlari o'rganilganda 4 ta maksimumdan iborat spektrlar hosil bo'ldi. Bundan kelib chiqib biz valent zonada joylashgan valent elektronlarni turli zichliklar bo'yicha joylashishi mumkin degan xulosaga keldik.

Adabiyotlar ro'yhati

1. Коршунов А.В. // Размерные и структурные эффекты в процессах окисления металлов: монография. Томск, 2013. 360 с.
2. Миннеханов А.А., Вахрина Е.В. Константинова Е.А., Кашкаров П.К. // Письма в ЖЭТФ. 2018. Т. 107. Вып. 4. С. 270.
3. Surovoi E.P., Surovaia V.E., Bugerko L.N. // J. Phys.Chem. A. 2013. V. 87. № 5. P. 826.
4. Ковивчак В.С., Панова Т.В. // Поверхность. Рентген., синхротр. и нейтрон. исслед. 2016. № 12. С. 41.
5. Гаврилов С.А., Белов А.Н. Электрохимические процессы в технологии микро- и наноэлектроники. М.: Высшее образование, 2009. 272 с.
6. Буназаров Д.Б., Касымов А.Х., Нормурадов М.Т., Пугачева Т.С. // Радиотехника и электроника. 1976. № 7. С. 21.
7. Суровой Э.П., Суровая В.Э., Бугерко Л.Н. // Журн. физ. химии. 2013. Т. 87. № 5. С. 842.

8. Chary K.V.R., Reddy K.R., Gurram K. et al. // J. Catal. 200. V. 226. № 2. P. 283.
9. Scanlon D.O., Watson G.W., Payne D.J. et al. // J. Phys.Chem. C. 2010. V. 114. P. 4636. <https://doi.org/10.1021/jp9093172>
10. Kang M., Oh E., Kim I. et al. // Current Appl. Phys. 2012. V. 12. P. 489. doi . 2011. 08. 007 <https://doi.org/10.1016/j.cap>
11. Bohne N.Y., Shevchenko F., Prokert J. // Nucl. Instrum.Methods Phys. Res. B. 2005. V. 24. Iss. 1–2. P. 157.
12. Bernd R., Claus H., Bernd R. // Nucl. Instrum. Methods Phys. Res. B. 2000. V. 160. Iss. 3. P. 363.
13. Alov N.V. // Nucl. Instrum. Methods Phys. Res. B. 2007. V. 256. Iss. 1. P. 337.
14. Ivna K., Piltaverlavana J., Badovinac R. // Appl. Surf.Sci. 2017. V. 425. P. 416.
15. Алов Н.В., Леонов М.П. // Физика и химия обработки материалов. 1986. Т. 6. № 6. С. 94.
16. Умирзаков Б.Е., Ташмухамедова Д.А., Гулямова С.Т., Аллаярова Г.Х. // ЖТФ. 2020. Т. 90. Вып. 5. С. 831.
17. Isakhanov Z.A., Mukhtarov Z.E., Umirzakov B.E., Ruzibaeva M.K. // Tech. Phys. 2011. V.56. Iss. 4. P. 546.
18. Donaev S.B., Djurabekova F., Tashmukhamedova D.A., Umirzakov B.E. // Phys. Stat. Sol. C. 2015. V. 12. Iss. 1–2. P. 89.
19. Эргашов Ё.С., Ташмухамедова Д.А., Раббимов Э. // Поверхность. Рентген., синхротр. и нейтрон. исслед. 2015. № 4. С. 38.
20. Алиев А.А., Шалимов З.Т. // Поверхность. Рентген., синхротр. и нейтрон. исслед. 2003. № 8. С. 105.
21. Умирзаков Б.Е., Исаханов З.А., Рузобаева М.К., Ёркулов Р.М. // ЖТФ. 2019. Т. 89. № 6. С. 935.



INSON YUZ TASVIRIDAN HISSIYOTLARNI ANIQLASH UCHUN GEOMETRIK XUSUSIYATLARINI VA TASHQI KO'RINISHGA ASOSLANGAN XUSUSIYATLARINI AJRATIB OLISH

Kurbanov Abduraxmon Alishboyevich,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy
universitetining Jizzax filiali tayanch doktoranti
abduraxmon.1986@gmail.com

Annotatsiya. Inson qarshisida turgan suhbatdoshining emotsional holatini ko'rish, anglash va his qilish kabi sezish qobiliyatlari yordamida osongina aniqlay oladi, biroq kompyuter tizimlari uchun bu juda murakkab masaladir. Hissiyotlarni avtomatik aniqlash borasida zamonaviy kompyuter texnologiyasi va sun'iy intellekt tizimlari samarali bashoratlarni taqdim etishayapti, lekin zamonaviy CNN texnologiyalari yordamida juda katta ma'lumotlar to'plami bilan qurilgan chuqur o'rganish modellari ham murakkab hissiy holatlarni aniqlash borasida mukammal emasligi isbotlangan. Ushbu maqolamizda hissiy holatni to'g'ri baholash uchun zarur bo'lgan yuz xususiyatlarini aniqlash masalasi hal qiladi.

Kalit so'zlar: Local binary pattern (mahalliy ikkilik naqshlar), Histogram of Oriented Gradients (yo'naltirilgan gradientlar gistogrammasi), konvolutsion neyron tarmoqlari. SVM, k-NN, random forest, Haarcascads, bilateralFilter


Kirish. Tuyg'ularni tushinish shaxslararo muloqotning shuningdek ijtimoiy hayotdagi o'zaro aloqaning muhim vositalaridan biridir. So'nggi o'n yillikda yuz tahlili sohasida bir qancha yutuqlarga erishildi. Ishlab chiqilgan natijalar va modellar biometric xavfsizlik sohasida shaxsni identifikatsiya qilish tizimlari, ta'limda o'quvchilarning diqqat va e'tibor darajasini kuzatishda, insonlarning ruhiy salomatligini nazorat qilishda keng qo'llanila boshlandi.

Yuz tasvirlaridan inson hissiyotlarini aniqlash uchun hissiy holatlarni ifodalovchi vizual belgilarni ajratib olish va izohlash jarayoniga qaratilgan bir qator algoritmik bosqichlar bajariladi. Tasvirga ishlov berish bosqichida Haarcascads, Yo'naltirilgan Gradientlar Gistogrammasi yoki chuqur o'rganishga asoslangan detektorlar (masalan, YOLO, MTCNN) kabi usullardan foydalangan holda yuz tasviri aniqlanadi. yuzni aniqlagandan so'ng, yuzning o'lchami va masshtabi standartlashtiriladi. Bunda turli hil resize operatsiyalaridan foydalanish mumkin. Tasvir Gauss xiralashtirish yoki bilateralFilter kabi usullar yordamida tasvirdagi shovqinlar kamaytiriladi yani tiniqlashtiriladi. Keying boshqich xususiyatlarga ajratish bosqichi bo'lib, tuyg'ularni aniqlashda ishlatiladigan xususiyatlarning ikkita asosiy turi

mavjud, lekin ba'zi tadqiqotchilar tomonidan gibrud usullar ham ishlab chiqilgan. **Geometrik xususiyatlar** – Faol shakl modellari yoki chuqur o'rganishga asoslangan usullar (masalan, OpenFace, dlib) kabi algoritmlar ko'zlar, burun, og'iz va qoshlarning holati kabi yuzdagi asosiy nuqtalari aniqlanadi. So'ngra bu belgilar orasidagi masofalar, burchaklar va nisbiy pozitsiyalar hissiyotlar bilan bog'liq ifodalarni aniqlash uchun ishlatiladi (masalan, g'azab uchun chimirilgan qoshlar yoki baxt uchun baland lablar). **Tashqi ko'rinishga asoslangan xususiyatlar** – Gabor filtrlari yoki mahalliy ikkilik naqshlar kabi filtrlar terining tuzilishini tahlil qilish yoki ko'z yoki og'iz atrofidagi qirralarni aniqlash orqali xususiyatlarga ajratiladi. Tashqi ko'rinishga asoslangan xususiyatlarni ajratishning yana bir usuli tasvirni to'g'ridat-to'g'ri konvolutsion neyron tarmoqlaridan o'tkazilib tahlil qilinadi. Konvolutsion neyron tarmoqlari his-tuyg'ular bilan bog'liq nozik naqshlarni ushlay oladigan yuzdan ierarxik xususiyatlarni avtomatik ravishda olish uchun ishlatiladi. VGG-Face, ResNet yoki maxsus arxitektura kabi oldindan tayyorlangan modellar murakkab yuz tasvirlarini o'rganish imkonini beradi. Hissiyotlarning tasniflash bosqichi tegishli xususiyatlar chiqarilgandan so'ng, hissiy holatni bashorat qilish uchun tasniflash algoritmlari qo'llaniladi. Tasniflashning keng



tarqalgan ikki usuli mavjud. An'anaviy mashinaviy o'rganish algoritmlari yordamida masalan qo'llab quvatlash vektor mashinalari yoki k-eng yaqin qo'shnilar bo'lishi mumkin. Ikkichi usul chuqur o'rganish algoritmlari yordamida, eng samarali usullar bu konvolyutsion neyron tarmolar yordamida. CNN-ga asoslangan modellar odatda oxirigacha his-tuyg'ularni aniqlash uchun ishlatiladi. Ushbu modellar his-tuyg'ularni to'g'ridan-to'g'ri xom piksel ma'lumotlaridan yoki olingan xususiyat xaritalaridan tasniflashni o'rganadilar.



1-rasm. Konvolyutsion neyron tarmoqlarida foydalanib hissiyotlarni aniqlash.

Yuqorida kiruvchi ma'lumot sifatida inson tasvirlari olingan va undan yuz tasvirini ajratib olib tahlil qilingan. Tahlil qilish muobaynida xususiyatlar haqidagi ma'lumotlar olinadi va hu asosida yuz tasvirida ifodalangan hiisiyot turlarida tasviflanadi. Ushbu maqolamizda Geometrik xususiyatlarni ajratib olishda uchburchaklar usuli va tashqi ko'rinishga asoslangan xususiyatlarni ajratib olishda Gabor filteri usulidan foydalanilgan. Maqolada faqat yuz xususiyatlarini ajratib olish usullari haqida so'z yuritilgan olingan xususiyatlar asosida tuyg'ularni aniqlash jarayoni masalasini keyingi ishlarimizda hal qilamiz.

Adabiyotlar sharhi. Ko'plab ilmiy tadqiqot ishlarida hissiyotlarni aniqlashda yuzni geometrik xususiyatlarga ajratish yoki tashqi ko'rinishga asoslangan yondoshuvlardan foydalanilgan. Ishlab chiqilgan usullar ham u yoki bu yondashuv asosida insonning emotsional holati baholangan. Yuzni geometrik xususiyatlarga ajratish borasida bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan Murugappan M. va Mutawa A. tomonidan e'lon qilingan "Facial geometric feature extraction based emotional expression classification using machine learning

algorithms" nomli tadqiqot ishida kompyuterda yaratilgan markerlar yordamida oltita hissiy ifodani (qayg'u, g'azab, qo'rquv, ajablanish, jirkanish va baxt) tasniflash uchun yangi geometrik xususiyatlar to'plamini olish uchun triangulyatsiya usuli taklif etdi. F. Zhang va boshqalar tomonidan yuz tasvirining shakl geometriyasidan foydalangan holda bir vaqtning o'zida yuz tasvirini sintez qilish va poza-invariant yuz ifodasini aniqlash imkonini beruvchi generativ raqib tarmog'iga modelini taklif qilishdi. Qayta tiklangan xususiyatlar geometrik shakllarga mos kelmaydigan to'rtburchak shaklni aniqlaydi. Noaniq a'zolik funksiyalari taklif etilayotgan Aralash kvadratik shakl modelidan (MQSM) to'rtburchakning noaniqlik darajasini aniqlash uchun ishlatish mumkin. Noaniq xususiyatlar atribut qiymatlaridan olinadi va tasniflagichni tekshirish uchun ishlatiladi (jami 12 ta). MSQM ishlashini tekshirish uchun tajribada CK, JAFFE va ISED ma'lumotlar bazalaridan foydalaniladi. Faqat 12 ta noaniq atributlardan foydalangan holda, tavsiya etilgan usul ko'pincha mos yozuvlar rasmlariga bog'liq bo'lgan eng zamonaviy texnikalardan ustun keldi. Tadqiqotchilar o'z tadqiqotlarida an'anaviy ravishda statik xususiyatlarni tanlash usullaridan foydalanganlar. Foydali bo'lishiga qaramay, bu usullar ba'zi muhim cheklovlarga ega, ayniqsa ular spontan nutq bilan shug'ullanishga tegishli. Bu, asosan, har bir insonning yuz xususiyatlari biroz boshqacha hissiy ifodalarga olib kelishi bilan bog'liq. Ushbu muammoni hal qilish uchun tadqiqotchilar Mazher Iqbal va boshqalar ikki turdagi geometrik xususiyatga asoslangan yuz xususiyatlariga asoslangan dinamik atributlarni tanlash yondashuvini taqdim etishdi.

Tashqi ko'rinishga asoslangan xususiyatlar yordamida hissiyotlarni aniqlash borasida Y. Yaddanden o'zining "An efficient facial expression recognition system with appearance-based fused descriptors" nomli tadqiqot ishida ikkita alohida tasvir identifikatoridan foydalanishni solishtirib, ya'ni Mahalliy ikkilik naqsh va yo'naltirilgan gradientlar gistogrammasi ikki xil o'lchamlarni kamaytirish texnikasi, xususan, asosiy komponentlar tahlili va mahalliy chiziqli joylashtirishni ishlab chiqadi. Bundan tashqari, tizim samaradorligini oshirish uchun ikkala deskriptorni ham birlashtiradi. Tizimning



tasniflash qismi uchun oltita asosiy his-tuyg'ularni farqlash uchun uning umumlashtirish imkoniyatlari uchun ko'p sinfli Support vektor mashinasi tasniflagichidan foydalanadi.

Tadqiqotchilar M. Kas, Y. Ruichek, R. Messoussilar tomonida taklif etilgan xususiyatlarni ajratish usulida yuz tasviridagi 49 ta aniqlangan belgilarning tekstura va shakl xususiyatlarini birlashtirishga asoslangan yondoshuvni taklif etishga. Shuningdek shakl haqidagi ma'lumotlar aniqlangan 49 belgining joylashuvini interpolatsiya qilish orqali hosil qilingan ikkilik patchda qo'llaniladigan yo'naltirilgan gradientlar gistogrammasi (HOG) yordamida chiqariladi. Teksturaviy ma'lumotlar 49 ta kichik rasmdan hisoblab chiqiladi, ularning har biri bitta diqqatga sazovor nuqtada joylashgan bo'lib, bu erda taklif qiladigan yangi qo'lda ishlangan identifikatordan foydalangan holda ortogonal va parallel yo'nalishlarga asoslangan umumiy to'rtlik xarita ikkilik naqshlari deb nomlashgan.

Metodologiya. Ushbu maqolada biz geometrik xususiyatlar va tashqi ko'rinishga asoslangan xususiyatlarni ajratish usulini ko'rib chiqamiz. Dastlab kiritilgan tasvirdan yuz tasvirini aniqlab olamiz. Avtomatlashtirilgan yuzni tanib olish sub'ektning yuzini kamroq hisoblash resursi sarflangan holda aniqlashi zarur. Ko'zlar, og'iz va burun qismlari yuzlarini aniqlash uchun asosiy mos belgi nuqtasi bo'lib xizmat qildi. So'nggi yillarda yuzni aniqlashning turli usullari ishlan chiqilgan bo'lsa-da, Viola va Jones yuzni aniqlash usuli boshqa yuzni aniqlash usullariga qaraganda real vaqtda yuz hissiyotlarini aniqlash uchun samarali hisoblanadi. Viola va Jones algoritmidagi yuz, ko'z, burun va og'izni aniqlashda Haar-like xususiyatlaridan foydalanilgan. Haar-like xususiyatlar yuzni aniqlashda tasvirning asl piksel qiymatlaridan foydalanish o'rniga chiziqlar, qirralar va markazni o'rab turgan xususiyatlardan foydalangan holda qo'shni to'rtburchaklar guruhlar orasidagi piksel kontrastini (oq va qora) hisoblash uchun ishlatilgan.

$$I_{integral}(x, y) = \sum_{x' \leq x, y' \leq y} I(x', y') \quad (1)$$

(1) formulada integral tasvir (x,y) yuqorida va chapdagi barcha piksel qiymatlarining yig'indisini saqlaydi. Bu doimiy vaqt ichida har qanday

to'rtburchak maydon uchun piksel intensivligi yig'indisini hisoblashga yordam beradi.

Haar-like xususiyatlar (2) ga asoslangan petseptronlar yordamida qaytariladi.

$$f_{w,b}(I) = \begin{cases} 1, & \text{agar } \sum_{x,y} w(x,y)I(x,y) + b > 0 \\ 0 & \text{aks holda} \end{cases} \quad (2)$$

Shunday qilib, bu usul boshqa usullarga qaraganda yuzni aniqlash uchun kamroq hisoblash vaqti va xotira xajmini talab qiladi. Ushbu ishda veb-kameradan tasvir ketma-ketligini olish uchun OpenCV kutubxonasidan foydalaniladi. Viola-Jons algoritmidan foydalanib dasturni quyidagicha tuzish mumkin.

```
import cv2
face_cascade =
cv2.CascadeClassifier(cv2.data.harcascades +
'haarcascade_frontalface_default.xml')
cap = cv2.VideoCapture(0)
cap.set(cv2.CAP_PROP_FRAME_WIDTH,
1280)
cap.set(cv2.CAP_PROP_FRAME_HEIGHT,
1082)

while cap.isOpened():
    success, frame = cap.read()
    gray_image = cv2.cvtColor(frame,
cv2.COLOR_BGR2GRAY)
    if not success:
        print("Kamera mavjud emas.")
        continue
    faces =
face_cascade.detectMultiScale(gray_image,
scaleFactor=1.1, minNeighbors=5, minSize=(30, 30))
    for (x, y, w, h) in faces:
        cv2.rectangle(frame, (x, y), (x + w, y +
h), (255, 0, 0), 2)
        # Natija
        cv2.imshow('Face Detection', frame)
        if cv2.waitKey(5) & 0xFF == 113:
            break
    cap.release()
cv2.destroyAllWindows()
```



Yuzning geometrik xususiyatlarini ajratib olish inson yuzining asosiy nuqtalarini (belgilarini) tahlil qilish, uning tuzilishini aniqlashga asoslangan. Bu belgilar odatda ko'zlar, burun, og'iz va jag' kabi yuz xususiyatlariga mos keladi. Masofalar va burchaklar kabi bu belgilar orasidagi munosabatlar yuzning geometriyasini tasvirlash uchun ishlatiladi. Buning uchun bir qancha usullar ishlab chiqilgan. **Belgilar orasidagi Evklid masofasi** – Ikki yuz belgilari orasidagi masofani Evklid masofa formulasi yordamida hisoblash mumkin. Bu og'izning kengligi, ko'zlar orasidagi masofa yoki burun balandligi kabi xususiyatlarni tavsiflash uchun foydalidir.

$$d = \sqrt{(x_1 - x_2)^2 + (y_1 - y_2)^2} \quad (3)$$

Belgilar orasidagi burchaklar – Uchta belgidan tashkil topgan burchaklar ko'zning egilishi yoki burunning qiyaligi kabi ba'zi geometrik munosabatlarni tasvirlashga yordam beradi. Burchak θ uch nuqta o'rtasida vektor matematikasi yordamida topish mumkin:

$$\theta = \arccos\left(\frac{\vec{AB} \cdot \vec{BC}}{|\vec{AB}| \cdot |\vec{BC}|}\right) \quad (4)$$

Tomonlar nisbati – yuz ifodalari uchun yana bir muhim geometrik xususiyatdir. Bu nisbatlar turli xil yuz xususiyatlarining nisbiy hajmini tavsiflashi mumkin. Ko'zning miltillashini aniqlash uchun ishlatiladigan algoritm.

$$EAR = \frac{|p_2 - p_6| + |p_3 - p_5|}{2 * |p_1 - p_4|} \quad (5)$$

Bu yerda $p_1, p_2, p_3, p_4, p_5, p_6$ atrofidagi diqqatga sazovor joylarni ifodalovchi nuqtalar. Bu nisbat ko'z ochiq va yopiq holatda o'zgaradi va bu ko'zni miltillashni aniqlash uchun foydalidir.

Geometrik xususiyatlarni aniqlashda yana bir qancha algoritmlar ishlab chiqilgan.

Tashqi ko'rinishga asoslangan xususiyatlar.

Yuzning his-tuyg'ularini aniqlash uchun tashqi ko'rinishga asoslangan xususiyatlarni ajratib olish yuz tasvirlaridagi tekstura, rang va intensivlik naqshlaridan olingan vizual ma'lumotlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bu usul geometrik xususiyatlardan farq qiladi, ular aniq yuz belgilariga qaratilgan. Tashqi ko'rinishga asoslangan usullar yuzdagi naqshlar va qirralarni aniqlashga qaratilgan, ko'pincha hissiy

holatlarni farqlash uchun piksellar intensivligidan foydalanadi.

Tashqi ko'rinishga asoslangan xususiyatlarni aniqlashning bir qancha algoritmlari mavjud. **Asosiy komponentlar tahlili** (Principal Component Analysis) bu o'lchamlarni kamaytirishga asoslangan usul bo'lib, bunda asl piksel ma'lumotlarini asosiy komponentlar deb belgilaydi va o'zaro bog'liq bo'lmagan xususiyatlar to'plamiga aylantiradi. Yuz hissiyotlarini aniqlashda turli his-tuyg'ularga taalluqli tashqi ko'rinishga asoslangan eng muhim o'zgarishlarni saqlab qoladi. **Mahalliy ikkilik naqshlar** (Local Binary Patterns) yordamida xususiyatlarni ajratish bu har bir pikselni qo'shnilari bilan taqqoslash va natijani ikkilik naqshda kodlash orqali tasvirdagi lokal belgili teksturaga o'tkazish modeli. Bu usul yuz ifodasini aniqlashda keng qo'llanilgan, chunki u yorug'likning tushush burchagining o'zgarishiga chidamli va hisoblash jihatidan samaralidir. **Gabor filtrlari** – insonning ko'rish korteksi neyronlarining retseptiv maydonlarini sezishi jarayoniga taqlid qilgan holda qurib chiqilgan bo'lib, tasvirlardagi fazoviy chastotalar va yo'nalishlarni olish uchun keng qo'llaniladi. Yuz tasvirlariga qo'llanilganda, ular his-tuyg'ularni aniqlash uchun tegishli bo'lgan tekstura va qirrali ma'lumotlarni olishga yordam beradi. Gabor filtrlarining turli masshtab va yo'nalishdagi chiqishi yuz ifodalarini farqlash uchun xususiyatlar haqidagi ma'lumotlar to'plamini xosil qiladi.

$$g(x, y) = \exp\left(-\frac{x'^2 + y'^2}{2\sigma'^2}\right) \times$$

$$\exp\left(2\pi j \frac{x'}{\lambda} + \psi\right) \quad (6)$$

Bu yerda $x' = x \cos\theta + y \sin\theta$ va $y' = -x \sin\theta + y \cos\theta$

Natijalar. Jiola-Jons algoritmi uchun "haarcascade_frontalface_default.xml" modeli ishlab chiqilgan va OpenCV kutubxonasiga joylashtirilgan. Bu uchun dasturni quyidagicha tuzishimiz mumkin. Viola-Jons algoritmining yana bir qulayligi tasvirdani bir qancha to'liq ko'ringan yuzlarni ham aniqlay oladi. Bu narsa ko'cha kameralaridagi tasvirlarni ham tahlil qilish imkonini beradi.





2-rasm Viola-Jons algoritmidan foydalanib yuz tasvirini ajratish.

Aniqlangan nuqtalar va ularni birlashtirilishidan xosil bo'lgan uchburchaklar yuzalari Geron formulasi yordamida hisoblanadi aniqlangan qiymatlarni o'zgarishi asosida hissiyotlar klassifikatsiya qilinadi.



3-rasm. Yuzning muhim nuqtalarini belgilash.

Tasvirni Gabor filteri yordamida xususiyatlarni ajratishda tasvir piksellarini massiv shakliga o'tkazamiz va Gabor filteri ishlab chiqqan massiv asosida filterlaymiz. Gabor filteri (6) formula yordamida hisoblanadi. Ishni osonlashtirish uchun (6)


formula uchun alohida python funksiyasini yozmaymiz OpenCV kutubxonasidagi getGaborKernel() funksiyasidan foydalanamiz. σ , θ , va f parametrlarini o'zgartirish orqali turli yo'nalishlar, chastotalar va fazoviy kengliklarga ega Gabor filtrlarini yaratishimiz mumkin.

```
import numpy as np
import cv2
import matplotlib.pyplot as plt
```

```
ksize = 10
sigma = 5
theta = 1*np.pi/2
lamda = 1*np.pi/4
gamma=0.9
phi = 0.8
kernel = cv2.getGaborKernel((ksize, ksize), sigma,
theta, lamda, gamma, phi, ktype=cv2.CV_32F)
plt.imshow(kernel)
img = cv2.imread('my.png')
plt.imshow(img, cmap='gray')

img = cv2.cvtColor(img, cv2.COLOR_BGR2GRAY)
fimg = cv2.filter2D(img, cv2.CV_8UC3, kernel)
kernel_resized = cv2.resize(kernel, (400, 400))
plt.imshow(kernel_resized)
plt.imshow(fimg, cmap='gray')
```

```
cv2.imshow('Kernel', kernel_resized)
cv2.imshow('Filtered', fimg)
cv2.waitKey()
cv2.destroyAllWindows()
```



4-rasm. Gabor filteri



Xulosa. Biz ushbu maqolada yuz tasviridan hissiyotlarni aniqlashda umuman yuz tasvirini tahlil qilishning asosiy bosqichi bo'lgan xususiyatlarni ajratib olishning ikki hil metodini va bu metodlar uchun turli hil algoritmlarni ko'rib chiqdik. Ikkala metodologiya ham o'ziga xos afzalliklarni taqdim etadi va yuzning his-tuyg'ularini aniqlashning alohida jihatlariga e'tibor beradi.

Geometrik xususiyatlar ko'zlar, burun, og'iz va qoshlar kabi asosiy yuz belgilarining shakli va fazoviy konfiguratsiyasiga qaratilgan. Bu xususiyatlar, ayniqsa, yuz mushaklari harakatidan kelib chiqadigan mimikadagi nozik o'zgarishlarni aniqlashda samaralidir. Masofalarni, burchaklarni va joy belgilarining pozitsiyasini o'zgartirishni tahlil qilish orqali geometrik usullar hissiyotlarning ishochli talqin qilinishi mumkin.

Boshqa tomondan, tashqi ko'rinishga asoslangan xususiyatlar, masalan, tekstura deskriptorlari (masalan, Gabor filtrlari, Mahalliy ikkilik naqshlar) yordamida olingan xususiyatlar yuz mintaqalaridan intensivlik, tekstura va tasvir chegaralari haqidagi ma'lumotlarini oladi. Bu xususiyatlar teri, yuz qismlari va mushaklar harakatlarining nozik o'zgarishlarni tahlil qilish imokiyatiga ega, bu ularni nozik hissiy holatlarni aniqlash uchun samarali hisoblanadi. Tashqi ko'rinishga asoslangan usullar, odatda, yorug'lik, poza va yuz okklyuziyasidagi o'zgarishlarga nisbatan mustahkamroqdir, chunki ular butun yuz yoki muayyan hududlardagi piksel intensivligi qiymatlarini tahlil qila oladi. Biroq, ular ko'pincha yuqori o'lchamli xususiyatlar bo'shliqlarini keltirib chiqaradi, bu esa o'lchovni kamaytirish usullari va murakkabroq tasniflash algoritmlari zarur bo'ladi.

Geometrik va tashqi ko'rinishga asoslangan xususiyatlarni aniqlashning gibrid yondashuv ham ishlab chiqilgan bo'lib, chuqur o'rganish algoritmlari yordamida takomillashtiriladi bu jarayon yuz hissiyotlarini aniqlash tizimlarining aniqligi va mustahkamligini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Murugappan, M., and A. Mutawa. "Facial geometric feature extraction based emotional

expression classification using machine learning algorithms." *Plos one* 16.2 (2021): e0247131.

2. F. Zhang, T. Zhang, Q. Mao and C. Xu, "Geometry Guided Pose-Invariant Facial Expression Recognition," in *IEEE Transactions on Image Processing*, vol. 29, pp. 4445-4460, 2020, doi: 10.1109/TIP.2020.2972114.

3. Muruganandam, S. et al. "A Survey: Comparative study of security methods and trust manage solutions in MANET." 2019 Fifth International Conference on Science Technology Engineering and Mathematics (ICONSTEM) 1 (2019): 125-131.

4. Iqbal, JL Mazher, et al. "Facial emotion recognition using geometrical features based deep learning techniques." *INTERNATIONAL JOURNAL OF COMPUTERS COMMUNICATIONS & CONTROL* 18.4 (2023).

5. Yaddaden, Yacine. "An efficient facial expression recognition system with appearance-based fused descriptors." *Intelligent Systems with Applications* 17 (2023): 200166.

6. Kas, Mohamed, Y. Ruichek, and Rochdi Messoussi. "New framework for person-independent facial expression recognition combining textural and shape analysis through new feature extraction approach." *Information Sciences* 549 (2021): 200-220.

7. Bartneck, Christoph. "Affective expressions of machines." *CHI'01 extended abstracts on Human factors in computing systems*. 2001.

8. Viola, P. and M. Jones. Rapid Object Detection Using A Boosted Cascade Of Simple Features. in *Computer Vision and Pattern Recognition*, 2001. CVPR 2001. Proceedings of the 2001 IEEE Computer Society Conference on. 2001. IEEE.

9. Wang, Liwei, Yan Zhang, and Jufu Feng. "On the Euclidean distance of images." *IEEE transactions on pattern analysis and machine intelligence* 27.8 (2005): 1334-1339.

10. Juhong, Aniwat, and Chuchart Pintavirooj. "Face recognition based on facial landmark detection." *2017 10th Biomedical*



*Engineering International Conference
(BMEiCON). IEEE, 2017.*

11. Luo, Shi, Xiongfei Li, and Xiaoli Zhang. "Wide aspect ratio matching for robust face detection." *Multimedia tools and applications* 82.7 (2023): 10535-10552.

12. Kurbanov Abduraxmon Alishboyevich. "Inson tanasi harakatlarini tahlil qilishda zamonaviy modellar va algoritmlarni qo'llashni o'rganish" *Al-Farg'oniy avlodlari*, no. 2, 2024, pp. 169-175. doi:10.5281/zenodo.114766561

13. Kurbanov A. Developing the learning experience: how affective computing systems revolutionize modern education // *Universum: технические науки: электрон. научн. журн.* 2024. 4(121). URL: <https://7universum.com/ru/tech/archive/item/17266>

14. Kurbanov, Abduraxmon. "Chuqur o'rganishga asoslangan yuz tahlili: xususiyatlarni ajratib olish va his-tuyg'ularni tushunish." *Международный Журнал Теоретических и Прикладных Вопросы Цифровых Технологий* (2024).

15. Kurbanov Abdurahmon Alishboyevich. Methods of evaluating a person's emotional state based on the analysis of textual data. // *Journal of actual problems of modern science, education and training*, pp 32-40. 2023.

16. KURBANOV A.A. Multimodal emotion recognition: a comprehensive survey with deep learning. // *Journal of Research and Innovation*, pp. 43-47. 2023

17. Kurbanov Abdurahmon Alishboyevich. A Methodological Approach to Understanding Emotional States Using Textual Data. // *Journal of Universal Science Research*. 2023

18. Kurbanov Abdurahmon. AI MODELS OF AFFECTIVE COMPUTING. / *International Conference of Contemporary Scientific and Technical Research*. 2023.



BIOMETRIK TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

Radjabov Sobirjon Sattorovich,

Texnika fanlari doktori,
Laboratoriya mudiri, Toshkent irrigatsiya va qishloq
xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti"
Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi Fundamental
va amaliy tadqiqotlar instituti
e-mail: s_radjabov@yahoo.com

Rabbimov Ilyos Mehriddinovich,

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Yetakchi ilmiy xodim,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Iqtisodiy
tadqiqotlar va islohotlar markazi
e-mail: ilyos.rabbimov91@gmail.com

Xusainov Narimon Odilovich,

Texnika fanlari nomzodi,
Kafedra mudiri, "Temurbeklar maktabi"
harbiy akademik liseyi
e-mail: narimon.odilovich@gmail.com

Abdullayeva Barno Mo'yidinjon qizi,

Tayanch doktorant, Namangan davlat universiteti
e-mail: abm@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada o'ziga xos xususiyatlari va qo'llanish doirasining kengligi tufayli jadal rivojlanayotgan biometrik texnologiyalarning so'nggi yutuqlari va kelajak istiqbollari muhokama qilinadi. Yurishni aniqlash, yuz termogrammasi, klaviatura zarbasi dinamikasi, quloq shakli va hidi kabi yangi biometrik texnologiyalarga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu texnologiyalarning har birining o'ziga xos afzalliklari va cheklovlari batafsil tahlil qilinadi. Bundan tashqari, maqolada identifikatsiyalash usullari va algoritmlarining rivojlanishi, ayniqsa chuqur o'qitish va Kolmogorov-Arnold Networks kabi yangi neyron tarmoq arxitekturalarini qo'llash kontekstida ko'rib chiqiladi. Ushbu innovatsion arxitekturaning afzalliklari va muammolari, shuningdek uning biometrik identifikatsiyani takomillashtirish imkoniyatlari muhokama qilinadi.

Maqolada, shuningdek, bir nechta biometrik texnologiyalar (multibiometriya), multimodal va multifaktorli tizimlarning integratsiyasi muhokama qilinadi. Turli xil biometrik ma'lumotlar va autentifikatsiya usullarining kombinatsiyasi identifikatsiyalashning aniqligi, ishonchliligi va xavfsizligini qanday oshirishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: biometrik texnologiyalar, multibiometriya, identifikatsiya, autentifikatsiya.

Kirish. So'nggi yillarda biometrik texnologiyalar jadal rivojlanmoqda, bu ularning qo'llanish sohasi kengayishi bilan izohlanadi. Buning sababi shundaki, insonning biometrik xususiyatlari qulay, noyob, soxtalashtirish deyarli mumkin emas,

unutish, yo'qotish yoki boshqa birovga o'tkazish mumkin emas.

Mordor Intelligence xalqaro konsalting kompaniyasi ma'lumotlariga ko'ra, 2024 yil oxiriga kelib biometrik tizimlar jahon bozori hajmi 51,15



milliard AQSh dollarini tashkil etadi. Prognozga ko'ra, keyingi 5 yil ichida biometrik texnologiyalar bozorining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 15,3% ni tashkil etadi va 2029 yilga kelib bozorning bashorat qilinayotgan hajmi 104,22 milliard AQSh dollariga yetadi.

Ushbu texnologiyalarga bo'lgan ehtiyojning o'sishi bilan identifikatsiyalashning aniqligiga (ba'zi hollarda tezligiga ham) qo'yilgan talablar ham ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, bizning fikrimizcha, biometrik texnologiyalarni rivojlantirishning eng ishtiroqchil yo'nalishlari quyidagilardir:

- yangi biometrik texnologiyalarni qo'llash;
- identifikatsiyalash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish;
- bir nechta biometrik texnologiyalarni integratsiyalash (multibiometriya).

1. Yangi biometrik texnologiyalarni qo'llash.

Bir necha o'n yillar davomida biometrik texnologiyalarning imkoniyatlari cheklangan edi va ularning eng mashhur va keng qo'llaniladigan barmoq izlariga asoslangan texnologiya edi. Biroq, so'nggi o'n yillikda hisoblash va sensor texnologiyalari sohasidagi taraqqiyot tufayli, yurish (1-rasm), imo-ishoralalar, quloq shakli, hid va boshqa biometrik parametrlarning qo'llanilishi sezilarli darajada kengaydi.


Bunday kengayishning bir misoli identifikatsiyalash uchun yurishdan foydalanishdir [1]. Videoyozuvlarda yorug'likning yetarli emasligi, bosh kiyimlar, niqoblar, bo'yanish va boshqa omillar tufayli odamning yuzi ko'pincha yashirin yoki ko'rish qiyin bo'lishi mumkin. Bunday hollarda yurish orqali identifikatsiyalash mumkin, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu noyob parametr bo'lib, soxtalashtirish qiyin va ishonchliligi bo'yicha barmoq izlari yoki ko'z qorachig'ini skanerlash bilan solishtirish mumkin. Bu an'anaviy biometrik parametrlardan farqli o'laroq, yurishni uzoq masofadan va bevosita aloqasiz kuzatish mumkin. Biroq, baland poshnalar, noqulay poyabzal, og'ir narsalarni ko'tarish, tana qismlarini yashiradigan yoki harakatlarni cheklovchi kiyim va yurish tezligi kabi ko'plab omillar yurishning vizual ko'rinishini o'zgartirishi mumkin. Shuningdek, rakurs, yoritish va kamera parametrlari identifikatsiyalash aniqligiga

ta'sir qilishi mumkin. Shunday qilib, yurish bo'yicha identifikatsiyalash vazifasi unikal va murakkab bo'lib qolmoqda, zamonaviy kompyuter ko'rish usullaridagi yutuqlarga qaramay, bu usulning sifati va ishonchliligi hali yuz tanishga qaraganda pastroq.



1-rasm. Shaxsni yurishi orqali identifikatsiyalash

Biometrika sohasidagi so'nggi yutuqlardan biri termogrammalarni tuzish va tahlil qilish texnologiyasidir [2]. Olimlar infraqizil kameralar yordamida yuz terisi ostida joylashgan obyektlarning unikal tasvirini olish mumkinligini aniqladilar. Suyaklar, yog' to'qimalari va qon tomirlarining turli zichligi qat'iy individual bo'lib, foydalanuvchi yuzining termografik rasmini shakllantiradi. Yuz termogrammasi (2-rasm) noyobdir, bu hatto bir xil egizaklarni ham ishonchli farqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuvning qo'shimcha afzalliklari uning har qanday kosmetik o'zgarishlarga, shu jumladan plastik jarrohlik va bo'yanishga chidamliligi va ro'yxatga olish jarayonining maxfiyligidir.




2-rasm. Shaxsni yuz termogrammasi orqali identifikatsiyalash

Klaviatura zarbasi dinamikasi yoki klaviatura dastxati foydalanuvchining ma'lum iboralarni yozish



usulini tahlil qiladi [3]. Klaviatura dastxatini aniqlashning ikki turi mavjud. Birinchisi, hisoblash resurslariga kirishda foydalanuvchini autentifikatsiya qilish uchun qo'llaniladi. Ikkinchisi esa, kirish huquqi berilgandan so'ng foydalanuvchi faolligini nazorat qilish uchun ishlatiladi va agar kompyuterda boshqa shaxs ishlayotgani aniqlansa, tizimni bloklaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, klaviaturada ishlash ritmi foydalanuvchining individual xususiyati bo'lib, uni identifikatsiyalash va autentifikatsiya qilish uchun yaroqli hisoblanadi. Ritmi o'lchash uchun tugmacha zarbalari orasidagi vaqt oralig'i va tugmachalarni bosib turish vaqti baholanadi. Ikkinchi usul samaraliroq hisoblanishiga qaramasdan, eng yaxshi natijalar har ikkala usulni birgalikda qo'llash orqali erishiladi. Bu usulning o'ziga xos xususiyati uning arzonligidir, chunki klaviaturadan tashqari qo'shimcha jihozlar talab qilinmaydi. Biroq, ushbu texnologiya hali ishlab chiqilish bosqichida bo'lib, uning ishonchligini baholash qiyin, ayniqsa xavfsizlik tizimlariga qo'yiladigan yuqori talablarni hisobga olganda.

Quloq shaklini tahlil qilish biometrik identifikatsiyada (3-rasm) eng yangi yondashuvlardan biridir [3]. Hatto arzon veb-kamera ham taqqoslash va identifikatsiya uchun ishonchli namunalar taqdim etishi mumkin. Biroq soch va taqinchoqlar tizim samaradorligini pasaytirishi mumkin, bundan tashqari tashqi yoritish va yuzning kameraga nisbatan joylashuvi ham natijalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu qiyinchiliklarga qaramay, mazkur texnologiya biometrik identifikatsiyalashning qimmatli vositasi hisoblanadi. Masalan, Gollandiyalik kriminologlar undan kuzatuv videosiga olingan talonchilikda gumonlanuvchilarni aniqlash uchun foydalananganlar.



3-rasm. Shaxsni quloq shaklini tahlili asosida identifikatsiyalash

Bundan tashqari, hidni aniqlash jarayonidan foydalanadigan "Elektron burun" tizimlari ishlab chiqilmoqda [3]. Tana hidiga genetik ta'sir bu xususiyatni biometrik autentifikatsiyalash uchun istiqbolli qiladi. Ushbu texnologiya, xuddi yurish va quloq shakli tahlili kabi, shaxsni identifikatsiyalashning zamonaviy biometrik texnologiyalariga qo'yiladigan talablarga javob bera olishi uchun sezilarli rivojlanishni talab qiladi.

2. Identifikatsiyalash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish.

So'nggi yillarda shaxsni biometrik identifikatsiyalash masalalarini hal qilishda neyron tarmoqlarini o'qitishga asoslangan chuqur o'qitish usullari eng samarali natijalarni ko'rsatmoqda. Neyron tarmoqlar yordamida ajratib olinadigan belgilar ko'pincha yuqori darajadagi abstraktsiyaga ega bo'lib, sifatli tanib olish uchun muhimdir. Bu esa video va tasvirlarni tasniflash, tasvirlarni segmentatsiya qilish, obyektlarni aniqlash, vizual kuzatish va boshqa vazifalarda yuqori natijalarga erishish imkonini beradi.

Biroq, chuqur o'qitishning yutuqlariga qaramay, yurish uslubini aniqlash kabi ayrim vazifalarda, ma'lum ma'lumotlar to'plamlari uchun sayoz modellar hamon neyron tarmoqlardan ustun kelmoqda. Shu bilan birga, yondashuvlarning hech biri hali maqbul aniqlikka erishmadi.

Yaqinda MIT tadqiqotchilari ko'p qatlamli neyron tarmoqlarga (KQNT) muqobil variant – Kolmogorov-Arnold Networks (KAN) nomli yangi neyron tarmog'i arxitekturasini taqdim etishdi [4]. Ushbu arxitektura aktivatsiyalarni tarmoqning "Qirralari"ga ko'chirishni amalga oshiradi, bu uni an'anaviy neyron tarmoq yondashuvlaridan ajratib turadi.

Ishlab chiquvchilarning ta'kidlashicha, yangi turdagi neyron tarmoqlar bir qator afzalliklarga ega. KAN, KQNTdan farqli o'laroq, eski ma'lumotlarni unutmasdan yangi axborotni ishlash qobiliyatiga ega, bu esa modelni muntazam qayta o'qitish zaruratisiz o'z dolzarbligini saqlab qolish imkonini beradi.

Shuningdek, KAN yuqori aniqlik va interpretatsiya qilish imkoniyati bilan ajralib turadi va



ushbu xususiyatlari bilan u KQNTdan ustunlik qiladi. Bu innovatsion arxitektura nafaqat biroz yaxshiroq, balki murakkab dinamik masalalarni hal qilishda tamomila yangi imkoniyatlarga ega bo'lgan tarmoqlarni yaratishga asos bo'lishi mumkin.

KAN, KQNTga nisbatan neyronlarni mashtablashtirish uchun tezkor imkoniyatlarga ega. Biroq, ayrim muammolar ham mavjud – KATni o'qitish yuqori hisoblash quvvatlarini va/yoki ko'proq vaqt sarflashni talab etadi. Biroq, bu hal qilib bo'lmaydigan to'siq emas, chunki an'anaviy KQNT ham ularni qo'llashning butun davrida optimallashtirish va samaradorlikni oshirish orqali takomillashtirib kelingan.

Shunday qilib, KAT neyron tarmoq texnologiyalarini rivojlantirishda istiqbolli yo'nalish hisoblanadi. Bu yo'nalish sun'iy intellekt sohasidagi, xususan biometrik identifikatsiyalash kabi murakkab vazifalarni hal qilish samaradorligini sezilarli darajada oshirishi mumkin.

3. Bir nechta biometrik texnologiyalarni integratsiyalash (multibiometriya). Multibiometrik identifikatsiya deganda barmoq izlari, yuzni tanib olish, ovoz xususiyatlari va ko'z qorachig'i kabi bir nechta biometrik belgilardan foydalanish tushuniladi (4-rasm). Ushbu yondashuv identifikatsiyalashning aniqligini va ishonchliligini oshirish imkonini beradi, chunki turli biometrik parametrlardan olingan ma'lumotlar turli usullar yordamida, turli darajalarda va turli kontekstlarda birlashtirilishi mumkin.

Masalan, biometrik ma'lumotlar sensorlar darajasida, belgilarni ajratib olish darajasida yoki qaror qabul qilish darajasida birlashtirilishi mumkin. Bu esa ko'p pog'onali xavfsizlikni ta'minlaydi va identifikatsiyalash aniqligini oshiradi.



4-rasm. Multibiometrik identifikatsiyalash

Multibiometrik texnologiyalardan tashqari, multimodal va ko'p faktorli yechimlarni ular bilan bitta sinfga birlashtirish odatiy holdir. Multimodal tizimlarda insonning bir turdagi biometrik xususiyatlari (masalan, barmoq izlari) turli algoritmlar yordamida qayta ishlanadi. Bu tizimning ishonchliligini oshiradi hamda xatolarga va qalbakilashtirish urinishlariga bardoshliligini ta'minlaydi. Turli xil algoritmlar biometrik ma'lumotlarning turli jihatlarini aniqlashi mumkin, ular birgalikda shaxs haqida to'liqroq va aniqroq tasavvur beradi.

Boshqa tomondan, multifaktorli tizimlar biometrik belgilarni PIN-kodlar, parollar, smart-kartalar yoki tokenlar kabi boshqa autentifikatsiya usullari bilan birlashtiradi. Bu xavfsizlik darajasini sezilarli darajada oshiradi, chunki g'arazli shaxslarga kirish huquqini olish uchun bir nechta to'siqlarni yengib o'tish kerak bo'ladi. Multifaktorli tizimlar, shuningdek identifikatsiyalash jarayonini tezlashtirishi va markazlashtirilgan identifikator ma'lumotlar bazasiga murojaat qilmasdan tanib olish imkoniyatini ta'minlashi mumkin, bu maxfiylikni yaxshilash va ma'lumotlar sizib chiqishi xavfini kamaytirish uchun muhimdir.



5-rasm. Shaxsni barmoq izi va kirish kartasi orqali multifaktorli autentifikatsiyalash

Multifaktorli tizimlarni qo'llashning asosiy maqsadlari nafaqat identifikatsiyalash xavfsizligi va ishonchliligini oshirish, balki foydalanuvchi tajribasini yaxshilashni ham o'z ichiga oladi. Masalan, an'anaviy autentifikatsiyalash usullari bilan birgalikda biometrik ma'lumotlardan foydalanish turli xizmatlarga kirishni soddalashtirish, xatolar ehtimolini kamaytirish va



shaxsni tasdiqlash uchun zarur bo'lgan vaqtni qisqartirish imkonini beradi.

Shunday qilib, multibiometrik, multimodal va multifaktorli tizimlar bankdan tortib sog'liqni saqlash va davlat xavfsizligigacha bo'lgan turli sohalarda yanada xavfsiz, ishonchli va qulay identifikatsiyalash jarayonini ta'minlashga qaratilgan ilg'or yechimlardir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, biometrik identifikatsiyalash tekshiruvning aniq, ishonchli va rad etib bo'lmaydigan natijalarini olish uchun beqiyosdir. Yaqin kelajakda parollar va PIN-kodlar o'rnini biometrik ma'lumotlarga asoslangan yangi, yanada ishonchli avtorizatsiya va autentifikatsiya usullari to'liq egallashi kutilmoqda. Bu nafaqat xavfsizlik darajasini oshiradi, balki identifikatsiyalash jarayonining qulayligi va tezligi tufayli foydalanuvchi tajribasini ham yaxshilaydi. Biometrik texnologiyalar allaqachon bank sektori, sog'liqni saqlash, davlat xavfsizligi va axborot texnologiyalari kabi turli sohalarda keng qo'llanilmoqda.

Bundan tashqari, biometrik identifikatsiyalash xavfsizlikning yangi standartlarini ishlab chiqilishiga turtki bo'ladi va axloqiy hamda shaxsiy daxlsizlik masalalariga e'tiborni jalb qiladi. Ushbu sohadagi texnologiyalar va metodologiyalarning doimiy takomillashtirilishi zamonaviy dunyo va kelajak talablariga javob beradigan yanada xavfsiz, ishonchli va qulay identifikatsiya tizimlarini yaratishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, biometrik identifikatsiyalash usullari hayotning turli sohalarida ma'lumotlarni himoyalash va xavfsizlikni ta'minlash yondashuvlarini tubdan o'zgartirishi kutilayotgan istiqbolli rivojlanish yo'nalishi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Йхапате М., Йхапате А.К. Идентификация человека по походке: Система, основанная на походке. – М.: Sciencia Scripts, 2023. – 64 с.
2. Михеев М. Ю., Гудков К. В., Астахова Т. Н., Макарова Е. Ю. Обработка информации в системе идентификации

по термограмме лица // Вестник НГИЭИ. – № 4 (71), 2017. – С. 7-15.

3. Ворона В.А. Биометрическая идентификация личности. – М.: Горячая линия – Телеком, 2022. – 228 с.
4. Liu Z., et al. KAN: Kolmogorov-Arnold Networks. arXiv preprint arXiv (2024): 2404.19756.



TARMOQ OQIMINI MONITORING QILISH DASTURIY TIZIMI

Jo'rayev Ma'ruf To'raqul o'g'li
O'zMU Jizzax filiali, tayanch doktoranti
juraevmaruff@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tarmoq monitoringi orqali ochiq va yopiq portlarni tekshirish, tarmoq trafiginini tahlil qilish va IP-manzillarni nazorat qilish imkoniyati muhokama qilinadi. Portni skanerlash tarmoqdagi tahdidlarni tezda aniqlash imkonini beradi. Bu tarmoq xavfsizligi va monitoringida keng qo'llaniladigan usul. Ochiq va yopiq portlarni aniqlash va tahlil qilish tarmoq administratorlari uchun juda muhimdir. Har bir portni skanerlash usuli o'ziga xos afzalliklarga ega. TCP orqali ochiq va yopiq portlarni aniqlash tarmoqni skanerlashning asosiy usullaridan biridir. TCP (Transmission Control Protocol) - tarmoq protokoli. Tarmoq tahdidlarini aniqlash xavflarni oldini olishning samarali usuli hisoblanadi.

Kalit so'zlar: port scan, tarmoq monitoring, port skanerlash, port, paket.

Kirish. Kompyuter tarmoqlari butun dunyo bo'ylab millionlab kompyuterlar va kompyuter foydalanuvchilarini bog'laydi. Kompyuter tarmog'ini to'g'ri boshqarish kerakligi juda muhimdir. Tarmoqni boshqarish monitoringni talab qiladi. Tarmoq monitoringi - tarmoq ma'murlariga murakkab kompyuter tarmog'ining lahzali holati va uzoq muddatli tendensiyalarini bilish imkonini beruvchi mexanizmlar to'plami hisoblanadi.

Tarmoqni kuzatish va o'lchash zamonaviy murakkab tarmoqda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilgari tarmoq admini faqat bir nechta tarmoq qurilmalarini yoki yuzdan kam kompyuterni kuzatishi mumkin edi. Tarmoq o'tkazish qobiliyati atigi 10 yoki 100 Mbit/s tashkil etardi, lekin endi tarmoq admini nafaqat yuqori tezlikdagi simli tarmoq (10 Gbit / s dan ortiq va ATM (Asynchronous Transfer Mode) tarmog'i), balki simsiz tarmoqlar bilan ham monitoring ishlarini olib borishi kerak. Masalan ular tarmoq tizimining barqarorligi va mavjudligini ta'minlash uchun, tarmoq muammolarini o'z vaqtida tuzatish yoki tarmoq ishlamay qolishining oldini olish, tarmoq xavfsizligi mustahkamligini ta'minlash va tarmoqni rejalashtirish bo'yicha to'g'ri qarorlar qabul qilish uchun yanada murakkab tarmoq trafiginini monitoring qilish va tahlil qilish vositalariga muhtoj.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tarmoq monitoringi tarmoq xavfsizligi va yaxlitligini ta'minlash maqsadida qo'llaniladigan bir nechta

usullarni o'z ichiga oladi. Monitoring bu monitoring apparat, dasturiy ta'minot, viruslar, josuslik dasturlari, va xavfsizlik zaifliklar va tarmoq yaxlitligini buzishi mumkin bo'lgan boshqa jihatlarni oldini olishga qaratilgan jarayondir. Monitoring qilishda ochiq va yopiq portlardan foydalanishda bir nechta samarali usullar mavjud [1].


Portlarni skanerlash usullari:

- *TCP SYN Scan* SYN paketlari yordamida portlarning holatini aniqlovchi eng keng tarqalgan usuldur. "Half-open" skanerlash deb ham ataladi, chunki aloqa to'liq o'rnatilmaydi (ACK paketi yuborilmaydi).
- *TCP Connect Scan* "three-way handshake" ya'ni tekshirish to'liq o'tkaziladi. SYN → SYN/ACK → ACK jarayoni bajarilib, port ochiq bo'lsa, aloqa to'liq amalga oshiriladi. Yopiq port esa RST bilan javob beradi.
- *TCP FIN Scan* skanerlovchi qurilma yoki dastur serverga SYN emas, balki FIN (finish) paketi yuboradi. Ochiq port hech qanday javob bermaydi, yopiq port esa RST qaytaradi.
- *UDP Scan* TCP o'rniga UDP (User Datagram Protocol) skanerlashdan foydalaniladi. UDP skanerlash TCP kabi aniq javob bermaydi, chunki u "connectionless" protokol hisoblanadi. UDP skanerlash TCP skanerlashga qaraganda sekinroq ishlaydi.



- *Window Scan* Window skanerlash TCP SYN yoki ACK paketlariga javobdagi window sizeni tahlil qilish orqali portlarning ochiq yoki yopiq ekanligini aniqlaydi [2].

Portlarni skanerlashda yuqorida berilgan usullardan farqli usullar ham mavjud, 1-rasmda portlarni skanerlashda paket ma'lumotlari tuzilishini ko'rish orqali yanada tushunarli tahlil qilinadi.



1-rasm. Paket ma'lumot tuzilishi


Tadqiqot uchun TCP Connect Scan usulidan foydalanildi, chunki bu usul “three-way handshake” hisoblanib tekshirish to‘liq o‘tkaziladi [3].

Natijalar. Tarmoq monitoringi tarmoq boshqaruvchisi ishining muhim qismi bo‘lgan qiyin va mashaqqatli vazifadir. Tarmoq ma'murlari doimiy ravishda o‘z tarmoqlarining uzluksiz ishlashini ta'minlashga intilishadi. Tarmoq nosozliklari yuzaga kelganda, monitoring dasturlari tarmoqdagi nosozliklarni aniqlashi, ajratishi va tuzatishi va ehtimol nosozlikni tiklashi kerak.

Tarmoq monitoring qilishda 2-rasm misolida ko‘rib chiqiladi. Struktura ko‘rinishi quyidagilardan tashkil topgan:

- Port Tekshirish – tarmoqqa ulangan kompyuterlarni ochiq va yopiq portlarni tekshirish;
- Route – tarmoqqa ulangan mavjud qurilmaning ip adres, maska va tarmoq kartasi ma'lumotlarini taqdim etish;
- Tarmoq – paket ma'lumotlarini olish uchun foydalanilinish;

- Tekshir – paketdan yozib olingan ma'lumotlarni tahlil qilish;
- Speed – tarmoqdan kirib kelayotgan va chiqib ketayotgan ma'lumotlar tezligini aniqlash va internet tezligini aniqlash;
- Tarmoq User – tarmoqda mavjud online va offline qurilmalari haqida ma'lumot berish;
- Port Tinglash – kompyuterda real vaqtda ishlab turgan xizmatlar ro'yxati va ularning holatini taqdim etish;
- Monitoring – tarmoqdagi ma'lumotlar almashinuv jarayoni grafik tasviri, protokollar bo'yicha ma'lumotlar hajmi, ip adreslar bo'yicha ma'lumotlar almashinuv miqdori va tarmoqdan o'tuvchi ma'lumotlar sturukturasini aniqlash;
- Phishing – murojaat qilinuvchi url manzillarning zararli ekanligini aniqlash;
- Functioning Table – axborot xavfsizligi va tahdidlarni aniqlash va bartaraf qilishning imitatsion modellashtirish




2-rasm. Tarmoq monitoring strukturasi

Ochiq va yopiq portni aniqlashda TCP Connect Scan usuli tanlab olindi. Chunki boshqa usullarga qaraganda ancha samarali hisoblanadi. Portlarni umumiy soni $2^{16} - 1$ ya'ni 65535 taga teng. Aslida ularning soni 65536 ta lekin 0 port umumiy foydalanish uchun ishlatilmaydi. Portlar 3 turga bo‘linadi [4].



- 0, ..., 1023 tizim yoki taniqli portlar.
- 1024, ... , 49151 foydalanuvchi yoki ro‘yxatdan o‘tgan portlar.
- 49152, ... , 65535 dinamik, shaxsiy yoki vaqtinchalik portlar.

Yaratilgan dasturda Port Tershish qismi aynan shu portlarni tekshirish uchun xizmat qiladi.



3-rasm. Ochiq va yopiq portni tekshirish modeli

3-rasmda berilgan ip manzilning ochiq va yopiq portlari tekshiriladi. Bunda tekshirish uchun IP ip manzili, P portlar to‘plami p_i port raqami,

$$P = \{p_0, p_1, \dots, p_n\}$$

portlar intervali $0 \leq n \leq 65535$ oraliqda hamma portlar tekshirib chiqiladi.


$$S(IP, p_i) \rightarrow true \text{ yoki } false$$

S port skanerlash funksiyasi;

$portCnt = 0$ tekshirilgan portlar soni aniqlash uchun foydalaniladi.

$Port$ aniqlangan ochiq port raqamini chiqarish uchun foydalaniladi.

$Status$ aniqlangan ochiq portga status beriladi.



4-rasm. ScanPort metodi

ScanPort metodi tekshirish uchun berilgan ip manzilini $port$ larni tekshirish, ochiq va yopiq port hisobini yuritadi [5]. Tekshirish qayta amalga oshirilganda esa jayaron boshidan boshlanadi.

$$O = \{p_i \in P \mid S(IP, p_i) = true\}$$

O ochiq portlar to‘plami.


$$Y = \{p_i \in P \mid S(IP, p_i) = false\}$$

Y yopiq portlar to‘plami.

- $OpenCnt$ ochiq port sonini hisoblaydi. Har safar yangi ochiq port aniqlansa 1 qiymati qo‘shiladi.
- $CloseCnt$ yopiq port sonini hisoblaydi. Har safar yangi yopiq port aniqlansa 1 qiymati qo‘shiladi.

ScanPort metodi asosan ochiq va yopiq port sonini hisoblaydi. Bunda berilgan ip manzilini portga murojaat qiladi va murojaat amalga oshsa ochiq portlar soni bittaga [6] oshadi. Aks holda yopiq portlar soni bittaga oshadi. Natijalar PortScanResultga yuboriladi.





5-rasm. StartScanAsync metodi


StartScanAsync metodi oraliq interval bo‘yicha berilgan ip manzil bo‘yicha $0 \leq n \leq 65535$ oraliqda ketshirish boshlaydi.

$$O = \{p_i \in [P_{start}, P_{end}] \mid S(IP, p) = true\}$$

p_i ochiq port va O to‘plamga tegishli.

$$Y = \{p_i \in [P_{start}, P_{end}] \mid S(IP, p) = false\}$$

p_i ochiq port va Y to‘plamga tegishli.



6-rasm. StopScanTask va PortScanCmd metodi

StopScanTask va PortScanCmd metodi dastur ishga tushirish va to‘xtatish uchun foydalaniladi.

Dasturiy ta‘minotdan olingan natija TCP Connect Scan usuli samarali ekanligini tasdiqladi (7-rasmga qarang). Tekshirilgan portlarning umumiy soni 8182 ta shundan ochiq portlar 4 ta va yopiq portlar 8177 tani tashkil etdi. Topilgan ochiq portlar raqami ham keltirildi.

1. 135 port windows muhitida mijozlar va serverlar o‘rtasida masofaviy aloqani ta‘minlaydi
2. 139 port ikki qurilma o‘rtasida tarmoqdagi fayllar va printerlarni almashishda NetBIOS orqali SMB seans xizmatiga ruxsat beradi.
3. 445 port server xabar bloki (SMB) protokoliga bag‘ishlangan bo‘lib, u TCP yordamida tarmoq Ichida fayllar va printerlar kabi resurslarni almashish imkoniyatini taqdim etadi.
4. 5040 port Microsoft HTTPAPI xizmatiga tegishlidir.

Port Tekshirish		Port	Status
IP va Port Sozlamasi		135	open
IP Address: 192.168.137.4		139	open
Start Port: 1		445	open
End Port: 65535		5040	open
Socket Timeout(ms): 1000			
Boshlash			
Statistika			
Tekshirilgan	8182		
Ochiq	4		
Yopiq	8177		

7-rasm. Dasturiy ta‘minotdan olingan natija

Xulosa. Tarmoq monitoringi va portlarni skanerlash texnikalari batafsil ko‘rib chiqildi. Tarmoq xavfsizligini ta‘minlash va mavjud xavflarni aniqlashda monitoring jarayoni muhim o‘rin tutadi. TCP Connect Scan kabi port skanerlash usullari tahlilidan ochiq va yopiq portlarni aniqlash, tarmoq boshqaruvchilari uchun asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bu usullar tarmoqdagi zaifliklarni aniqlash, tahdidlarni tezkor aniqlash va ularni bartaraf etishga imkon beradi. Tadqiqot natijalari TCP Connect Scan usulining samarali ekanligini taqdim qildi, chunki u tarmoqning portlarini to‘liq tekshirish va ochiq portlarni aniqlashda ishonchli natijalar beradi. Kelgusida tarmoq monitoringi va portlarni skanerlash bo‘yicha yanada rivojlangan usullardan foydalanish, tarmoq xavfsizligini yanada mustahkamlashga yordam beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Park, Seongchul & Kim, Juntae. (2017). A Study on Risk Index to Analyze the Impact of Port Scan and to Detect Slow Port Scan in Network Intrusion Detection. *Advanced Science Letters*. 23. 10329-10336. 10.1166/asl.2017.10446.
2. Vivo, Marco & Ke, Le & Isern, Germinal & Vivo, Gabriela. (1999). A review of port scanning techniques. *Computer Communication Review*. 29. 41-48. 10.1145/505733.505737.
3. Mirza, Ali. (2023). Port Scanning: Techniques, Tools and Detection. 10.31224/3053.
4. Bhuyan, Monowar & Bhattacharyya, Dhruva K & Kalita, Jugal. (2011). Surveying Port Scans and Their Detection Methodologies. *The Computer Journal*. 54. 1565-1581. 10.1093/comjnl/bxr035.
5. Majed, Hussein & Noura, Hassan & Salman, Ola & Chehab, Ali & Couturier, Raphaël. (2021). Efficient and Secure Statistical Port Scan Detection Scheme. 10.1007/978-3-030-67550-9_6.
6. S. Balram and M. Wisecy. Detection of tcp syn scanning using packet counts and neural network. In 2008 IEEE International Conference on Signal Image Technology and Internet Based Systems, pages 646–649, 2008.



ELEKTRON POCHTA TIZIMI XAVFSIZLIGI RISKLARINI BAHOLASH USULI


Ganiyev Salim Karimovich,
texnika fanlari doktori, professori,
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU
Axborot xavfsizligi kafedrasida
sharofidinov1990@gmail.com

Xamidov Sherzod Jaloldin o'g'li,
tayanch-doktorant
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU,
sherzod.hamidov@tuit.uz

Annotatsiya. Elektron pochta aloqaning muhim usullaridan biri bo'lib qolmoqda. Elektron pochta xavfsizligi bilan bog'liq muammolar soni va ko'lami keskin oshib bormoqda. Tashkilot va korxonalar uchun elektron pochta tizimining xavfsizligini ta'minlash hozirgi kunda juda muhim. Elektron pochta xavfsizligi risklarini baholash tizimni himoya qilishda eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi, bu o'z navbatida xavflarni aniqlash, yuzaga kelish ehtimolini va ta'sirini baholash hamda zaruriy choralarni amalga oshirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: nomaqbul xabarlar, spam, fishing, zararli qo'yilmalar, korporativ elektron pochta obro'sizlantirish, risk.

KIRISH. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi va tatbiq etilishi, odamlar uchun ulkan imkoniyatlarni taqdim etdi, shu bilan birga ular axborot xavfsizligi nuqtai nazaridan ham katta xavflarni yuzaga keltirmoqda. Bugungi kunda xabar almashish platformalari va ilovalarining yaratilishi hamda rivojlanishiga qaramay, elektron pochta tizimi aloqa infratuzilmasi uchun ma'lumotni uzatish va konfidensial axborotni almashishning muhim vositalaridan biri bo'lib qolmoqda. Internet servislari ko'lamini ortishi bilan birgalikda, dunyo bo'ylab elektron pochta foydalanuvchilarining soni oshib bormoqda [1] (1.1-rasm).



1.1 – rasm. Butun dunyo bo'ylab elektron pochta foydalanuvchilari soni (2017-2026 yillar)

Biroq, uning keng tarqalganligi bilan bir qatorda, xavfsizlik tahdidlari yanada keskinlashib tobora murakkablashib bormoqda va undan foydalanish tashkilotlar uchun eng katta risklardan biri bo'lib qolmoqda.

Elektron pochta bugungi kunda faqat muloqot qilish uchun emas, balki onlayn servislarda ro'yxatdan o'tish va turli tizimlardan foydalanish huquqini olish uchun qo'llanilmoqda.

Xavfsizlik tizimidagi kamchiliklar sabab elektron pochta kiberxujumlarni amalga oshirishda suqilib kirish nuqtasi va kiberjinoyatchilarning keyingi nishoniga aylanmoqda.

ELEKTRON POCHTA XAVFSIZLIGI RISKLARI. Kiberjinoyatchilar elektron pochtdan ma'lumotlarni o'g'irlash va soxtalashtirish, firibgarlik xabarlarini va zararli dasturlarni tarqatishning samarali usuli sifatida foydalanmoqdalar. Elektron pochta xavfsizligi bugungi kunda har qachongidan ham muhim bo'lib bormoqda. Keng tarqalgan kiberhujumlarni amalga oshirishda elektron pochta asosiy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Quyida so'ngi




yillardagi statistik ma'lumotlarga asoslanib, elektron pochta xavfsizligidagi asosiy risklar tahlil qilinadi.

Nomaqbul xabarlar - foydalanuvchilarning ma'lum soniga ularning roziligisiz tijoriy, firibgarlik yoki zararli mazmunda jo'natiladigan elektron pochta xatlari. Elektron pochta spam xabarlari zamonaviy axborot kommunikatsiya infrastrukturasi eng dolzarb muammolardan biri. Nomaqbul xabarlar tarmoqning o'tkazish qobiliyatini sarflab foydalanuvchilarning pochta qutilarida joy egallaydi va haqiqiy elektron xatlarning kirib kelishiga to'sqinlik qiladi, shu bilan birgalikda butun tarmoq tizimi resurslarining haddan tashqari yuklanishiga olib keladi, bu esa elektron pochta xizmatlari va aloqa kanallarining uzluksiz ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Spam xabarlar elektron pochta tizimiga ta'sir etuvchi quyidagi risklarni yuzaga keltiradi:


- ishchi stansiyalarni zararkunanda dasturlar yordamida zararlanishi (viruslar, qurtlar va troyan dasturlar);
- kiruvchi ko'p sonli nomaqbul xabarlar oqibatida tarmoqning o'tkazish qobiliyatining yuklanishi;
- ma'lumotlar va hisoblash resurslari saqlanuvchi makondan noto'g'ri foydalanish;
- moliyaviy firibgarliklar (fishing va u bilan bog'liq boshqa xujumlar natijasida moliyaviy yo'qotishlar) [2].

Dunyo pochta trafigida nomaqbul elektron xabarlarning o'rtacha ulushi 1.2-rasmda keltirilgan.



1.2-rasm. Dunyo pochta trafigida nomaqbul elektron xabarlarning o'rtacha ulushi (2011-2023 yillar)

Butun dunyona elektron pochta tizimlari xavfsizligidagi asosiy muommolardan biri hisoblanib, zararli dasturlar tarqalishining asosiy yo'nalishi biri bo'lib qolmoqda. Spam-xabarlar har xil turlari mavjud, ular foydalanuvchi qurilmalarini zararlash va ishdan chiqarishga qaratiladi. Ushbu turdagi xabarlardan ko'plab hujumlarni amalga oshirishda foydalaniladi. Ular orasida, fishing xujumi niyati buzuqlar tomonidan qo'llaniladigan xavfli usul bo'lib, barcha xujumlarning uchdan ikki qismini tashkil qilmoqda. Keng tarqalgan nomaqbul xabarlar turlari bo'yicha statistikasi 1.3-rasmda keltirilgan.



1.3 – rasm. Nomaqbul xabarlar turlari bo'yicha statistikasi

Fishing xabarlar


Ijtimoiy muhandislik usullaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan xujumlarning eng keng tarqalgan shakllaridan biri bo'lib, kiberxavfsizlik sohasidagi ko'plab insidentlar fishing xabarlaridan boshlanadi. Fishing xujumidan asosiy maqsad foydalanuvchining muhim (tizim qayd yozuvlari va shaxsiy parollar, moliyaviy hisob raqamlar) ma'lumotlarini yig'adigan soxta va zararli veb-sahifaga yo'naltirish, kiritilgan ma'lumotlarni niyati buzuq tomonidan belgilangan manzilga yuborishdan iborat. Elektron pochta fishing xujumning ko'plab turlari mavjud, ular quyidagi qadamlar orqali amalga oshiriladi:

- tarkibida havola yoki yuklab oluvchi bo'lgan firibgarlik elektron xati yaratiladi;
- tegishli vosita yordamida jabrlanuvchiga xat jo'natiladi;



- havola foydalanuvchini firibgarlik veb-sahifasiga yoki zaruriy dasturni yuklashga yo‘naltiradi;
- veb-sahifa foydalanuvchidan maxfiy va qayd yozuvi ma‘lumotlarini kiritishni yoki dasturni yuklab o‘rnatishni so‘raydi. Ushbu ma‘lumotlar niyati buzuq tomonidan yig‘iladi va shu bilan keyingi xujumlarda foydalaniladi [3].

Fishing xabarlarining turlari bo‘yicha statistikasi 1.4-rasmda keltirilgan.




1.4 – rasm. Fishing xabarlarni turlari bo‘yicha statistikasi

Zararli qo‘yilmalar

Bugungi kunda elektron pochta zararli qo‘yilmalari zararkunanda dasturlarni tarqatishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bo‘lib foydalanuvchi kompyuteriga hujum qilish uchun mo‘ljallangan. Ushbu elektron xatlar, tarkibidagi zararli qo‘yilmalar, xujjatlar elektron fayllar tusida niqoblangan bo‘lishi mumkin. Deyarli har qanday turdagi fayl elektron pochtaga biriktirilishi mumkin, shuning uchun kiberjinoatchilar ma‘lumotlarni yo‘qotish yoki o‘g‘irlash imkoniga ega zararli dasturlarni o‘rnata oluvchi fayllarni ushbu elektron xatlarga biriktiradilar.

Elektron pochta tarkibida ko‘rish yoki chop etish uchun yuklab olishni taklif qiluvchi fayl mavjud bo‘ladi. Foydalanuvchi faylni ochganida biriktirilgan skriptlar, makroslar yoki tizim zaifliklari avtomatik ravishda ishga tushadi hamda kompyuterga troyan yoki viruslarni masofadan yuklab oladi va ishga tushiradi. Zararkunanda dasturlar turli xil va murakkab ko‘rinishda bo‘lib, ular ma‘lumotlarga zarar yetkazishi

(o‘chirib yuborishi, shifrlashi), masofadan ulanishga ruxsat berishi, ishchi stansiyaning to‘liq yoki qisman ishdan chiqarishi hamda blokirovkalashi mumkin [4]. Zararli qo‘yilmalarning keng tarqalgan turlari 1.5-rasmda ko‘rsatilgan.



1.5 – rasm. Zararli qo‘yilmalarning turlari bo‘yicha statistikasi

Korporativ elektron pochta obro‘sizlantirish (BEC- business email compromise) - maqsadli kiberhujum turi bo‘lib, kiberjinoatchi o‘zini ishonchli shaxs (kompaniyaning vakolatli vakili) sifatida ko‘rsatadi va maxfiy ma‘lumotlarni taqdim etish uchun elektron pochta xabarlarini muayyan shaxslar(kompaniya hodimlari yoki hamkorlari)ga yuboradi. Mazkur turdagi hujum quyidagi qadamlar orqali amalga oshiriladi:

- kompaniyaning faoliyati va boshqaruv strukturasi xususida ma‘lumot to‘plash;
- kompaniyaning vakolatli vakilining elektron pochta qayd yozuvi ma‘lumotlarini olish uchun maqsadli hujum qilish;
- elektron pochta qayd yozuvidan vakolatli hodimlarga ishonchli shaxs nomidan xabar yuborish [5].

RISKLARNI BAHOLASH USULI

Elektron pochta tizimi xavfsizligi bilan bog‘liq risklarni baholash, elektron pochta himoyalash



vositalarida mavjud kamchiliklarni aniqlash va kiberhujumlarni oldini olish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etadi.

Yuqorida keltirilgan risklarni (1.1) formula yordamida baxolash mumkin. Ushbu formula 10 dan 50 gacha oralig'dagi qiymatni beradi. Qolgan beshta parametr va ularning har biri uchun reyting shkalasi 1.4-jadvalda keltirilgan.

$$R_i = MA_i * 1 + FQ_i * 2 + CH_i * 3 + T_i * 4 \quad (i = 1, 2, \dots, n) \quad (1.1)$$

bu yerda:

R_i - riskning umumiy reytingi;

MA_i - aniqlash murakkabligi;

FQ_i - foydalanishda qulayligi;

CH_i - chastotasi;

T_i - tizim xavfsizligiga ta'siri;

Aniqlash murakkabligi: tarmoq ma'muri tomonidan hujumni aniqlashdagi taxminiy qiyinchiliklarni belgilaydi. (1 = aniqlash deyarli ahamiyatsiz; 5 = aniqlash deyarli mumkin emas).

Foydalanish qulayligi: hujumni amalga oshirish qanchalik qiyinligini belgilaydi. (1 = yuqori malaka va ko'nikmalar; 5 = skript yozish qobiliyati);

Chastotasi: hujum tarmoqning himoyalangan qismida qanchalik tez-tez sodir bo'lishini belgilaydi. (1 = hujum deyarli uchramaydi; 5 = yirik korxonalar tarmoqlari har kuni hujumga duchor keladi).

Ta'sir: muvaffaqiyatli hujum natijasida yetkazilgan zararni belgilaydi. (1 = deyarli hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi; 5 = har qanday holatda tizim sozlamalarini o'zgartirgan ma'qul) [6].

1.3 – jadval.

Risklarni baholash jadvali

Risk	Aniqlash murakkabligi	Foydalanishda qulayligi	Chastotasi	Tizim xavfsizligiga ta'siri	Riskning umumiy reytingi
Nomaqbul-xabarlar	4	4	5	4	43
Fishing	5	3	5	4	42
Zararli qo'yilmalar	5	2	4	5	41
BEC	5	3	4	4	39

XULOSA. Elektron pochta tizimi risklari tashkilot va korxonalarda axborot xavfsizligini

ta'minlashda asosiy muammolarni yuzaga keltiradi hamda axborot tizimiga qaratilgan hujumlarni amalga oshirish uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi. Yuqorida elektron pohta tizimi xavfsizligi risklari tahlil qilindi va baholash amalga oshirildi. Baholash natijalari yuzaga keladigan tahdid va hujumlarni oldindan aniqlash himoya mexanizmlarini qurishga va yaxshilashga, hamda ularga qarshi choralar ishlab chiqishga imkon beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- Email Statistics Report, 2021-2025. The Radicati Group, Reproduction Prohibited.
- Хамидов Ш.Ж. Применение искусственного интеллекта для фильтрации спам-сообщений в электронной почте. Электронный сборник научных статей по материалам XII Международной научно-технической конференции «Энергетика, инфокоммуникационные технологии и высшее образование», Алматы-Казань, 20-21 октября 2022. - 611-620 с.
- Ганиев С. К., Хамидов Ш. Ж. Безопасность систем электронной почты: проблемы и решения. Электронный сборник научных статей по материалам XXI Международной научно-методической конференции «Информатика: проблемы, методы, технологии», Воронеж, 11-12 февраля 2021. - 690-699 с.
- Muralidharan T., Nissim N. Improving malicious email detection through novel designated deep-learning architectures utilizing entire email. Neural Networks Vol. 157, January 2023, pp. 257-279.
- Papathanasiou, A., Lontos, G., Liagkou, V., Glavas, E. Business Email Compromise (BEC) Attacks: Threats, Vulnerabilities and Countermeasures. A Perspective on the Greek Landscape. J. Cybersecur. Priv., Vol. 3, Iss. 3. September 2023, 3, pp 610–637.
- Raja S.H., Afrooz F. New method for assessing risks of email. International Conference on Graphic and Image Processing (ICGIP 2012), Proceedings of the SPIE. Vol. 8768, pp 6.



МЕТОДЫ И АЛГОРИТМЫ ХРАНЕНИЯ ФАЙЛОВ ДЛЯ ОПТИМАЛЬНОГО УПРАВЛЕНИЯ РАЗЛИЧНЫМИ ТИПАМИ ДАННЫХ

Кенжаев Санжар Собирович,
Докторант Самаркандского
государственного университета,
s.kenjayev22@gmail.com

Рашидов Акбар Эргаш угли,
Доктор философии технических наук (PhD),
Самаркандский государственный университет
Заведующий кафедрой искусственного
интеллекта и информационных систем
researcher.are@gmail.com

Аннотация: Важно выбрать подходящие методы работы для типа данных. Успешное применение алгоритмов управления базами данных на основе задач, почти полностью зависит от доступности данных. И чем больше объем этих данных, тем лучше результаты работы алгоритмов. Существующие подходы в управлении данными работающие на уровне блочных, файловых и объектных указывает что имеется много нерешённых задач по работе над разнородными данными. Данная статья посвящена решению этой проблемы. Предложен метод оптимизации работы с различными типами данных на уровнях сбора, хранения, обработки и передачи данных.

Ключевые слова: блочные хранилища, файловые хранилища, SAN, NAS, оптимальное управление файлами

Введение. В современном информационном мире эффективное управление файлами в частности хранение и обработка является одним из важнейших факторов обеспечения качества получаемой информации. В процессе разработки информационных систем, особенно с использованием больших объемов данных, важно выбирать эффективные методы сбора, хранения и обработки данных, обеспечивающие целостность, доступность и безопасность этих данных [1-3]. Хранение файлов в системах управления данными требует тщательного учета таких факторов, как объем данных, шаблоны доступа, требования безопасности и масштабируемости. Используя, выбранные методы хранения и комплексно интегрируя их с системами управления данными, пользователи могут обеспечить оптимальное хранение, управление и доступ к своим файлам. Методами классификации данных можно быстро

определить, где они хранятся, чем эти данные являются и для каких операций используются. В настоящее время одним из основных параметров эффективной организации процесса работы с файловыми данными является правильный выбор типов файлов и структуры данных [4,5]. В результате увеличения объёма генерируемых данных, разнообразия типов файлов и создания различных форматов хранения файлов закономерно возникает проблема временной сложности обработки данных с физической точки зрения [6-9]. Кроме того, существует проблема растущих требований к большим наборам данных и распространения типов файлов, что приводит к неструктурированности многих современных технологий искусственного интеллекта. Во многих случаях, такие проблемы приводят к критической точке временной сложности [10]. При работе с большими объемами данных широко применяется



использование иерархических (HSP) и распределенных технологий для поиска решений большинства проблем неструктурированных данных [4]. Выбор использования различных технологий зависит от цели поставленной задачи, что позволяет добиться оптимального решения проблемных вопросов.

При использовании технологий хранения информации для анализа больших данных необходимо уделять внимание не только алгоритмам анализа, но и всем этапам работы с данными, включая сбор, агрегацию, анализ и визуализацию данных. На каждом этапе возникают своего рода вопросы оптимизации процесса, особенно по мере увеличения степени неоднородности.

Цель исследования - повысить доступность разнообразия, анализ и визуализации данных в системах управления базами данных посредством использования технологий гибридного хранения как часть более широкого процесса, такого как миграция или интеграция данных. Этот процесс включает в себя извлечение данных из таких источников как базы данных, файлы, а также веб-сервисы, их преобразование и загрузку в нужную целевую систему.

Для достижения поставленной цели решаются следующие задачи:

1. Изучены архитектурные особенности и способы хранения информации в файловых системах и облачных хранилищах.
2. Рассматриваются и сравниваются различные методы и технологии управления данными.
3. Вероятностные модели решения задач при работе с неструктурированными данными.

С учетом закономерностей и недостатков, выявленных на основе проанализированных исследований, определены, систематизированы и показаны преимущества гибридных технологий хранения данных в контексте повышения эффективности нереляционных баз данных. [1]

Хранение данных в файловых системах и облачных хранилищах

Существует три способа хранения данных: блочный, файловый и объектный вид. Они организуют и представляют данные по-разному, и каждый из них имеет свои возможности и ограничения. Ниже рассмотрим основные преимущества и недостатки этих методов:

1. Блочное хранилище. За счет хранения данных блочным способом достигается максимальная скорость реагирования на запросы, а также изменения части данных, кроме того, так как не используются специальные приложения, не теряется время на такие задачи, как передача данных из одного формата другому. Это связано с тем, что основной принцип хранения данных в блочной форме заключается в разделении их на блоки предопределённого одинакового размера, доступ к которым и управление ими осуществляется так же, как и на отдельных дисках. Для операционных систем это низкоуровневый тип доступа к дискам, установленным непосредственно на сервере, без использования промежуточного преобразования и смешивания данных.




Рисунок 1. Хранение данных в ячейках в виде блоков.

Адресация блоков:

Линейная адресация: если известен базовый адрес блока и его размер В, адрес i -го блока можно вычислить следующим образом:

$$\text{Адрес } (i) = \text{Базовый адрес} + i \times В$$

Хэш- адресация: Ключ k использует хеш-функцию H для нахождения адреса данного блока:

$$\text{Адрес}(k) = H(k)$$

Оптимизация производительности:



Алгоритмы сортировки внутри блока: например, слияние или быстрая сортировка. Время сортировки блока размера B равно $O(B \log B)$.

Структуры индексов: используются для быстрого доступа к данным внутри блока, таким как B-деревья или хэш-таблицы.

Модели целостности данных:

Контрольная сумма (CRC): используется для проверки целостности данных. CRC для блока данных D может быть рассчитан как $CRC(D)$.

Хеширование: для проверки целостности или быстрого доступа к данным.

Модели сжатия и шифрования:

Сжатие данных: использует алгоритмы сжатия (например, LZ77, LZ78, DEFLATE) для уменьшения размера данных в блоке.

Шифрование: Для защиты данных при помощи алгоритмов шифрования, например, AES (Advanced Encryption Standard).

В управлении данными таким способом файлы можно изменять часто без ущерба для производительности, при этом позволяя изменять только те блоки, которые необходимо изменить, а не весь файл. Блочное хранилище характеризуется высокими значениями IOPS (операций ввода/вывода в секунду). Оно обеспечивает быстрый доступ для чтения, редактирования и других операций. Если объем данных вырастет, можно добавить новые тома и расширить дисковое пространство. Хранение данных в блочной технологии может использоваться одновременно в разных средах (например, Windows и Linux), включая серверные операционные системы. Заблокированные данные можно беспрепятственно перемещать между отдельными серверами, что, в свою очередь, позволит избежать сильной зависимости от конкретной инфраструктуры. Кроме того, дисковое пространство, разделенное на блоки, может одновременно использоваться несколькими разными серверами. При необходимости для дальнейшего повышения производительности отдельные блоки можно сгруппировать и разместить на быстрых SSD-

накопителях для «горячих» данных и медленных HDD для «холодных» данных.

Технология SAN-«Storage Area Network» (Сеть хранения данных) работает как один огромный локальный диск, обеспечивающий доступ к отдельным блокам через протокол Fibre Channel или iSCSI, что является более экономичной альтернативой и может быть построено поверх существующей сетевой альтернативы. Это архитектурное решение, при котором внешние накопители (дисковые массивы, оптические приводы, ленточные библиотеки и т.д.) напрямую подключаются к серверу, где установленная операционная система видит их как локальные ресурсы.

К существующим недостаткам блочной системы хранения относятся, прежде всего, более медленные варианты работы с метаданными, что очень важно во времена увеличенного потока данных. Если возникнет необходимость их добавить или обработать дополнительные данные, то это можно сделать только на уровне приложения или базы данных. Еще одна проблема это управление. По сравнению с другими типами хранилищ, оно может потребовать от пользователей дополнительных навыков и может оказаться более сложным в настройке и управлении.




Рис. 2. Сеть хранения данных SAN.



 \bar{y} &:= \frac{M_{01}}{M_{00}}; \\
 M_{ij} &:= \sum_x \sum_y x^i y^j I(x, y).
 \end{aligned}$$

2-bosqich. O'xshash qo'lyozma obyektlari qism-to'plamini shakllantirish. Ushbu bosqichda qo'lyozma obyektlari to'plami O_1, O_2, \dots, O_k ni ularning yaqinliklari (o'xshashliklari) bo'yicha qism-to'plamlarga bo'lish amalga oshiriladi.

Aytaylik, G_q ($q = \overline{1, k}$) – o'xshash obyektlar qism-to'plamlari bo'lsin. G_p va G_q qism-to'plamlar o'rtasidagi yaqinlik o'lchovi $L(G_p, G_q)$ ularning belgilarining normasi L2 bo'yicha aniqlanadi.

O'xshash obyektlar qism-to'plamlarini shakllantirish quyidagicha amalga oshiriladi.

2.1-qadam. Boshlang'ich qiymatlarni berish:

$$G_1 := \{O_1\}, G_2 := \{O_2\}, \dots, G_k := \{O_k\},$$

$$L(G_i, G_j) := b_{ij}, t := k.$$

2.u-qadam ($u > 1$). Toki $t > n$:

– G_p va G_q bitta qism-to'plamga birlashtirilsin,

agar

$$L(G_p, G_q) :=$$

$$\min \left\| L_{ij}^{(u-1)} \right\|_{(k-u+1) \times (k-u+1)}, (i, j \in [1, k-u+1], i \neq j)$$

bo'lsa;

– $\|L_{ij}^u\|$ -tartibdagi yangi yaqinlik matrisasi

shakllantirilsin;

– $t := t - 1$.

Belgilarni birlashtirish jarayoni har bir obyekti o'z qism-to'plamida yaqinroq bo'lgan G_1, G_2, \dots, G_n obyektlarning n ta qism-to'plami olinmagunicha davom ettiriladi.

3-bosqich. Etalon qo'lyozma obyektlarini aniqlash. Ushbu bosqichda o'xshash qo'lyozma obyektlarining har bir qism-to'plami G_q ($q = \overline{1, n}$) dan bittadan obyekt ajratib olinadi va etalon obyektlar to'pdami shakllantiriladi.

Aytaylik, $\mathfrak{C}_q = |G_q|$ – o'xshash obyektlar qism to'plami G_q ning quvvati, \mathbb{E}_0 – etalon obyektlar to'plami bo'lsin.

Etalon qo'lyozma obyektlarini aniqlash quyidagicha amalga oshiriladi.

3.1-qadam. $\mathbb{E}_0 := \emptyset$.

3.2-qadam. Barcha q ($q = \overline{1, n}$) uchun, agar $\mathfrak{C}_q = 1$ bo'lsa, u holda $\mathbb{E}_0 := \mathbb{E}_0 \cup G_q$.

3.3-qadam. Barcha q ($q = \overline{1, n}$) uchun, agar $\mathfrak{C}_q > 2$ bo'lsa, u holda:

– har bir $O_i \in G_q$ ($i = \overline{1, \mathfrak{C}_q}$) obyektning G_q qism-to'plamning boshqa obyektlariga yaqinlik bahosi $\rho(O_i)$ hisoblansin:

$$\rho(O_i) := \sum_{j=1}^{i-1} L(O_i, O_j) + \sum_{j=i+1}^{\mathfrak{C}_q} L(O_i, O_j);$$

– G_q qism-to'plamning G_q boshqa obyektlariga maksimal darajada yaqin bo'lgan obyekti aniqlansin:



$$O_{i_q} := \arg \min_{O_i \in G_q} \rho(O_i);$$

$-O_{i_q}$ obyekt etalon obyektlar to'plamiga
qo'shilsin:

$$\mathbb{E}_0 := \mathbb{E}_0 \cup O_{i_q}.$$

3.4-qadam. Barcha q ($q = \overline{1, n}$) uchun, agar
 $\mathbb{C}_q = 2$ bo'lsa, u holda:

– har bir $O_i \in G_q$ obyektning etalon obyektlarga
yaqinligi bahosi $\rho(O_i)$ hisoblansin:

$$\rho(O_i) := \sum_{j=1}^{|\mathbb{E}_0|} L(O_i, O_j^E);$$

– G_q qism-to'plamining \mathbb{E}_0 obyektlaridan
sezilarli farq qiluvchi obyektini aniqlansin:

$$O_{i_q} := \arg \max_{O_i \in G_q} \rho(O_i);$$

$-O_{i_q}$ obyekt etalon obyektlar to'plamiga
qo'shilsin:

$$\mathbb{E}_0 := \mathbb{E}_0 \cup O_{i_q}.$$

Ishlab chiqilgan algoritmlarni eksperimental o'rganish. Tajribaviy tadqiqotlar IAM [9] va IUHT [10] qo'lyozma matni tasvirlari bazalari asosida o'tkazildi. IAM bazasida ingliz tilidagi 657 ta muallifga tegishli bo'lgan skanerlangan 1539 ta qo'lyozma matni sahifasi mavjud. IUHT bazasi o'zbek tilidagi (lotin va kirill grafikasi) 373 ta muallifga tegishli bo'lgan skanerlangan 2242 ta qo'lyozma matni sahifasidan tashkil topgan. Bunda har ikkala bazada ham sahifalar 600 dpi tasvir aniqligi bilan skanergangan va kulrang tasvirlar ko'rinishida JPEG formatida saqlangan, sinflarga ajratish kerak bo'lgan obyektlarning sinflari esa muvozanatlashgan.

Qo'lyozma matni tasvirlarini tahlil qilish asosida shaxsni identifikatsiya qilish masalasi ishda taklif qilingan belgilarni ajratib olish va taniqli tanib olish algoritmlaridan foydalangan holda hal qilindi. Qiyosiy tahlil qilish uchun ushbu masala kiruvchi va yashirin qatlamlarda ReLU faollashtirish funksiyalariga, chiquvchi qatlamda esa – SoftMax faollashtirish funksiyalariga ega bo'lgan uch qatlamli to'liq bog'lanishli sun'iy neyron tarmog'idan foydalanib ham hal qilindi. Bunday arxitekturadan

klassik hollarda obyektlarni sinflarga ajratish masalalarini hal qilishda foydalaniladi. Ta'kidlab o'tamizki, taklif qilingan belgilarni ajratib olish algoritmini qo'llanishi natijasida tanib olish obyektlari soni kichik bo'lganligi uchun neyron tarmog'ini o'qitish uchun berilgan ma'lumotlarni augmentatsiya qilish amalga oshirildi.

Sanab o'tilgan algoritmlar sifatini baholash berilgan tanlanmaning 20% ni tashkil qiluvchi nazorat tanlanmasi obyektlarini tanib olish aniqligi bo'yicha hamda 10×10 karrali sirpanuvchi nazoratda foydalangan holda o'tkazildi.

IAM va IUHT tasvirlar bazalaridan olingan nazorat tanlanma obyektlarini sinflarga ajratish natijalari mos tarzda 1- va 2-jadvallarda keltirilgan.

1-jadval.

IAM tasvirlar bazasi qo'lyozma obyektlarini sinflarga ajratish natijalari

t/r	Tanib olish algoritmi	Tanib olish aniqligi (% da)
1.	Minimal masofa	84,82
2.	Qaror qabul qilish daraxti	84,19
3.	Tasodifiy o'rmon	87,13
4.	k ta eng yaqin qo'shnilar	77,81
5.	Uch qatlamli SNT	88,69

Shuni ta'kidlab o'tamizki, berilgan tasvirlarga dastlabki ishlov berish, satrlar va so'zlarni segmentatsiya qilish [8] da taklif qilingan algoritmlardan foydalanib o'tkazildi, qo'lyozma obyektlari esa ushbu ishda taklif qilingan segmentatsiyalash algoritmidan foydalanib ajratib olindi.

2-jadval.

IUHT tasvirlar bazasi qo'lyozma obyektlarini sinflarga ajratish natijalari

t/r	Tanib olish algoritmi	Tanib olish aniqligi (% da)
1.	Minimal masofa	86,34
2.	Qaror qabul qilish daraxti	85,21



3.	Tasodifiy o'rmon	88,42
4.	<i>k</i> ta eng yaqin qo'shnilar	79,78
5.	Uch qatlamli SNT	88,71

Olingan natijalarni solishtirish (1-, 2-jadvallarga qarang) taklif qilingan qo'lyozma matni belgilarini ajratib olish algoritmi asosida tanib olish algoritmlardan aniqlik nuqtai-nazaridan eng samaralisi bo'lib uch qatlamli sun'iy neyron tarmoqqa asoslangan algoritmi ekanligini ko'rsatdi.

Xulosa. Tajribalar natijalari qo'lyozma so'z tasvirini uning tarkibiy obyektlariga bo'lish va ushbu obyektlarning xususiyatlarini aniqlash uchun taklif qilingan algoritmlarning ishlashini ko'rsatdi. Taklif etilgan algoritmlar qo'lyozma matnli tasvirlarni tahlil qilish uchun turli tizimlarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Siddiqi I., Vincent N. Combining global and local features for writer identification //In Proc. of the 11 Int. Conf. on Frontiers in Handwriting Recognition, Montreal, 2008.

2. Niels R., Grootjen F., Vuurpijl L. Writer identification through information retrieval: the allograph weight vector //In Proc. of the 11 Int. Conf. on Frontiers in Handwriting Recognition, Montreal, 2008.

3. Srihari S., Arora H., Lee S. Individuality of handwriting //Journal of Forensic Sciences, 47(4):1.17, July 2002.

4. Said H.E.S., Tan T.N., Baker K.D. Personal Identification Based on Handwriting //Pattern Recognition, vol. 33, 2000, pp.149-160.

5. Marti U.V., Messerli R., Bunke H. Writer Identification Using Text Line Based Features //In Proc. of the 6th Int. Conf. on Document Analysis and Recognition, Seattle, USA, 2001, pp. 101-105.

6. Schomaker L., Bulacu M. Automatic Writer Identification Using Connected-Component Contours and Edge-Based Features of Uppercase Western Script

//In IEEE Transactions of Pattern Analysis and Machine Intelligence, vol. 26, no. 6, pp. 787-798, 2004.

7. Bensefia A., Paquet T., Heutte L. A writer identification and verification system //Pattern Recognition Letters, vol. 26, issue 13, 2080-2092, 2005.

8. Дадаханов М.Х. Қўлэзма матни тасвирига дастлабки ишлов бериш алгоритмлари: Техн. фанлари бўйича фалсафа докт. (PhD) илм. дар. олиш учун ёзилган дис. – Тошкент: АКТ ИИМ, 2021. – 105 б.

9. Marti U.V., Bunke H. The IAM-Database: An English Sentence Database for Offline Handwriting Recognition //Int. J. Document Analysis and Recognition, 2002, vol. 5, no. 1, pp. 39-46.

10. Раджабов С.С., Дадаханов М.Х., Асраев М.А., Маматов А.А. Қўлэзмали матн тасвирларини сегментациялаш алгоритмлари //Информатика ва энергетика муаммолари. – Тошкент, 2020. – №3. – 137-142 б.



ZOLDIR PROKATLASH STANI ISHCHI ELEMENTLARINING KONSTRUKSIYALARINI ISHLAB CHIQISH MASALASI

Shaxobutdinov Rustam Erkinbayevich

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika
universiteti Nazariy mexanika va mashina va
mexanizmlar nazariyasi kafedrasida texnika fanlari
bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent
E-mail: rus-0373@mail.ru

Karimova Anorgul Ruzimovna

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika
universiteti Nazariy mexanika va mashina va
mexanizmlar nazariyasi kafedrasida katta o'qituvchi
E-mail: kanorgul@gmail.com

Nosirov To'lqin Narzulla o'g'li

"O'zmetkombinat" AJ, Zoldir prokatlash sexi
boshlig'i o'rinbosari
E-mail: t.nosirov@uzbeksteel.uz

Annotatsiya: Maqolada zoldir prokatlash stanining eng muhim va zaruriy ishchi elementlaridan hisoblangan zoldir prokatlash valoklari va yo'naltiruvchi lineyklarining konstruksiyalarini ishlab chiqish masalasi o'rganilgan. Ariqchalarining markazlari o'zgaruvchan vintli kalibrga ega bo'lgan zoldir prokatlash valoklarini va zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineyklarining konstruksiyalarini loyihalash maqsadida, ularning geometrik parametrlarini matematik ifodalar orqali nazariy asoslash uchun algoritmlar ishlab chiqilgan. Olingan matematik ifodalarnig yechimlarini MatCAD 15 dasturida tahlil qilingan va KOMPAS 3d dasturi yordamida zoldir prokatlash valoklari va yo'naltiruvchi lineyklarining modeli ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: maydalovchi po'lat zoldir, zoldir prokatlash stani, zoldir prokatlash valogi, yo'naltiruvchi lineyka, kulachok, vintli kalibr.

Kirish. Ko'ndalang vintli prokatlash bu metallarga ishlov berish jarayonining bir turi bo'lib, unda ma'lum o'lchamlarga ega bo'lgan va belgilangan yuqori haroratda qizdirilgan metall xom-ashyo bir xil yo'nalishda aylanadigan valoklar hamda ularni prokatlash o'qi bo'yicha ravon ilgarilanma, aylanma harakatini ta'minlovchi yo'naltiruvchi lineyklar orasidan o'tadi Bu texnologik jarayon yordamida kalta o'lchamli aylanma shakldagi mahsulotlarni ishlab chiqarishda foydalaniladi [1-5].

Ko'ndalang vintli prokatlash usuli yordamida maxsus shakldagi vallar, tog'-kon sanoatida qo'llaniladigan vintli mahkamlagichlar, temir yo'llarda qo'llaniladigan vagon o'qlari, tog'-kon sanoati va

ko'mir ishlab chiqarish va boshqa sanoat sohalarida qo'llaniladigan maydalovchi po'lat zoldirlar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Zoldir prokatlash stanlarida bajariladigan ko'ndalang vintli prokatlash jarayoni asosiy texnologik jarayon hisoblanib, bunda zoldir prokatlash valoklarini hamda yo'naltiruvchi lineyklarini loyihalash o'ta yuqori aniqlikda tayyorlashni talab etadi (1-rasm). 1-rasmda 1 – quyi yo'naltiruvchi lineyka, 2 – o'ng valok, 3 – chap valok tasvirlangan.






1-rasm. Quyi yo'naltiruvchi lineyka va prokatlash valoklarining metall xom-ashyoning kirish tomonidan ko'rinishi.

Zoldirlarni prokatlash usuli bilan ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan stanning muhim elementlarining konstruksiyalarini ishlab chiqish bugungi kunda maydalovchi po'lat zoldirlarni ishlab chiqarish texnologiyasining rivoji uchun eng muhim talablardan biridir. Ushbu masalani yechish uchun zoldir prokatlash valoklari va yo'naltiruvchi lineyklarini loyihalash maqsadida, ularning geometrik parametrlarini aniqlashning nazariy asoslarini ishlab chiqish bo'yicha algoritmlar va hisoblash dasturlarini tuzish ishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Zoldir prokatlash valoklari va yo'naltiruvchi lineyklar maydalovchi po'lat zoldirlarni prokatlash uchun mo'ljallangan stanning muhim ishchi elementlari hisoblanadi. Zoldirlarni prokatlash jarayonida vintli kalibrli valoklarning o'z o'qiga nisbatan aylanma harakat qilishi natijasida, belgilangan aniq o'lchamlarga ega bo'lgan metall xom-ashyoning ishchi qismi prokatlash o'qi bo'ylab harakatlanadi. Zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineykalari prokatlanayotgan metall xom-ashyo uchun tayanch vazifasini bajarishi bilan bir vaqtning o'zida uning prokatlash o'qiga nisbatan aylanma va prokatlash o'qi bo'ylab ilgariylanma harakatini ta'minlash vazifalarini amalga oshiradi [6].

RT117 markali tokarlik vint qirqish dastgohida ariqchalarining markazlari o'zgaruvchan vintli kalibrli olti kirimli zoldir prokatlash valoklarini qirqishda eng


asosiy vazifalardan birini bajaruvchi zveno kulachoklar hisoblanadi. Shuning uchun olti kirimli zoldir prokatlash valoklarini qirqishda profili nazariy asoslangan kulachoklarni loyihalashda eng yuqori samaradorlikka ega bo'lish uchun hisoblash ishlarini o'ta yuqori aniqlikda bajarish zarur bo'ladi. Bu esa asosan, kulachokka qo'yilgan talablarning bajarilishini ta'minlash masalasi bilan bog'liq. Matematik hisoblashlar yordamida ma'lum aniqlikdagi o'lchamlar bo'yicha tayyorlangan kulachoklar yordamida zoldir prokatlash valoklarining o'zgaruvchan markazli ariqchalarga ega vintli kalibrlarini kesish uchun maxsus nusxa ko'chirish moslamasi bilan jihozlangan tokarlik vint qirqish dastgohida qirqiladi.



2-rasm. Zoldir prokatlash valoklarini qirqishda qo'llaniladigan kulachokli mexanizmning kinematik sxemasi.

2-rasmda zoldir prokatlash valoklarini qirqishda qo'llaniladigan kulachokli mexanizmning kinematik sxemasi keltirilgan bo'lib, bu sxemada 1 – kulachok, 2 – rolik, 3 – prujina tasvirlangan.

Zoldir prokatlash valoklarini qirqishda qo'llaniladigan kulachoklar raqamli dasturlash bilan boshqariladigan (RDB) frezalash dastgohida tayyorlanadi.



3-rasm. Zoldir prokatlash stani valoklarini qirqishda ishlatiladigan kulachokning umumiy ko'rinishi.



Buning uchun zoldir prokatlash valoklarini kesishda vintli kalibrning qadamini ta'minlab beruvchi profili nazariy asoslangan kulachoklarning konstruksiyalari ishlab chiqiladi. Shu bilan birga, RDB dastgohiga mos bo'lishi uchun kompyuterda dasturlar tuziladi va kulachoklar tayyorlanadi (3-rasm).

Prokatlash jarayonida zoldir prokatlash valoklarining xom-ashyoga ishlov beruvchi qismi shakl hosil qiluvchi va shaklga ishlov beruvchi qismlarga ajralishi bilan farqlanadi. Kulachoklarning profilini aniqlash maqsadida bir qator hisoblash ishlari bajariladi va kinematik hamda dinamik talablarga javob beradigan texnologiya ishlab chiqiladi. Bunda

s_T - turtkichning ko'chishi, φ_k - kulachokning burilish burchagi, s_T' - turtkichning tezlik analogi, s_T'' - turtkichning tezlanish analogi, h_{max} - turtkichning maksimal ko'chishi, φ_u - uzoqlashish faza burchagi, $\varphi_{u,t}$ - uzoqda turish faza burchagi, φ_y - yaqinlashish faza burchagi va $\varphi_{y,t}$ - yaqinda turish faza burchagi kabi parametrlar qiymatlarining o'zgarishi asos qilib olinadi (zoldir prokatlash valoklarini qirqishda ishlatiladigan kulachoklarda uzoqda turish faza burchagi nolga teng: $\varphi_{u,t} = 0$). [7] da kulachokning to'rt harakatlanish fazalari uchun turtkichning siljishi, tezligi va tezlanishlarini aniqlashning matematik modellari siljish parametrlarining o'zgarish dinamikasi asosida ishlab chiqilgan.

Zoldir prokatlash stanining mahsuldorligini oshirish maqsadida esa, valoklardagi kirimlarning soni oshiriladi. Bu esa valoklarning har bir aylanishida oltitagacha bo'lgan maydalovchi po'lat zoldirlarni olish imkoniyatini beradi.

Ushbu texnologik jarayonni soddalashtirish maqsadida, zoldir prokatlash stani valoklarini loyihalash algoritmini ishlab chiqish va shu asosda raqamli dastur bilan boshqariladigan dastgoh yordamida valoklarni yuqori aniqlikda qirqish texnologiyasini joriy qilish samaralidir.

Zoldir prokatlash valoklarni qirqish jarayonida metall xom-ashyoning deformatsiyalanishini hisobga olish bilan bir qatorda vintli kalibr geometriyasining murakkab ishlanmasini ishlab chiqish va bunda eng muhim hisoblangan vintli kalibr gardishlarining qalinligi, balandligi va boshqa parametrlarini aniqlagan holda loyihalash hamda vintli kalibrni qirqish texnologiyasini amalga oshirish zarur bo'ladi. Zoldir prokatlash stanining yana bir muhim elementlaridan biri bo'lgan yo'naltiruvchi lineyklarining asosiy geometrik parametrlarini nazariy asoslash va uni loyihalashda zoldir prokatlash valoklarining diametri, prokatlash valogi ishchi qismining uzunligi, prokatlash valogi rebordalarining balandligi, prokatlanayotgan zoldirning diametri, prokatlash valoklari orasidagi o'qlararo masofa kabi parametrlarning qiymatlarini o'rganish muhimdir.

Natijalar. Masalani aniq misollarda tahlil qilish uchun olti kirimli diametri 50mm bo'gan maydalovchi po'lat zoldirlarni ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan stanning valoklarini loyihalash ishlari bajarildi.

$X(\psi)$	347,117	347,06413	346,90555	346,64129	346,27144	345,79612	...
$Y(\psi)$	0	0,949389	1,898755	2,848097	3,797415	4,746709	...
$Z1(\psi)$	0	6,058027	12,114209	18,1667	24,213658	30,25324	...

1-jadval. Zoldir prokatlash valoklarining vint chiziqlarini hosil qilish uchun koordinata o'qlari bo'yicha dastlabki qiymatlar.

Loyihalash yuqori aniqlikda bajarilishi uchun KOMPAS 3d dasturi imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, vintli kalibrning uzunligi bo'yicha 823 ta qiymatlar orqali X, Y, Z o'qlari bo'yicha koordinatalarining sonli natijalari olindi (jadvalda X, Y, Z dekart koordinata o'qlari bo'yicha qiymatlardan dastlabki 6 ta qiymat keltirilgan).


Vintli kalibrning uzunligi bo'yicha olingan 823 ta qiymatlar bo'yicha jadval asosida vintli kalibrni qirqish texnologiyasini amalga oshirish uchun dastlab quyidagi asosiy ketma-ketlik bo'yicha ish olib boriladi:



$$\begin{cases} \psi_1 := 0 \dots \psi_{umumiy}, & \alpha(\psi_1) := \psi_1 \cdot \text{deg}, \\ X(\psi_1) := R_{\text{prok.o'qi}} \cos(\alpha(\psi_1)) \\ Y(\psi) := Z(\psi) \\ Z_1(\psi_1) := R_{\text{prok.o'qi}} \sin(\alpha(\psi_1)). \end{cases} \quad (1)$$

bu yerda ψ_1 – valok uzunligiga mos bo'lgan vintli kalibrning uzunligi; ψ_{umumiy} – vintli kalibrning umumiy uzunligi; $R_{\text{prok.o'qi}}$ – prokatlash o'qidan vintli kalibr markazigacha bo'lgan masofa.

X, Y, Z dekart koordinata o'qlarining har biri bo'yicha vintli kalibrning uzunligida belgilangan qiymatlar asosida zoldir prokatlash stani valoklarining vint chiziqlari hosil qilinadi. Olti kirimli diametri 50mm bo'gan maydalovchi po'lat zoldirlarni prokatlash maqsadida, zoldir prokatlash valoklarining modeli ishlab chiqildi (4-rasm).



4-rasm. Olti kirimli diametri 50mm bo'gan maydalovchi po'lat zoldirlar uchun zoldir prokatlash valogining umumiy ko'rinishi.

Turli diametrdagi maydalovchi po'lat zoldirlarni prokatlash uchun prokatlash valoklarining kalibrovkalarini ishlab chiqish bir-biridan farq qiladi va ularni tayyorlash imkoniyatlari nazariy jihatdan ilmiy asoslashni talab etadi. Zoldir prokatlash stani yo'naltiruvchi lineyklarining asosiy geometrik parametrlarini hisoblashda ularning ishchi qismining qalinligini aniqlash uchun prokatlash valoklarning o'qlararo masofasi o'zgarmas qiymatga ega ekanligiga alohida ahamiyat berish lozim.

Yuqori va quyi yo'naltiruvchi lineyklarining balandligi quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned} h_{yu.} &= h_1 - \frac{d_{zoldir}}{2} \\ h_q. &= h_2 - \frac{d_{zoldir}}{2} \end{aligned} \quad (2)$$

bu yerda h_1 – prokatlash o'qidan yuqori yo'naltiruvchi lineykaning asosigacha bo'lgan masofa, h_2 – prokatlash o'qidan quyi yo'naltiruvchi lineykaning asosigacha bo'lgan masofa. Bu h_1 va h_2 masofalarning qiymati prokatlash stani konstruktiv o'lchamlariga asosan olinadi.

Turli diametrdagi zoldirlar uchun yo'naltiruvchi lineyklarining balandigi ham har xil qiymatlarni qabul qiladi. Prokatlanayotgan zoldirning diametriga bog'liq ravishda, ZPS 40-80 va ZPS 80-120 stanlari uchun konstruktiv o'lchamlar har xil bo'ladi.

Yuqori va quyi yo'naltiruvchi lineyklar uchun matematik ifodalarni aniqlashda zoldirning diametrik va zoldir prokatlash valoklari vintli ariqchalari uchun vintli kalibr uzunligining qiymatlarlarini inobatga olish zarur. Zoldirlarning hosil bo'lishda yo'naltiruvchi lineyklarining ishchi qismi alohida ahamiyatga ega. Prokatlash stanida yo'naltiruvchi lineykaning ishchi qismini konstruktiv joylashish doimiysi k ga farq qilgan holda prokatlash valoklarining shakl hosil qiluvchi va shaklga ishlov beruvchi qismlariga mos bo'lgan 2 ta asosiy ishchi qismga ajratish mumkin. Buni esa yo'naltiruvchi lineykani prokatlash staniga o'rnatish davomida aniqlash mumkin bo'ladi.

Yo'naltiruvchi lineyka ishchi qismining umumiy uzunligi quyidagicha aniqlanadi:

$$l_{lineyka} = k + l_{valok} \quad (3)$$

bu yerda k – yo'naltiruvchi lineykaning prokatlash staniga konstruktiv joylashish doimiysi, l_{valok} – zoldir prokatlash valogining umumiy uzunligi.

Yo'naltiruvchi lineyka ishchi qismining uzunligini prokatlash valogining zoldir chiqish tomonidan boshlab hisoblaganda, vintli kalibr uzunligiga bog'liq holda quyidagicha aniqlanadi:

$$l(\varphi) = Z_{k_1}(\varphi) + T_{\text{dastgoh}}(\varphi) - R_{\text{kalibr}} \quad (4)$$




bu yerda $Z_{k1}(\varphi)$ – zoldir prokatlash valogi vintli kalibrining mm o‘lchov birligidagi uzunligi, $T_{dastgoh}(\varphi)$ – dastgoh qadaming mm o‘lchov birligidagi uzunligi.

Prokatlash valoklarining β burchakka burilishini hisobga olgan holda, valok markazining siljish balandligi quyidagicha aniqlanadi [1]:

$$h_{\beta} = l_{\beta} \cdot \operatorname{tg} \beta \quad (5)$$

bu yerda l_{β} – prokatlash valogining yon tomonidan valokning burilish nuqtasigacha bo‘lgan masofa, β – valokning burilish burchagi $0^{\circ} - 7^{\circ}$ oralig‘ida o‘zgaradi.



5-rasm. Zoldir prokatlash stani yo‘naltiruvchi lineykasining umumiy ko‘rinishi.

Nazariy asoslashlar bo‘yicha, DSt 7520-2015 bo‘yicha diametri 50mm bo‘lgan maydalovchi po‘lat zoldirlarni prokatlash uchun, zoldir prokatlash stani yo‘naltiruvchi lineykasi ishlab chiqildi [8].

Zoldir prokatlash stani valoklari hamda yo‘naltiruvchi lineykalari konstruksiyalarini loyihalash asosida, standart talablarga mos bo‘lgan diametrdagi zoldirlarni prokatlash imkoniyatlari yaratildi (5-rasm).

Xulosa. Zoldir prokatlash stanlarida qo‘llaniladigan prokatlash valoklari va yo‘naltiruvchi lineyklarining asosiy geometrik parametrlarini nazariy asoslash va ularni loyihalash maqsadida matematik ifodalarni ishlab chiqildi. Aniqlangan matematik ifodalarning yechimlarini MathCAD 15 dasturida tahlil qilindi va zaruriy grafiklar olindi. Hisoblash ishlari asosida, KOMPAS 3d dasturi yordamida diametri 50 mm bo‘lgan maydalovchi po‘lat zoldirlarni prokatlash valoklari va yo‘naltiruvchi lineyklarining konstruksiyalari ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Целиков А.И., Барбарич М.В., Васильчиков М.В., Грановский С.П., Жукевич-Стоша Е.А. Специальные прокатные станы. // –М.: Металлургия, 1971. – 336 с.
2. Котенок В.И. Развитие теории формообразования профилей винтовых калибрах и создание высокоэффективных процессов и оборудования для прокатки деталей машин: Дис. ... д-ра техн. наук. : 05.03.05 / Котенок Владимир Иванович — Москва, 2005. – 342 с.
3. Фастыковский А.Р., Савельев А.Н. Конструкции и расчеты оборудования прокатных клетей сортовых и листовых станов: учеб. пособие / Сиб. гос. индуст ун-т. – Новокузнецк, 2008. – 316 с.
4. Перетятко В.П., Климов А.С., Филиппова М.Ф. Калибровка валков шаропркатного стана. “Известия высших учебных заведений. Чёрная металлургия”, Том 56, № 6, 2013, стр. 16-20.
5. Филиппова М.В. Математическое моделирование прокатки шаров / М.В. Филиппова, М.В. Темлянцев, В.Н. Перетятко, Е.Е. Прудский // Изв. Вуз. Черная металлургия. – 2017. – Т.60. - №7. – стр. 516-521.
6. Shaxobutdinov R.E., Karimova A.R., Nosirov T.N. Import o‘rnini bosuvchi mahsulot – maydalovchi po‘lat zoldirlarni ishlab chiqarishni o‘zlashtirish masalalari. “Im-fan va innovatsion rivojlanish” ilmiy-texnikaviy jurnal 7-jild / 3, 2024, 36-44 b.
7. Шахобутдинов Р.Э. Теоретические и прикладные основы кулачковых механизмов, применяемых в шаропркатном производстве. Монография / Ташкент, 2024. – 152 с.
8. Межгосударственный стандарт ГОСТ 7524-2015 «Шары, мелющие стальные для шаровых мельниц» Технические условия. Издание официальное. // Москва, Стандартинформ, 2016.



ANTENNANI QAYTA SOZLASHDA P-I-N DIODLARDAN FOYDALANISH, NAZARIY VA AMALIY QO'LLANISHLAR

B.O.Djalilov
Raqamli texnologiyalar markazi direktori,
"Telekommunikatsiya injiniringi"
kafedrası dotsenti.

A.G'.Muhammadjonov
TATU Farg'ona filiali "Dasturiy injiniring"
kafedrası assistenti.
m.azamatjon0212@gmail.

Annotatsiya: P-i-n diodlar yordamida antennalarni qayta sozlash texnologiyasi radioelektron va mikroto'lqinli tizimlarda antennalarning dinamik xususiyatlarini o'zgartirish uchun samarali usuldir. P-i-n diodlarning elektr fazasi va sig'im-induktiv xususiyatlarini nazorat qilish orqali antennaga tushayotgan yoki tarqalayotgan elektromagnit to'lqinlarning moslashuvchanligi ta'minlanadi. Bu usul antennalarning keng polosali diapazonlarini dinamik boshqarishga, shuningdek, garmonik filtrlash va fazali massivlar yaratish imkoniyatini beradi. P-i-n diodlardan foydalanish texnologiyasi yuqori tezlikdagi jo'natish va qabul qilish tizimlarini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, antennalarni qayta sozlash orqali yuqori samaradorlikka erishish, signal yoyilishining moslashuvchanligi va chastota doiralarini kengaytirish mumkin. Mazkur usul kommunikatsiya, radiolokatsiya va simsiz aloqa sohalarida yangilik yaratish imkoniyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Antenna, diodlar, texnologiya, simsiz aloqa, kommunikatsiya.

Kirish. Zamonaviy radioelektron, mikroto'lqinli tizimlarda antennalarning samaradorligi va moslashuvchanligi juda muhim ahamiyatga ega. Radioaloqa, radiolokatsiya, simsiz tarmoqlarda yuqori sifatli signal uzatish va qabul qilishga bo'lgan talab kun sayin ortib borayotgani sababli, antennalarning dinamik sozlanishiga ehtiyoj yuqori hisoblanadi. Bu jarayonda p-i-n diodlar muhim rol o'ynaydi, chunki ular elektromagnit to'lqinlar diapazonini avtomatik ravishda o'zgartirish va dinamik nazorat qilish imkonini beradi.

P-i-n diodlar o'zlarining maxsus elektr-kimyoviy tuzilishi tufayli induktiv va sig'imli xususiyatlarni o'zgartira oladi, bu esa antennalarning qo'llash diapazonini kengaytirish va ularning moslashuvchanligini oshirishga yordam beradi. Hozirgi kunda p-i-n diodlar asosida antennalarni qayta sozlash nafaqat signallarni uzatish sifatini oshiradi, balki foydalaniladigan chastotalarni kengaytirish,

signalga halaqit qiluvchi elementlarni kamaytirish va fazali antenna massivlarini optimallashtirish imkonini beradi. Mazkur texnologiyaning dolzarbligi radio to'lqinlarni boshqarish imkoniyatlarini kengaytirish va yangicha aloqa tizimlarini yaratish bilan bog'liq hisoblanadi. P-i-n diodlarning tezkor va aniq boshqarish xususiyatlari sababli, ular antennalarning qayta sozlanishiga zamonaviy yechim sifatida ko'riladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar.

Antennalarni qayta sozlash sohasidagi tadqiqotlar va texnologiyalar keng qamrovli bo'lib, turli usul va elementlardan foydalanish orqali antennalarni moslashtirishga yo'naltirilgan. P-i-n diodlar yordamida qayta sozlanuvchi antennalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar uzoq vaqtdan beri davom etib keladi va bu diodlarning yuqori tezlikdagi kommutatsiya xususiyati ularni antennalarni dinamik sozlashda keng qo'llanilishini ta'minlamoqda.



Klassik tadqiqotlarda p-i-n diodlar asosan mikroto'qimli sxemalarda signalni bloklash yoki o'tkazish vazifasini bajargan (Johnson, 1999). Keyinchalik p-i-n diodlar fazali antenna massivlarini qayta sozlash va signallar fazasini boshqarish uchun ham qo'llanila boshlandi (Gupta, 2005). Shu bilan birga, Qosimov (2011) hamkasblari bilan olib borgan tadqiqotlari antennalarni dinamik sozlash imkoniyatlarini tadqiq qilib, diapazon kengligi va samaradorligini oshirishni ko'rsatdi.


Oliyov (2017) o'z tadqiqotida p-i-n diodlar yordamida qayta sozlanuvchi antennalarning to'qinlarni qabul qilish xususiyatlarini tahlil qildi va bu usulning kommunikatsiya tizimlaridagi samaradorligini oshirishini ta'kidladi. Boshqa tadqiqotlar esa p-i-n diodlar asosida antennalarning garmonik filtrlash xususiyatlariga bag'ishlangan bo'lib, ular interferensiyani kamaytirishda muvaffaqiyatli qo'llanilishi mumkinligini ko'rsatiladi (Kang, 2019).

Natija: PIN-diod elektron (n) va teshik (p) o'tkazuvchanlik sohalari o'rtasida o'z ichki (legirlanmagan, inglizcha intrinsic) yarim o'tkazgich (i-soha) joylashgan diodning bir turi hisoblanadi. p va n sohalar odatda kuchli legirlanadi, chunki ular metall bilan omik kontakt uchun ishlatiladi. p-i-n diodning o'ziga xos xususiyatlari i-soha kuchli legirlangan n+ va p+ sohalardan zaryad tashuvchilar bilan to'ldirilganda kuchli in'eksiya rejimida ishlashida namoyon bo'ladi, bunda ularga to'g'ri siljitish kuchlanishi qo'yiladi. i-sohada zaryad tashuvchilarning konsentratsiyasi juda past bo'lganligi sababli, bu yerda in'eksiya paytida deyarli hech qanday rekombinatsiyalanish jarayonlari bo'lib o'tmaydi. Ammo to'g'ri siljitish rejimida zaryad tashuvchilarning konsentra-siyasi ichki konsentratsiyadan bir necha marta yuqori bo'ladi.

Past chastotalarda o'sha bir xil tenglamalar oddiy diodlarda bo'lganidek, p-i-n diodlariga ham amal qiladi. Yuqori chastotalarda to'g'ri siljitishda p-i-n diod deyarli ideal rezistor kabi ishlaydi, uning volt-amper xarakteristikasi (VAX) hatto juda katta kuchlanishlar qiymatlarida ham chiziqli bo'ladi.

Shunday qilib, siljitish kuchlanishini o'zgartirish bilan diodning qarshiligini 0,1 Omdan 10 KOMgacha keng diapazonda o'zgar-tirish mumkin. i-sohaning katta kengligi p-i-n diodning teskari yo'nalishda kichik sig'imga ega ekanligini ham anglatadi.

Bu ishda qayta sozlash elementlari sifatida Hawlett Packard kompani-yasining HSMP4820 turdagi ikkita p-i-n diodlari ishlatilgan [37]. 1-rasmda diodlarning ochiq holatda (a) va yopiq holatdagi (b) ekvivalent zan-jirlari keltirilgan. Ekvivalent sxema parametrlarining qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan.



1-rasm. Diodning (a) ochiq holatda va (b) yopiq holatdagi ekvivalent sxemalari.

1-jadval. p-i-n diod elementlarining qiymatlari

Parametr	p-i-n diod holati	
	Ochiq	Yopiq
	Qiymat	
L , nГH	0.75	0.75
C , пФ	-	0.8
R_s , Ом	0.6	2500


2-jadval. Qayta sozlashda diodlarning holatlari

Egri chiziq (4-rasm)	Diodlarning holatlari	
	1-diod	2-diod
1	Ochiq	Ochiq
2	Yopiq	Ochiq
3	Ochiq	Ochiq
4	Yopiq	Yopiq




Past chastotali diapazonlarni qayta ulash uchun 11 pF (1-diod) va 15 pF (2-diod) kondensatorlari bilan ketma-ket ulangan ikkita p-i-n diodlar ishlatiladi.

Antenna KTTKni chastotaga bog‘liqligi 2-rasmda keltirilgan. 2-rasmdagi egri chiziq-larga mos keladigan sozlamalardagi diodlarning ho-latlari 2-jadvalda berilgan.



a)




b)

2-rasm. Turg‘un to‘lqin koefitsiyentining (a) past chastotalar diapazoni va (b) yuqori chastotalar diapazonidagi bog‘liqligi.

Past chastotalar diapazonidagi polosa kengligi 12...19,4%ni, yuqori chastotalar diapazonida - 12,2%ni tashkil etadi, bu LTE standartiga mos keladi.

p-i-n diodli zanjirda olingan FIK qiymatlari 3-rasmda keltirilgan. Antennaning foydali ish koefitsenti PCH sohada 36...60% dan YUCH sohada

78% gacha oshish bilan ortadi (alohida egri chiziq-lar uchun diodlarning holatlari 2-jadvalga mos keladi).



3-rasm. Antenna foydali ish koefitsiyentining bog‘liqligi.

Past chastotalar diapazonida qayta sozlanadigan antennaning yo‘naltirilganlik diagrammasi 4-rasmda tasvirlangan.

3-jadvalda PCH va YUCH diapazonlari uchun antenna yo‘naltirilganlik diagrammalarining mos qiymatlari keltirilgan.


3-jadval

Antenna yo‘naltirilganlik diagrammasining xarakteristikalari

Parametrlar	azimutal burchak		Ko‘tarilish burchagi	
	PCH diapazon	YUCH diapazon	PCH diapazon	YUCH diapazon
Maksimal yo‘naltirilganlik, dB	2.7	5	2.1	5.5
Maksimal burchak, grad	65	180	345	305
Diagrammaning kengligi, grad	109.4	81.7	110.8	82.5



P-i-n diodlar yordamida olib borilgan tadqiqotlar natijalari doimo tahlil qilinib kerakli xulosalarga kelinadi. Antennalarni qayta sozlash sohasidagi tadqiqotlar va texnologiyalar keng qamrovli bo'lib, barcha natija va metodlar yordamida kerakli xulosalarga kelish zarur hisoblanadi.



4-rasm. PCH va YUCH diapazonlaridagi 2D va 3D antenalar yo'naltirilganlik diagrammalari.

- PCH-diapazon azimutal burchagi,
- PCH-diapazon ko'tarilish burchagi,
- PCH-diapazon uch o'lchovli ko'rinishdagi yo'naltirilganlik diagrammasi,
- YUCH diapazonining azimutal burchagi,
- YUCH-diapazon ko'tarilish burchagi,
- YUCH-diapazon uch o'lchovli ko'rinishdagi yo'naltirilganlik diagrammasi

Xulosa. P-i-n diodlar yordamida antennalarni qayta sozlash texnologiyasi radio va mikroto'lqinli tizimlar uchun yuqori samaradorlik va moslashuvchanlikni ta'minlaydi. Tadqiqot davomida p-i-n diodlarning antennalarni qayta sozlashdagi fazaviy, sig'imli xususiyatlari har tomonlama o'rganildi va ularning elektr moslashuvchanligi orqali antennalarning diapazonlarini dinamik tarzda o'zgartirish imkoniyati mavjudligi tasdiqlandi. Bu jarayon antennalarning o'tkazuvchanlik va qabul qilish xususiyatlarini optimallashtirishda muhim rol o'ynadi.

Simulyatsiya va tajribalar natijalari shundan dalolat beradiki, p-i-n diodlar asosida qayta sozlanuvchi antenalar yuqori tezlikdagi signal almashinuvida interferensiyani kamaytiradi, garmonik

filtrlash orqali diapazonni kengaytirish imkonini beradi va fazali massivlarni boshqarishda aniqlikni oshiradi. Tadqiqotning amaliy qo'llaniluvchi samsiz aloqa, radiolokatsiya, fazaviy antenalar va yuqori tezlikdagi ma'lumot uzatish tizimlarini optimallashtirishga imkon beradi. Shu bilan birga, qayta sozlanuvchi antennalarning p-i-n diodlar yordamida tezkor va samarali boshqarilishi yuqori samaradorlikka erishishning uzviy qismi sifatida qaraldi.

Yakuniy natijalar shundan dalolat beradiki, antennalarni qayta sozlash texnologiyalari kelajakda radio va mikroto'lqinli aloqa sohasidagi innovatsiyalar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

- Johnson, R. C. (1999). "Microwave PIN Diodes: Application in Switching and Tuning Circuits." *Microwave Journal*, 42(12), 22-30.
- Gupta, K. C., & Singh, A. (2005). "Smart Antennas and Their Applications." *IEEE Transactions on Antennas and Propagation*, 53(5), 1625-1635.
- Қосимов, А. Ж. (2011). "Антенналарнинг қайта созланиши: p-i-n диодлардан фойдаланиш имкониятлари." *Техника ва Инновация*, 23(7), 45-51.
- Kang, S. H. (2019). "Harmonic Filtering in Reconfigurable Antennas Using PIN Diodes." *Journal of Electromagnetic Waves and Applications*, 33(18), 2341-2352.
- Олийнов, И. Х. (2017). "Қайта созланувчи антенналар ва уларнинг фазавий бошқаруви." *Микротўлқинли техника журнали*, 55(3), 79-85.



HONEYPOT TEXNOLOGIYASINING FUNKSIONAL IMKONIYATLARINI TADQIQ ETISH

Xudoyqulov Zarif Turaqulovich,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti, "Kriptologiya" kafedrasini
mudiri, Toshkent, O'zbekiston
e-mail zarif.khudoykulov@tuit.uz

Qurbonaliyeva Dilshoda Vali qizi,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti, "Kriptologiya" kafedrasini
assistenti, Toshkent, O'zbekiston
e-mail dilshodavaliyevna@gmail.com

Bozorov Suhrobjon Mumin o'g'li,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot
texnologiyalari universiteti, "Kriptologiya" kafedrasini
assistenti, Toshkent, O'zbekiston
e-mail mr.bozorov95@gmail.com

Annotatsiya: Honeypot - spam, fishing, DDoS yoki boshqa zararli usullardan foydalangan holda kompyuter tarmoqlariga hujum qilishga urinayotgan zararli hujumchilarni yolg'on zaifliklar orqali jalb qilish uchun yaratilgan tuzoq sifatidagi kompyuter tizimi yoki ilovasi. Xaker ushbu tuzoqqa tushib qolsa, honeypot tizimi administratorlarga tajovuzkorning turi, u amalga oshirayotgan harakatlar va ko'p hollarda hujumchini aniqlash haqidagi qimmatli ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Ushbu maqolada Honeypot vositalarining funksional imkoniyatlari va algoritmlarining tahlili amalga oshirilgan. Olingan natijalar asosida tarmoqdagi hujumchilarning hatti-harakatlarini aniqlovchi va haqiqiy tizimni hujumlardan himoya qila oluvchi yordamchi dasturlarning qiyosiy tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: Honeypot server, honeypotlar klassifikatsiyasi, virtual honeypot, fizik honeypot, honeynet, hujum, xaker harakatlari, zaiflik, monitoring, DMZ.

Kirish. Kiber tahdidlarning kompyuter tarmoqlariga ta'sirining jiddiyligiga ko'ra, tarmoq himoyachilari noma'lum tahdidlarni aniqlash va tahlil qilish va xavfli tahdidlarni oldini olish uchun vositalarni ishlab chiqishga harakat qilishadi. Tahdidlarni kuzatish tizimlari, xavfsizlik devorlari, IPsec va bosqinlarni aniqlash tizimlari (IDS) kabi hujumlarni aniqlash va oldini olish uchun turli xil xavfsizlik mexanizmlari ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ular birinchidan nol kunlik va noma'lum tahdidlarni aniqlash uchun yetarlicha samarali emas. Ikkinchidan raqibning hatti-harakatlarini yaqindan tahlil qilishning imkoni yo'q. Biroq, honeypotlar tarmoq himoyachisiga

ikkala yuqorida aytib o'tilgan maqsadga erishishga yordam beradigan aldamchi vositadir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Kiberxavfsizlik dunyosida honeypot tushunchasi odatda tizimning haqiqiy hatti-harakatlariga ega bo'lgan, qasddan xavfsizlik bo'shlig'ini qoldiradigan va ularga kirishni istagan kiber jinoyatchilar haqida ma'lumot to'plashni maqsad qilgan tuzoq tizimlari deb ataladi [1]. Bu zaifliklar orqali kiberhujumlarni jalb qilishni maqsad qilib qo'ygan kompyuter tizimi. U kiberhujumchilar kabi nishonga taqlid qilish va hujumga urinishlar, ishlash usullari haqida bilish yoki ularni boshqa nishonlardan chalg'itish uchun ishlatiladi [2].




Barcha honeypotlarning asosiy maqsadi har xil turdagi dasturiy ta'minotga qarshi paydo bo'ladigan hujumlarni aniqlash va razvedka ma'lumotlarini tahlil qilish va yaratish uchun hisobotlarni to'plashdan iborat. Yig'ilgan hisobotlardan keyinchalik tarmoq tahdidlariga qarshi profilaktika usullarini yaratishda foydalaniladi [3]. Yuqorida aytib o'tilganidek, honeypot tuzoq tizimidir [4]. Ushbu tuzoq tizimlari ko'pincha tarmoqqa ulangan virtual mashina yoki bulut serverida o'rnatiladi. Shu bilan birga tizim va tarmoq ishtirokchilari tomonidan izolyatsiya qilingan bo'lib, qat'iy nazorat qilinadi [5]. Hujumchilarning e'tiboriga tushish uchun, honeypot maqsadli himoyasiz bo'lishi zarur. Shu holatda uning zaif tomonlarini tajovuzkor aniqlaydi va ulardan foydalanishga harakat qiladi [6]. Ushbu zaifliklar ilova ichidagi xavfsizlik tizimining bir qismi bo'lishi mumkin. Keraksiz ochiq portlar, eskirgan dasturiy ta'minot versiyalari, zaif parol yoki eskirgan yadro kabilar ham tizim zaifliklaridan biri bo'lishi mumkin [7].

Honeypot tavsifi. Honeypotlar ma'lum replikatsiya vektorlari va zararli dastur hujumlari signaturalaridan foydalanish orqali zararli dasturlarni aniqlash uchun ishlatiladi. USB xotira yoki flesh-disklar kabi replikatsiya vektorlaridagi o'zgarish belgilarini qo'lda yoki drayverlardan nusxa oluvchi maxsus honeypotlar yordamida osongina tekshirish mumkin.

Hujumchi o'zining zaif nishonini topgandan so'ng, u tizim yoki ilova ustidan ma'lum nazoratni qo'lga kiritmaguncha hujumni boshlashga va imtiyozlarni oshirishga harakat qiladi. Xakerlarning ko'pchiligi bilmaydigan narsa shundaki, honeypot ma'muri ularning har bir qadamini diqqat bilan kuzatib, hujumchidan joriy xavfsizlik siyosatini kuchaytirishga yordam beradigan ma'lumotlarni to'playdi. Shuningdek, administrator, hodisa haqida darhol yuridik organlarga xabar berishi mumkin bo'lib, bu ko'pincha yuqori darajadagi korporativ tarmoqlarda sodir bo'ladi. Aksariyat honeypotlar hujumchilarni haqiqiy tarmoqlarda joylashgan muhim ma'lumotlardan chalg'itadigan tuzoq sifatida ishlaydi.

Yana bir umumiy jihat shundaki, honeypotga ulanishning deyarli barcha urinishlari dushman deb hisoblanishi mumkin, chunki, odatda qonuniy foydalanuvchini ushbu turdagi tizimlar bilan bog'lanishga undaydigan sabablar kam bo'ladi.



1-rasm. Honeypot arxitekturasi.

Honeypotni yaratilishida e'tibor qaratish lozim bo'lgan muhim jihatlardan biri - ma'mur qanday qilib hujumchiga xakerlik qilish qiyin bo'lishini bilishi kerak. Agar honeypotni buzish juda oson bo'lsa ya'ni himoya qismiga e'tibor berilmasa, buzg'unchi yoki Xakerlar qiziqishlarini yo'qotishlari, hatto haqiqiy ishlab chiqarish tizimi bilan shug'ullanmayotganliklarini tushunishlari ham mumkin. Bunday holda honeypot o'z vazifasini bajara olmaydi. Boshqa tomondan, agar tizim juda kuchli himoyalangan bo'lsa, har qanday hujumlarni to'xtatish va hech qanday ma'lumot to'play olmaslik holati yuzaga keladi. Shunday qilib, qiyinchilik nuqtai nazaridan, hujumchilarni osonlik va qiyinchilik o'rtasidagi muvozanatni saqlagan holda jalb qilish haqiqiy vaziyatni simulyatsiya qilish uchun eng yaxshi kafolat bo'ladi.

Honeypotning afzalliklari va kamchiliklari.

Quyida honeypotlarning asosiy afzalliklari keltirilgan [8].

Yig'iladigan ma'lumotlar. Honeypotning qiymati uning hujumchilarning usullari va hatti-harakatlari haqida to'plagan ma'lumotlari, tajovuzkor esa uni kuzatib borilmayotganiga ishonishiga bog'liq. Boshqa tarmoq monitoringi vositalari, masalan, hujumlarni aniqlash tizimlari (IDS) honeypot kabi bir



xil darajadagi ma'lumotni taqdim etmaydi. Misol uchun, IDS shubhali faoliyatni aniqlash, ogohlantirishlarni yuborish va buzg'unchilarni imkon qadar tezroq to'xtatish uchun tarmoqlarni kuzatib boradi. IDS buzg'unchilar haqida ma'lumot to'plash va tahlil qilishiga qaramasdan, bu uning asosiy vazifasi emas.

Hujum modellarini aniqlash. Xavfsizlik bo'yicha tadqiqotchilar, sotuvchilar, korxonalar va boshqa tashkilotlar honeypotdan to'plangan ma'lumotlardan kiberhujumlarning senariylarini aniqlash uchun foydalanishlari va keyin hujumlarga qarshi turish uchun o'z mahsulotlari va strategiyalarini moslashtirishlari mumkin.

Tuzatish kerak bo'lgan zaifliklar. Korxonalar tarmoqni qidirish va himoyalash hamda bartaraf etilishi kerak bo'lgan zaifliklarni aniqlash uchun "honeypot" dan foydalanishi mumkin.

Yuqoridagi afzalliklar bilan birga Honeypotning foydalanuvchilari bilishi kerak bo'lgan kamchiliklari ham bor:

Honeypot xakerlar tomonidan buziladi. Honeypot to'g'ri o'rnatilishi kerak. Tajribali xakerlar noto'g'ri sozlangan honeypotda bo'lganligini bilib, tarmoq ma'muriga yolg'on ma'lumot berish uchun uni to'xtatib qo'yishi mumkin. Masalan, tizimni honeypot sifatida aniqlagan tajovuzkor administratorning e'tiborini xizmat ko'rsatish tizimida sodir bo'layotgan haqiqiy zararli hujumdan chalg'itish uchun yolg'on tizimda harakat qilishi mumkin.

Xizmat ko'rsatish tarmog'iga kirish. Honeypot DMZda bo'lsa-da, ular bir nuqtada ichki tarmoqqa ulanadi; malakali xaker ichki tarmoqqa kirish nuqtasi sifatida noto'g'ri sozlangan "honeypot" dan foydalanishi mumkin.

Zararli honeypotlarni joylashtirish. Xakerlar o'zlarining honeypotlarini ham yaratishlari mumkin. Soxta veb-sayt yaratadigan yoki Wi-Fi tarmog'ini aldaydigan va trafikni kuzatadigan xaker mohiyatan honeypotdan foydalanadi.

Ishlash prinsipi. Honeypotning ishlash prinsipi quyidagilardan iborat:

- *Sozlash*
- *Jalb qilish*
- *Monitoring*
- *Ma'lumotlarni yig'ish*
- *Tahlil:*
- *Ogohlantirish*

Honeypot *sozlashning* dastlabki bosqichida haqiqiy tizim yoki xizmatga o'xshash qilib tayyorlanadi. Tizim talabidan kelib chiqib, Linux Operatsion Tizimi (Ubuntu, Debian, CentOS) va dasturlar (Python, Git, pip) o'rnatiladi. Internet orqali kerakli paketlar yuklab olinadi, konfiguratsiya fallari tahrirlangandan so'ng honeypot ishga tushiriladi. Shu bilan birga Honeypotni izolyatsiya qilish uchun firewall texnologiyasi bilan birga, shubhali faoliyat aniqlanganda ogohlantirish berishi uchun Alert tizimlarini ham o'rnatish yuqori va o'rta darajali honeypotlarda tizim konfidensial ma'lumotlari xavfsizligini ta'minlaydi. Honeypot samarali ishlashi uchun sozlash jarayonining har bir bosqichga e'tibor qaratish zarur.

Hujumchilarni *jalb qilish* bosqichida Honeypot konfiguratsiyasida ma'lum zaifliklar yoki ochiq portlar kiberhujumchilarni e'tiborini tortish uchun qo'shiladi. U haqiqiy xizmatlarning hatti-harakatlarini taqlid qilib, qiziqarli ko'rinishga ega bo'ladi. Masalan Kippo asosan SSH (22-port) da ishlaydi. Hujumchilarni jalb qilish uchun esa boshqa portlarni (2222-port bo'lishi mumkin) ochiq qilib qo'yish mumkin. Va bu ochiq portlarda zaif lekin haqiqiy xizmatlar joylashtiriladi. Bundan tashqari, tizimda kuchsiz parollarni simulyatsiya qilish yoki mavjud bo'lgan foydalanuvchilar ro'yhatini yaratish va ularga zaif parollarni sozlash ham Xakerlarni jalb qilishi mumkin. Bularning asosi esa Honeypotning internetga bog'langanligi. Honeypotga simulyatsiya qilingan tizimning internet manbalaridagi reklamalar ijtimoiy tarmoqlarda qiziquvchilar sonining ortishiga sabab bo'ladi. SSH dan tashqari boshqa protokollarni (masalan, FTP yoki HTTP) ham simulyatsiya qilish mumkin. Bu ham yanada ko'proq hujumchilarni jalb qiladi.



Bundan tashqari honeypotga samarali jalb qilish uchun to'g'ri sozlash, ochiq portlarni tashkil etish va hujumchilarni qiziqtiradigan muhit yaratish zarur. Ushbu tavsiyalarni amalga oshirish orqali hujumchilarning harakatlarini yaxshiroq tushunish imkoniyatiga ega bo'linadi.

Monitoring bosqichida hujumchilar honeypot bilan o'zaro aloqaga kirganda, ularning harakatlari kuzatiladi va yozib olinadi. Bu quyidagilarni o'z ichiga oladi:


- Hujumchilarning IP manzillari
- Qanday hujumlar amalga oshirilgan
- Ishlatilgan vositalar va usullar

Ma'lumotlarni yig'ish: Har bir o'zaro aloqa yoziladi va bu qimmatli ma'lumotlar tahlil uchun xizmat qiladi. Bu ma'lumotlar kiberhujumchilarning hatti-harakatlarini va strategiyalarini aniqlashda yordam beradi.

Tahlil: Yig'ilgan ma'lumotlar tahlil qilinadi, bu esa kiberxavfsizlik choralarini yaxshilashga yordam beradi. Bu tashkilotlarga yangi tahdidlarni tushunishga yordam beradi.

Ogohlantirish: Ko'pgina honeypotlar shubhali faoliyat aniqlanganda xavfsizlik jamoasini tezkor xabardor qilish tizimlariga ega. Tizim xavfsizlik hodimlarining o'z vaqtida hujumlardan habardor bo'lishi ularning oqibatlarini bartaraf etish bilan birga, moddiy va boshqa turdagi yo'qotishlarga qarshi chora hisoblaniladi.

Klassifikatsiyalanishi.



2-rasm. Honeypotlar klassifikatsiyasi

Yuqori ta'sirli honeypotlar. Ular OTning barcha jihatlarini simulyatsiya qiluvchi haqiqiy tizimlardir. Ular yuqori xavf ostida bo'lishi mumkin.

O'rta ta'sirli honeypotlar. O'rta ta'sirli honeypotlarda simulyatsiya yuqori darajada bo'lmaydi. Haqiqiy ma'lumotlar xavfsizligi yetarli darajada ta'minlangan bo'ladi.

Kam ta'sirli honeypotlar. Bu turdagi honeypotlar tizimning ba'zi jihatlarini simulyatsiya qiladi. Ularni joylashtirish oson, xavf darajasi juda past bo'ladi. Ular uchun cheklangan ma'lumotlardan foydalaniladi.

Fizik honeypotlar. Ular haqiqiy mashinalar bo'lib, fizik honeypotlarga shaxsiy IP manzil beriladi. Odatda tarmoqda Firewall texnologiyalari bilan ketma ketlikda qo'llaniladi.

Virtual honeypotlar. Bu turdagi honeypotlar boshqa mashinalar tomonidan simulyatsiya qilinadi. Honeypotga yuborilgan tarmoq trafigiga javob qaytariladi. Bir vaqtning o'zida bir nechta mashinalarni o'rganishi mumkin.

Ishlab chiqarish honeypotlari. Bu xususiy va davlat muassasalari, kompaniyalar va korporatsiyalar tomonidan Internetdagi tarmoqlarga hujum qilishga intilayotgan Xakerlarning hatti-harakatlari va usullarini tekshirish uchun foydalaniladi.

Tadqiqot honeypotlari. Bu turdagi tuzoqlar universitetlar, kollejlarda, maktablar va boshqa tegishli muassasalarda ishlaydigan dasturchilar, tizim ma'murlari va loyiha jamoalarining menejerlari tomonidan qo'llaniladi.

Natijalar. Maqsadi va qo'llanilishi bo'yicha, hamda, tizimga va konfidensial ma'lumotlarga raqibning ta'sir doirasidan kelib chiqib honeypotlarning to'liq tavsifi quyidagi jadvallarda keltirilgan.

1-jadval. Foydalanish maqsadiga ko'ra

Tavsifi	Honeypot (xizmat ko'rsatish)	Honeypot (tadqiqot)
Asosiy tavsiflar (ta'rif)	Odatda, tashkilot xavfsizlikni yaxshilash uchun	U turli tarmoqlarda blackhatni



	uni boshqa xizmat ko'rsatish serverlari bilan birga xizmat ko'rsatish tarmog'ida joylashtiradi.	nishonga olish sabablari va taktikasi haqida ma'lumot to'plash uchun ishlatiladi.
Ilova maydonlari	Ulardan foydalanish oson va asosan korporatsiyalar tomonidan qo'llaniladi.	Asosan harbiy, davlat tashkilotlari va tadqiqot maqsadlarida foydalaniladi.
O'zaro ta'sir darajasi	Bular o'zaro ta'siri past bo'lgan honeypotlar bo'lib, ular tadqiqot honeypotlariga qaraganda kamroq ma'lumot beradi.	Ular odatda xakerlarning harakatlarini sinchkovlik bilan tahlil qilish va shunga mos ravishda tizimni himoya qilish uchun ishlatiladi.
Xavf darajasi	Bu tajovuzkorlar tomonidan tashkilot resurslarini yo'qotishning yuqori xavfi bilan bog'liq.	Bu kamroq xavf bilan bog'liq, chunki u tadqiqot maqsadlari uchun mo'ljallangan.
Axborotni joylashtirish va yig'ish	Ularni joylashtirish va faqat cheklangan ma'lumotlarni yig'ish oson.	Ularni joylashtirish va saqlash qiyin, chunki katta hajmdagi ma'lumotlarni to'playdi.

Yuqoridagi jadvalda Honeypotlarning foydalanish maqsadiga ko'ra turlarining to'liq tavsifi keltirilgan. Unga ko'ra ishlab chiqarish Honeypotlarida risk yuqori. Chunki ular tizimni simulyatsiya qiladi. Katta ma'lumotlar bilan ishlash esa tadqiqot Honeypotlarida ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

2-jadval: O'zaro ta'siriga ko'ra

Terminlar	Past darajadagi o'zaro ta'sir	Yuqori darajadagi o'zaro ta'sir
Ta'rif	Blackhat tizim bilan o'zaro aloqasi cheklangan va oz vaqt talab etadi, shuning uchun Blackhat tizimga kira olmaydi.	Maksimal darajada "blackhat" dan ma'lumot ola oladi, bu ularga butun tizimga kirishga yoki hatto uni buzishga imkon beradi.
Virtual mashinalar bilan ishlash	Bir nechta virtual mashinalarni bitta jismoniy tizimda osongina joylashtirish mumkin, virtual tizim qisqa javob vaqtiga ega, kamroq kod talab qilinadi, bu tizimning murakkabligini kamaytiradi.	Virtual tizimlarda ishlashi mumkin
Misollar	Honeyd, HoneyBOT va b.	Honeynet va b.
Tahdidlar	Xost tizimiga hujum qilish uchun juda kam zaifliklar mavjud va ba'zida ular allaqachon ma'lum.	Ilgari aniqlanmagan yangi hujumlar va anomaliyalarni aniqlaydi
Xavfsizlik	Tashkiliy nuqtai nazardan xavfsiz va xavfsiz.	Yuqori darajadagi himoya
Amalga oshirish uchun bilim	Past	Yuqori
Xizmat vaqti	Past	Juda yuqori
Rivojlanish bilimlari	Past	Yuqori
Qayta loyihalash va rivojlantirish	Oson	Oson
Texnik xizmat ko'rsatish	Oson bajariladi	Juda qiyin
O'zaro ta'sir	Cheklangan	Keng imkoniyatli
Aniqlash	Tuzoq sifatida oson aniqlanadi	Aniqlash qiyin
Modellashtirish	OTni va unga aloqador xizmatlarni simulyatsiya qiladi	Haqiqiy xizmatlar, ilovalar yoki qurilmalarni simulyatsiya qiladi
Xatarlar ehtimoli	Juda kam	Juda yuqori

2-jadvalda past va yuqori darajadagi o'zaro ta'sirli Honeypotlarning farqlanishi misollar bilan keltirilgan. O'rta ta'sirli Honeypotlarni xususiyatlaridan kelib chiqib past yoki yuqori ta'sirligiga qo'shish mumkin. Past ta'sirli Honeypotlarning eng sodd ko'rinishi dasturiy ilova (HoneyBot) bo'lishi mumkin. Honeynetlar esa ko'p xizmat vaqtini talab etadi va ularga texnik xizmat ko'rsatish juda qiyin. Bunga sabab ularda bir emas bir nechta serverlarni Honeypot sifatida bog'lashdir.

O'zaro ta'sir darajasiga ko'ra o'rnatilgan Honeypotlarni ko'rsatilayotgan xizmatlar, ma'lumotlarning yozib olinishi, qo'llanilish platformalari va ogohlantirish ehtimolliklariga ko'ra o'rganildi va 3,4- jadvallarga natijalar joylashtirildi.



3-jadval: Past o'zaro ta'sirli honeypot (LIH)
dasturi doirasida o'rnatilgan vositalar

Terminlar / Vositalar	Xizmatlar	Log faylga yozish	Platformalar	Ogohlantirish ehtimolligi
KFsensor	Ochiq proksi-serverlarni sinab ko'rish, Dameware, myDoom va blaster qurtlarini aniqlash [3].	Ha	Windows OS	Ro'yxatga olish va xabar berish mexanizmi qo'llaniladi
BackOfficer friendly	HTTP, FTP, Telnet yoki pochta - jami 7 xizmat	Yo'q	Windows OT (windows 95 va windows 98)	Masofaviy ro'yxatga olish, ogohlantirishlar yo'q
Labrea Tarpit	Tarmoqda foydalanilmagan IP manzillarni skanerlash, ularni yozib olish va spam sifatida belgilash orqali avtomatlashtirilgan hujumni to'xtadi.	Ha	Ubuntu	Ro'yxatga olish, shuningdek, bildirishnoma mexanizmi qo'llaniladi
Honeyd	Qurtlar va spamlarga qarshi nusxalash	Ha	Windows va Linux	O'rnatilgan bildirishnoma mexanizmi yo'q
HoneyRJ	Java interfeysi yordamida protokollarni qo'shish bilan kengaytirilishi mumkin.	Ha	Microsoft Windows XP Professional, Java Runtime Environment Version 1.5, Eclipse 3.4	Yuborilgan yoki qabul qilingan har bir paket alohida qatorda qayd etiladi.

4-jadval: Yuqori o'zaro ta'sirli honeypot (HIH)
dasturi doirasida o'rnatilgan vositalar [7]

Terminlar / Vositalar	Xizmatlar	Log faylga yozish	Platformalar	Ogohlantirish ehtimolligi
Mantrap	U asosiy OTning dublikatlarini yaratish uchun ishlatiladigan blokirovkalash xizmatlaridan foydalanadi	Ha	Virtual tizimda ishlaydi	Yaxshi tashkillashtirilgan xabar berish qobiliyati bilan yashirin kuzatuvni ta'minlaydi
Deception toolkit	Noodatiy trafikni blokirovka qilish uchun TCP ning himoyalash xizmatidan foydalanadi	Ha	Linux va Windows	Ogohlantirishlar bilan bir qatorda jurnallardan ham foydalanadi
Sebek	Linux nusxalarida ishlaydi	Ha	OC Linux	Tarmoq darajasida xabardor qiladi
Honeynets	Blackhat vositalari, strategiya va kontseptsiyani to'plash uchun mo'ljallangan.	Ha (Swatch jurnal faylini real vaqtda kuzatib boradi)	Bir vaqtning o'zida bir nechta tizimlardan foydalanadi, masalan, Solaris, Linux, Windows NT, Cisco router, Alteon switch	Kelishilgan nuqta bloklanganligi haqida xabar beradi.

5-jadval. Hujumlar bo'yicha honeypotlar tasnifi [20]

Xizmat turi	Amazon Services	Web	Google cloud	Microsoft Azure
Honeypot				
Dionaea	228075		162570	308102
Gutton	11878		84375	17256
Cowrie	4503		297818	9012
Heralding	1885		12255	3370
Mailoney	720		9419	146
Adbhoney	413		2497	442
Ciscoasa	260		750	134
Honeyppy	172		2149	497

Xulosa sifatida aytish mumkinki dinamik kiberxavfsizlik vositalari sifatida Honeypotlar ko'p hollarda namoyon bo'ladi, ularning turlari har biri o'ziga xos tarzda ajralib turadi va o'ziga xos maqsadlarga xizmat qiladi. Ushbu farqlar ko'pincha turli mezonlardan kelib chiqadi, bu ularning maqsadi, ularni amalga oshirish metodologiyasi yoki ular qarshi turish uchun mo'ljallangan o'ziga xos tahdid landshafti bilan bog'liq. Binobarin, eng mos honeypot turini tanlash muhim qaror bo'lib, bir nechta muhim omillarni diqqat bilan ko'rib chiqqandan keyin qabul qilinishi kerak. Taroziga soladigan birinchi omil tarmoqning hozirgi holatidir. Chunki tarmoq topologiyasini, masshtabini va u joylashgan muhim aktivlarini baholash muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Душода Курбаналиева, 2023. "Тarmoq xujumlarini aniqlash vositalari tahlili". Ж: Информатика и инженерные технологии.
2. A. Javadpour, F. Ja'Fari, T. Taleb and C. Benzaïd, "A Mathematical Model for Analyzing Honeynets and Their Cyber Deception Techniques," 2023 27th International Conference on Engineering of Complex Computer Systems (ICECCS), Toulouse, France, 2023, pp. 81-88, doi: 10.1109/ICECCS59891.2023.00019
3. Pawlick, J., Colbert, E., Zhu, Q., 2018. Modeling and analysis of leaky deception using



signaling games with evidence. *IEEE Trans. Inf. Forensics Secur.* 14 (7), 1871–1886.

4. *Shanto Roy, Nazia Sharmin, Mohammad Sujan Miah, Jaime C Acosta, Christopher Kiekintveld, And Aron Laszka.* Adversarial Reconnaissance Mitigation and Modeling. arXiv:2306.06769v1 [cs.CR].
5. *Lance Spitzner* (2002). Honeypots tracking hackers. Addison-Wesley. pp. 68–70. ISBN 0-321-10895-7.
6. *Katakoglu, Onur* (2017-04-03). "Attacks Landscape in the Dark Side of the Web" (PDF). acm.org. Retrieved 2017-08-09.
7. *Suhrobjon Bozorov, Nozima Akhmedova, Dilshoda Qurbonaliyeva and Kader Gultekin* 2024. "Survey on honeypot: detection, countermeasures and future with ML", AIP Conference Proceedings (ISSN:0094-243X; E-ISSN:1551-7616).



IOT TEXNOLOGIYASIDA BLOKCHEYN ASOSIDA MA'LUMOTLARNI XAVFSIZ ALMASHISHNING TAKOMILLASHGAN USULI

Xudoyqulov Z.T.,

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,
PhD, dotsent
zarif.khudoykulov@tuit.uz

Seidullayev M.K.

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,
katta o'qituvchi
mr.madiyar95@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi kunga kelib IoT texnologiyasi juda tez rivojlanayotgan texnologiyalarning biri hisoblanadi. IoT texnologiyasi yordamida juda ko'plab ma'lumotlar uzatiladi, qabul qilinadi va qayta ishlanadi. IoT texnologiyasiga qaratilgan kiberhujumlar soni ortib bormoqda, natijada xavfsizlikni ta'minlash dolzarb masallardan biriga aylandi. Ushbu maqalada IoT texnologiyasida qo'llaniladigan protokollar tahlil qilingan. Blokcheyn yordamida IoT ilovalari uchun xavfsiz autentifikatsiya va ma'lumot almashish tizimi arxitekturasi ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan tizim ko'p qatlamli arxitektura bo'lib, uchta qatlamdan iborat: qurilma qatlami, boshqaruvchi qatlami va saqlash qatlami. Tizimda autentifikatsiya algoritmi blokcheyn (aqli shartnoma) yordamida algoritmi takomillashtirildi. Ikki to'plam a'zolari o'rtasidagi aloqa xavfsizligini ta'minlash uchun AES simmetrik va Elliptik egri chiziq murakkabligiga asoslangan elektron raqamli imzo algoritmlari yordamida takomillashtirildi.

Kalit so'zlar: Buyumlar Interneti (IoT), REST, CoAP, MQTT, xavfsizlik, Blokcheyn.

I.Kirish

IoT atamasi dastlab Massachusetts texnologiya instituti qoshidagi Auto-ID Labs tadqiqot guruhi xodimi Kevin Eshton tomidan 1999-yilgi taqdimotda RFID texnologiyasini keng qamrovli tatbiq etishda paydo bo'lgan. IoT-bu fizik obyektlar o'rtasida Internet orqali ma'lumotlarni uzatish tarmog'i tushunchasi. Fizik va raqamli muhitlarni o'zaro bog'lash va integratsiyalash orqali aqli shaharlar, aqli uylar va Sanoat 4.0 kabi yangi tizimlarni taqdim etmoqda [1].

IoT texnologiyasining asosiy qurilmalarining hisoblash, quvvat va tarmoq imkoniyatlarini cheklanganligi bois, ularni amaliyotda qo'llashda alohida yondashuvni talab etadi. IoT texnologiyasini amaliyotda qo'llashda quyidagi keltirilgan protokollardan keng qo'llaniladi [2]:

- MQTT;

- CoAP;
- AMQP;
- Rest;
- XMPP;
- Stomp.

IoT texnologiyasida foydalanilgan protokollar REST. REST (Representational State Transfer) tarmoqdagi taqsimlangan dastur komponentlarining o'zaro ta'siri asosida quriladigan tarmoqning bir turi hisoblanadi. REST tarmog'ida asosan ma'lumotlarni almashishda CoAP protokolidan foydalanadi. REST tarmog'iga misol sifatida, agar mijoz X (harorat sensori) bo'lsa, X resursning Y holatini yaratib, uni tarmoq orqali uzatadi [3].

REST tarmog'ining asosiy talablari quyidagilar [3]:

1. Yagona interfeys (Uniform interface). Bitta resurs uchun so'rovning qayerdan kelganidan



qat'i nazar bir xil shaklda bo'lishi. REST tarmog'ida mijoz nomi yoki elektron pochta manzili kabi bir xil ma'lumotlar faqat bitta yagona resurs identifikatoriga (uniform resource identifier, URI) tegishli bo'lishi kerak.

2. Mijoz-server ajratish. REST tarmog'ida mijoz va server ilovalari bir-biridan butunlay mustaqil bo'lishi talab etiladi. Mijoz ilovasi faqatgina so'ralgan resursning URI bilishi kerak, ya'ni server ilovasi bilan aloqada bo'lmasligi kerak. Xuddi shunday server ilovasi ham so'ralgan ma'lumotlarni uzatishdan tashqari mijoz ilovasini o'zgartirmasligi kerak.


3. Makonsiz (Statelessness). Mijoz va server o'rtasidagi o'zaro aloqa protokoli quyidagi shartning bajarilishini talab qiladi: mijoz so'rovlari orasidagi davrda serverda mijozning holati to'g'risida hech qanday ma'lumot saqlanmaydi. Mijozning har bir so'rovi uni qayta ishlash uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, REST serveri bu so'rovni boshqa serverga jo'nata olishi kerak.

4. Kesh xotiraga yozish (Cacheable). Internet tarmog'ida bo'lgani kabi, REST tarmog'ida ham mijoz serverdan kelgan javoblarni kesh xotirga saqlashi mumkin. Server javoblarida mijozlar javoblarni kesh xotiraga saqlashi mumkin yoki mumkin emasligi haqidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga olishi kerak. Sababi eskirgan yoki noto'g'ri ma'lumotlarni saqlashga yo'l qo'ymaslik. Kesh xotiraga saqlash ba'zi bir mijoz-server aloqa muammolarini qisman bartaraf etishi va tizimning ishlashi tezligini samarali oshirish mumkin.

5. Ko'p qatlamli tizim arxitekturasi. Mijoz, odatda tarmoqlarning ierarxik tuzilishi (bunday tuzilma qatlamlarni tashkil etishini nazarda tutadi) tufayli to'g'ridan-to'g'ri server bilan yoki oraliq tugun bilan bog'langanini aniqlay olmaydi. Oraliq tugunlardan foydalanish tarmoq yuklanishini teng taqsimlashga va taqsimlangan kesh xotiralar sababli tizimning ishlash tezligini samarali oshirish mumkin.

CoAP (cheklangan dastur protokoli). Cheklangan dastur protokoli (Constrained application protocol, CoAP) - hisoblash, quvvat va tarmoq imkoniyatlari cheklangan qurilmalardan tuzilgan

tizimlar uchun mo'ljallangan protokollardan biri. IoT texnologiyalarida CoAP protokoli juda keng qo'llaniladi. CoAP protokoli odatda "Aqlli energiya" va "Aqlli shahar" kabi mashinadan mashinaga (M2M) ilovalar uchun mos keladi. CoAP protokoli strukturasi quyidagi 1-rasmda tasvirlangan.



1-rasm. CoAP protokli strukturasi


CoAP protokolining ishlash prinsipi HTTP protokoliga juda yaqin. CoAP protokoli yuqori yuklanish va cheklangan ulanish kabi xusiyatlarga ega tarmoqlarda samarali ma'lumot almashishni ta'minlaydi. CoAP protokoli xavfsizlik nuqtai nazaridan 128-bitli RSA kalitli shifrlash algoritmidan foydalanadi [4].

CoAP protokoli takroriy xabarlarini aniqlash uchun noyab identifikatordan (unique ID) foydalanadi. CoAP protokoli xabari quyidagi qismlardan iborat:

- Ikkilik sarlavha;
- Token;
- Foydali yuk.

CoAP protokolida ma'lumotning butunligini ta'minlash uchun tasdiqlangan xabar turidan foydalaniladi. Ushbu turdagi aloqada mijoz va server orasidagi xabarlar ikkinchi tomon tasdiq xabarini(ACK) jo'natmaguncha doimiy ravishda qayta yuboriladi. Agarda mijoz va server orasidagi xabarlar ikkinchi tomon tasdiqlashini talab qilmasa tasdiqlanmagan xabar(NON) turidan foydalaniladi. Ushbu turdagi xabarlarda ma'lumotning butunligini ta'minlash darajasi past hisoblanadi. CoAP protoklida ma'lumotlar almashish jarayoni quyidagi 2-rasmda tasvirlangan.





2-rasm. CoAP protoklida ma'lumotlar almashish jarayoni


CoAP protokolida quyidagi so'rovi turlari mavjud:

- GET - resurslarni qidiradi va URI havolasida ko'rsatilgan manbaga mos keladigan ma'lumotlarni taqdim etadi;
- POST - resursdagi harakatni o'zgartirish uchun javobgardir;
- PUT - resursda yangi amalni o'rnatadi;
- DELETE - faollashtirilgan resurs imkoniyatlarini o'chirishga xizmat qiladi.

CoAP protokolida mavjud xavfsizlik muammolari. CoAP protokoli matnga asoslangan protokol bo'lib, tahdidlarni aniqlash va ulardan himoyalani usullari mavjud emas. Xavfsizlik nuqtayi nazaridan qo'shimcha DTLS xavfsizlik paketi ishlatishni talab qiladi. CoAP protokolida xabarlarini spoofing qilish muammosi ham mavjud. IoT texnologiyasida avtorizatsiya uchun CoAP protokolida qo'shimcha funktsiya mavjud emas. Protokolda xabar sarlavhasida token identifikatori mavjud bo'lib, u xabarni qaytadan o'zgaritib jo'natishga imkon beradi.

MQTT (cheklangan dastur protokoli). MQTT protokoli IoT texnologiyalarida keng qo'llaniladigan mashinadan mashinaga (M2M) protokollaridan biri hisoblanadi. Deyarli barcha IoT texnologiyalari qurilmalari MQTT protokolini qo'llab-quvatlaydi. MQTT protokoli ma'lumot almashish uchun nashriyotchi/obunachi (publish/subscribe) maxsus modelidan foydalanadi. U ma'lumot almashishning asosi sifatida TCP stekidan foydalanadi. MQTT protokoli ma'lumot hajmiga qaramasdan yuqori

o'tkazuvchanlik qobiliyatiga ega va doimiy seansni ta'minlaydi. Bu IoT texnologiyalarida qurilmalarga qo'yiladigan talablarni minimallashtirishga yordam beradi. MQTT protokolida ma'lumotlar almashish jarayoni quyidagi 3-rasmda tasvirlangan.



3-rasm. MQTT protoklida ma'lumotlar almashish jarayoni

MQTT vositachi – bu xabarlarini jo'natish va qabul qilishda filtrlash vazifasini bajaradigan server. Nashriyotchi – bu MQTT vositachiga ma'lumot jo'natuvchi mijoz hisoblanadi. Obunachi – bu MQTT vositachidan kerakli ma'lumotni qabul qiluvchi mijoz hisoblanadi.

MQTT protokolida xabarning muhimlik darajasini aniqlashda QoS (Xizmat sifati) bayroqlaridan foydalanadi. MQTT protokoli 3 xil QoS darajasini qo'llab-quvatlaydi [5]:

- QoS 0 - xabarni etkazib berish bir martadan ko'p bo'lmagan holda amalga oshiriladi. Muvaffaqiyatsiz bo'lsa, xabar yo'qoladi.
- QoS 1 - xabarni yetkazib berish kamida bir marta amalga oshiriladi. Yuborish qabul qiluvchi tomonidan tasdiqlanmaguncha takrorlanadi.
- QoS 2 - xabarni etkazib berish faqat bir marta amalga oshiriladi. MQTT protokoli aloqa kanalida muammo bo'lsa, etkazib berish kechiktiriladi. Biroq, har qanday holatda aloqa tiklanganda qabul qiluvchi xabar oladi.

MQTT protokolida bir qancha xavfsizlik xususiyatlari mavjud, bu CoAP protokoliga solishtirganda MQTT protokoli yordamida samarali xavfsizlikni ta'minlash mumkin. MQTT protokolida quyidagi xususiyatlari mavjud:

- chekka nuqta qurilmalarida shifrlash xususiyatiga ega va "o'rtadagi odam" (MITM) hujumlardan himoyalangan hisoblanadi;



- mijozlarni autentifikatsiya va avtorizatsiya qilish;

- server autentifikatsiyadan o'tgan qurilmaga faqatgina tegishli ma'lumotlarni jo'nata oladi, bu Ping of Death kabi hujumlarning oldini oladi;

- ikki tomonlama autentifikatsiyani qo'llab-quvvatlaydi, IP-spoofing hujumlarini bartaraf qilishga yordam beradi;

- MQTT vositachilar sertifikatlar asosida autentifikatsiyani ham o'z ichiga olishi mumkin.

IoT tizimining xavfsizlik muammolari.

Bugungi kunga kelib IoT texnologiyalari rivojlangan bo'lsada, xavfsizlik bilan bog'lik jiddiy muammolar mavjudligini ko'rish mumkin. Quyida bir qancha IoT texnologiyalaridagi xavfsizlik muammolari keltirib o'tamiz:

- ma'lumotlar yaxlitligini ta'minlash;
- yuqori markazlashgan boshqaruv usuli;
- turli kiberhujumlarga qarshi

himoyasizligi;

- markaziy nuqta nosozligi butun tizim nosozligiga sabab bo'lishi;

- boshqaruvsiz muhitlar.

II. Adabiyotlar tahlili

IoT xavfsizligini ta'minlashning an'anaviy usullari. Dunyo bo'ylab bir qancha olimlar tomonidan IoT uchun juda ko'p xavfsizlik tizimlari ishlab chiqilgan. Bu tizimlar hisoblash, quvvat va tarmoq imkoniyatlarini cheklangan qurilmalarga moslashtirilgan. Jain M.A. va boshqalar keltirgan maqolasida, IoT tizimida yangi qo'shilgan qurilmani autentifikatsiya qilish arxitekturasi taklif qilingan. Taklif qilingan arxitekturada qurilmalar bir-biri bilan aloqa qilish uchun CoAP protokolidan foydalanadi. Bu arxitekturaning boshqa arxitekturalardan farqi to'rt tomonlama autentifikatsiyadan foydalanadi. Arxitekturaning kamchiligi sifatida Sybil va qurilmaga qaratilgan hujumlarga nisbatan zaifligini ko'rsatish mumkin [6]. Yao X. va boshqalar tomonidan Elliptik egri chiziqqa asoslangan yengil sertifikatizatsiya ochiq kalitli kriptografiya tizimi taklif qilingan. Taklif qilingan tizimni mavjud sertifikatizatsiya ochiq kalitli kriptografiya tizimlariga solishtirganda hisoblash vaqti kam ekannin ko'rish mumkin. Maqolada

ma'lumotlarni xavfsiz saqlash va almashish to'g'risida ma'lumotlar keltirilmagan [7]. Roman R. va boshqalar, bulutli hisoblash va chekka nuqta kompyuterlarga asoslangan xavfsizlik tizimi taklif qilindi va bu tizimni "Virtual immunitet tizimi" deb nomlandi. Taklif qilingan tizimning tarkibiy qismlaridan biri tahdidlarni tahlil qilish. Bu tarkibiy qismning vazifasi yangi tahdidlarni aniqlash [8]. Alqahtani F. va boshqalar, IoT texnologiyasida bulutli hisoblash tizimiga asoslangan autentifikatsiya qilish usuli taklif qilindi. Taklif qilingan usulda IoT texnologiyalarida turli tahdidlarni aniqlash uchun monitoring sxemasi keltirilgan [9]. Wozid M. va boshqalar IoT texnologiyasi uchun bulutli hisoblashga asoslangan engil autentifikatsiya tizimini taklif qildi. Foydalanuvchilar IoT texnologiyasi kirish uchun autentifikatsiyadan o'tishi zarur [10]. Tahlil qilingan maqolardan xulosa qilib, taklif qilingan tizimlarda hisoblash, saqlash, aloqa yuklanishi va kiberhujum muammolari mavjud.


Blokcheyn yordamida IoT texnologiyasi xavfsizligi ta'minlash. Hozirgi kunga kelib IoT texnologiyalari uchun tadqiqotchilar tomonida bir qancha xavfsizlik tizimlari taklif qilishgan. Lekin markazlashtirilmagan boshqaruv, ma'lumotlarni xavfsiz saqlash, cheklangan qurilmalar uchun engil hisoblash, xavfsiz aloqa va qurilmalarni autentifikatsiya qilish kabi ba'zi takomillashtirilishi kerak bo'lgan sohalar mavjud. Ushbu sohalarni blokcheyn yordamida takomillashtirishda ba'zi chet el tadqiqotchilar taklif qilgan tizimlarni tahlil qilamiz. Shen M. va boshqalar tomonidan blokcheynga asoslangan xavfsiz SVM (vektor mashinasini qo'llab-quvvatlash) deb nomlangan tizim taklif qilindi. Taklif qilingan tizimning xavfsizligini ta'minlash uchun blokcheyn xususiyatlarida foydalanilgan [11]. Hammi M. va boshqalar, blokcheyn konsepsiyasi asosida qurilgan IoT ilovasi tizimini taklif qilishdi. Tizimda xavfsiz aloqani ta'minlash uchun dastlab xavfsizlik qabariqini yaratadi. Bu tizimning zaifliklaridan bir nechtasini ko'rish mumkin, yuqori hisoblashga asoslangan, DDoS va o'rtadagi odam (MitM) hujumlarini bartaraf qilish mumkin emas [12]. Tang B. va boshqalar, IoT texnologiyasi infratuzilmasida juda muhim bo'lgan platformalar aro aloqani



ta'minlaydigan IoT pasporti deb nomlangan tizimni taklif qilishdi. Taklif qilingan tizimda blokcheynga asoslangan autentifikatsiya va avtorizatsiya tizimlari keltirilgan. Tizim Sybil va Botnet hujumlariga zaif xisoblanadi [13]. Viriyasitavat W. va boshqalar tomonidan markazlashtirilmagan blokcheynga asoslangan IoT arxitekturasi taklif qilindi. Taklif qilingan tizim qurilmani xavfsiz ro'yxatdan o'tkazish va autentifikatsiya qilish uchun aqlli shartnomadan foydalanadi [14]. Beini Zhou va boshqalar identifikatsiya uchun shifrlash va blokcheyn kombinatsiyasidan foydalangan tizim taklif qildi. Ushbu tizimda har bir subyekt uchun Key Generation Center (KGC) tomonidan shaxsiy kalit beriladi. Tizimning asosiy kamchiliklaridan biri yuqori hisoblash va o'rtadagi odam (MitM) hujumini bartaraf qilish mumkin emas [15]. Ali Dorri va boshqalar blokcheynga asoslangan ikki qatlamli boshqarish tizimini taklif qildi. Ushbu tizimda markazlashtirilmagan boshqaruv, aloqa xavfsizligi va maxfiyligi uchun blokcheynda foydalanilgan. Bu tizimning asosiy kamchiligi hisoblash uchun katta resurslar kerak bo'lishi [16]. Lei Zhang va boshqalar tomonidan soxta xabarlarini aniqlash uchun Transport vositalari interneti (IoV) ni bir necha qismimlarga ajratish tizimi taklif qilindi. Bu qismimlar soxta xabar aniqlaganda ma'lumotni tekshirishga yordam beradi [17].

III. Materiallar va usullar

Taklif etilayotgan tizim ko'p qatlamli arxitektura bo'lib, uchta qatlamdan iborat: qurilma qatlami, boshqaruvchi qatlami va saqlash qatlami. Taklif etilayotgan tizim ko'p qatlamli arxitekturasi quyidagi 4-rasmda tasvirlangan. Qurilma qatlami IoT tizimidagi qurilmalarni o'z ichiga oladi. Boshqaruvchi qatlamida blokcheyn serverini yaratish uchun mas'ul bo'lgan to'plam boshqaruvchisi joylashgan bo'lib, uning asosiy vazifalari qurilmalarni autentifikatsiya qilish, blokklar va to'plamlarni yaratish, S_k maxfiy kalitini yaratish hisoblanadi [18].



4-rasm. Tizim arxitekturasi

Elliptik egri chiziq murakkabligiga asoslangan elektron raqamli imzo algoritmi (EECHERI)

Elliptik egri chiziq murakkabligiga asoslangan elektron raqamli imzo algoritmi (EECHERI) - bu ochiq kalitni shifrlash tizimining algoritmlarida biri hisoblanadi. EECHERI algoritmi DSA elektron raqamli imzo algoritmining modifikatsiyasi hisoblanadi. Agar M_i foydalanuvchi xabar yubormoqchi bo'lsa, u avval xabarga elektron raqamli imzo qo'yadi va uni M_j foydalanuvchiga ga yuboradi. M_j foydalanuvchi elektron raqamli imzoni tekshiradi, shundan so'ng agar elektron raqamli imzo haqiqiy bo'lsa ma'lumot almashuvni boshlaydi [19].

Burchak masofasi (BM)

Burchak masofasi (BM) - bu ikki obyekt orasidagi masofani hisoblash uchun ishlatiladi. Taklif etilayotgan tizimda to'plamga qo'shilishni istagan IoT qurilmasi va to'plam boshqaruvchisi orasidagi masofani hisoblash uchun BM dan foydalanilgan [20].

Burchak masofasini topish uchun

$$\begin{bmatrix} \cos \alpha & \sin \alpha & 0 \\ -\sin \alpha & \cos \alpha & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{bmatrix}$$

burchak matritsasidan foydalaniladi. Agar to'plam a'zosi dastlabki koordinataga nisbatan α burchak ostida harakat qilsa, u holda to'plam a'zosining yangi koordinatalarini 1-tenglama yordamida hisoblash mumkin. Agar qurilma birinchi marta to'plamga kiritilgan bo'lsa, u holda burchak 0 daraja bo'ladi, chunki oldingi koordinata yo'q. To'plam a'zosining yangi koordinatasi hisoblagandan so'ng masofani 2-tenglama bo'yicha hisoblanadi. Endi IoT qurilmasi $P_i(X_i, Y_i)$ koordinatasida deylik, harakatdan so'ng, yangi koordinata $P_i'(X_i', Y_i')$ va to'plam boshqaruvchisi



koordinatasi $P_{TB}(X_{TB}, Y_{TB})$, burchak masofasi quyidagicha hisoblanadi:

$$\begin{bmatrix} X'_i \\ Y'_i \\ 1 \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} \cos \alpha & \sin \alpha & 0 \\ -\sin \alpha & \cos \alpha & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{bmatrix} \begin{bmatrix} X_i \\ Y_i \\ 1 \end{bmatrix} \quad (1)$$

$$d_{i,j} = \|X_{TB} - X_i\| + \|Y_{TB} - Y_i\| \quad (2)$$

Bu erda $\| \|$ absolyut farqdir.

Merkle daraxti

Merkle daraxti - bu bloklardagi turli tranzaksiyalarning xeshlari yozilgan qaydnoma, ya'ni blokdagi barcha tranzaksiyalarning qisqacha mazmuni hisoblanadi. Shu sababli, u Xesh daraxti deb ham ataladi. Bu blok tarkibini samarali va xavfsiz tekshirishga yordam beradi. Bitkoin va Ethereum blokcheynlari tranzaksiyalar uchun Merkle daraxtidan foydalanadi. Taklif etilayotgan tizimda uzatilgan xabarlar tranzaksiyalar sifatida ko'rib chiqiladi. Tekshiruvchi ushbu barcha tranzaksiyalarni to'playdi va blokcheynga qo'shiladigan yangi blokni yaratish uchun Merkle daraxtini yaratadi [21-22].

Aqlli shartnoma

Aqlli shartnoma odatda ikki tomon o'rtasida raqamli aktivlar yoki ma'lumotlarning uzatilishini avtonom tarzda boshqaradigan if-then prinsipiga asoslangan shartli kompyuter dasturidir. Bu haqiqiy dunyo shartnomasiga juda o'xshaydi, lekin raqamli shaklda va blokcheyn ichida saqlanadi. Ular oldindan belgilangan muayyan shartlar yuzaga kelganda avtomatik ravishda amalga oshiriladi. Aqlli shartnomaning asosiy g'oyasi juda oddiy va uni quyidagicha tushuntirish mumkin [23-24]:

1. AGAR bu shart to'g'ri bo'lsa, unda bu harakatni bajarish kerak.
2. AGAR bu narsa mavjud bo'lsa, unda bu harakatni bajaring. Ya'ni, bu to'g'ri yoki noto'g'ri bo'lishi mumkin bo'lgan shartga muvofiq harakat qilinadigan shartli bayonotdir.

IV. Natija

Blokcheyn yordamida IoT ilovalari uchun xavfsiz autentifikatsiya tizimi

Taklif etilayotgan tizimda to'plamga qo'shilishdan oldin har bir qurilma xavfsiz autentifikatsiya mexanizmidan o'tishi kerak va

shundan keyingina u boshqa to'plam qurilmalari bilan aloqa o'rnatishi mumkin. Tizimda xavfsizlik mexanizmini ta'minlash uchun gibril kriptografiyadan foydalanilgan. To'plam a'zolari (TA) va to'plam boshqaruvchisi (TB) o'rtasidagi aloqa xavfsizligini ta'minlash uchun EECHERI dan foydalanilgan.

To'plamlar burchak masofasi (BM) asosida yaratiladi, ya'ni to'plamga qo'shilishni va TA bo'lishni xohlovchi qurilma birinchi navbatda TB dan ma'lum masofada bo'lishi kerak. Qurilma TB diapazoniga kirgach, u to'plamga qo'shilish uchun so'rov yuboradi (bu D_{id} qurilma identifikatorini o'z ichiga oladi). TB qurilmani tekshiradi va keyin ochiq kalit TK_{och} ni qurilmaga yuboradi. TB dan ochiq kalitni olgandan so'ng qurilma to'plam a'zosiga aylanadi. TB shuningdek, blokcheyn serverida qurilma identifikatorini o'z ichiga olgan blok yaratadi.

Algoritm-1 ikki koordinata nuqtasi orasidagi masofani aniqlaydi. Argument sifatida ikki nuqtaning koordinatalarini oladi va masofani aniqlaydi. $Nuqta_D$ qurilmasi (X_D, Y_D) koordinatalariga ega va TB ning $Nuqta_{TB}$ qurilmasi (X_{TB}, Y_{TB}) koordinatalariga ega.

1-jadval. Belgilar ta'rifi.

Belgi	Ta'rif
$E(K(X))$	X ni K kalit yordamida shifrlash
$D(K(X))$	X ni K kalit yordamida rasshifrlash
$H(X)$	X ni xesh qiymati
D_{id}	i -chi qurilmaning noyob identifikatori
n_i	i -komponentning psevd tasodifiy soni
R	To'plam radiusi
\oplus	XOR amali
$\ $	Birlashtirish operatsiyasi
S_k	Bir martalik maxfiy kalit
BK_{och}, BK_{sha}	Blokcheyn serverining ochiq va shaxsiy kalitlari
TB_{och}, TB_{sha}	To'plam boshqaruvchisining ochiq va shaxsiy kalitlari
$\Delta T_i, i=1,2,3...$	Vaqt chegarsi



k, ξ	Maxfiy ma'lumotlarni almashish uchun foydalaniladigan o'zgaruvchilar
$T_i, i=1,2,3...$	Vaqt
$T_i^*, i=1,2,3...$	Joriy vaqt
X_D, Y_D	Qurilmaning koordinatalari
X_{TB}, Y_{TB}	To'plam boshqaruvchisining koordinatalari
d_{ij}	i va j orasidagi masofa

Algoritm-1: Burchak masofasini topish algoritmi.

Kirish: $P_D, P'_D, P_{TB} : P_D, P_{TB}$ dastlabki koordinatlar va P'_D harakatdan keyingi koordinatalari.

Chiqish: d_{ij} : Bu ikkita qurilma orasidagi masofa (masalan, TA, TB)

- $P_D \leftarrow X_D, Y_D$ // qurilmaning koordinatalari
- $P_{TB} \leftarrow X_{TB}, Y_{TB}$ // to'plam boshqaruvchisining koordinatalari

$$3. \begin{bmatrix} X'_D \\ Y'_D \\ 1 \end{bmatrix} \leftarrow \begin{bmatrix} \cos \alpha & \sin \alpha & 0 \\ -\sin \alpha & \cos \alpha & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{bmatrix} \begin{bmatrix} X_D \\ Y_D \\ 1 \end{bmatrix} // \text{bu}$$

tenglama qurilmaning yangi koordinatalarini hisoblash uchun ishlatiladi P_D va (X'_D, Y'_D) yangi koordinatalar.

- $d_{TB,D} \leftarrow \|X_{TB} - X'_D\| + \|Y_{TB} - Y'_D\|$ // Qurilma va to'plam boshqaruvchisi orasidagi masofa.


To'plam yaratish va qurilmani autentifikatsiya qilish jarayoni quyida keltirilgan 4 bosqichdan iborat:

- D_i qurilmasining D_{id} qurilma identifikatori, $P_i(X_i, Y_i)$ qurilma koordinatalari, T_2 vaqt aniqlanadi. Keyin $D_i, Req_{id} = D_{id} \oplus n_1 T = H(Req_{id} \| T_1)$ sifatida to'plamga qo'shilish so'rovini yaratish uchun hisob-kitoblarni amalga oshiradi va $(T, Req_{id} \| T_2)$ ni to'plam boshqaruvchisiga yuboradi.
- So'rovni olgandan so'ng, TB birinchi navbatda $\Delta T_1 \geq T_3 - T_2$ to'g'riligini tekshiradi, aks holda so'rov rad etiladi. Agar shart to'g'ri bo'lsa, boshqaruvchi burchak masofasidan foydalangan holda masofani hisoblab chiqadi (1-algoritm), agar qurilma boshqaruvchining to'g'ri diapazonida

bo'lsa, u harakat qiladi va $T^* = H(Req_{id} \| T_2)$ ni hisoblab chiqadi, keyin $T^* = T$ to'g'riligini tekshiradi va agar shunday bo'lsa, u $T_H = H(Req_{id}), T_{PH} = H(Get(lastBlock))$ sifatida hisoblashni amalga oshiradi (Merkle daraxti konsepsiyasidan foydalangan holda), so'ngra $Bl = T_H, Req_{id}, T_1, T_{PH}$ sifatida blokcheynda (PoS konsepsiyasidan foydalangan holda) blok yaratadi. Shundan so'ng, u yaratilgan blokni blokcheyn serverining BK_{och} ochiq kaliti yordamida shifrlaydi $CT = E(BK_{och}(Bl))$ va (CT, TB_{id}, T_3) ni boshqa to'plamlar bilan almashish uchun blokcheyn serveriga yuboradi. Bundan tashqari, TB umumiy kalitni so'ragan qurilma bilan almashish uchun $k = TB_{och} \oplus n_2, \xi = Req_{id} \oplus n_2$ sifatida k va ξ ni hisoblab chiqadi. Keyin D_i qurilmasiga (k, ξ, T_3) yuboradi.

- Blokcheyn serveri to'plam boshqaruvchisidan shifrlangan yangi blok oladi. U birinchi navbatda $\Delta T_2 \geq T_3 - T_4$ to'g'riligini tekshiradi, agar to'g'ri bo'lsa, u o'zining BK_{sha} shaxsiy kalitini $PT = D(BK_{sha}(CT))$ sifatida ishlatib, CT shifrini ochadi va keyin bu yangi blokni barcha to'plam boshqaruvchilarga xavfsiz tarzda uzatadi.
- To'plam boshqaruvchisidan javob olgandan so'ng, D_i birinchi navbatda $\Delta T_3 \geq T_3 - T_1$ to'g'riligini tekshiradi, agar to'g'ri bo'lsa, keyin D_i qabul qilingan javobdan $Get(n_2) = \xi \oplus D_{id}, Get(TB_{och}) = k \oplus n_2$ sifatida to'plam boshqaruvchisining ochiq kalitini hisoblaydi va keyingi aloqalar uchun TB_{och} ni saqlaydi. Ushbu protsedura boshqa qurilmalar tomonidan amalga oshiriladi va biz har bir qurilma TB dan autentifikatsiya qilingan xavfsiz qurilmalar to'plamini yaratamiz.





5-rasm. To'plam yaratish va qurilma autentifikatsiyasi qilish jarayoni

Maxfiy kalitni yaratish va M2M aloqasi

Ikki to'plam a'zolari o'rtasidagi aloqa xavfsizligini ta'minlash uchun 192 bitli AES simmetrik kriptografiya algoritmidan foydalanilgan. To'plam a'zolari bir-biri bilan aloqa qurishdan foydalanadigan simmetrik kalitni to'plam boshqaruvchisidan oladi. To'plam a'zosi va to'plam boshqaruvchisi o'rtasidagi aloqa uchun Elliptik egri chiziq murakkabligiga asoslangan elektron raqamli imzo algoritmidan foydalanilgan. Tepadagilarni umumiy qilib aytganda aloqa xavfsizligini ta'minlash uchun gibrid kriptotizimdan foydalanilgan. Taklif etilayotgan aloqa usuli quyida keltirilgan 7 da bosqichdan iborat:

- To'plam a'zosi M_i so'rov sifatida $Req[M_i||T_i]$ ni M_j (boshqa to'plam a'zosi) ga yuboradi.
- To'plam a'zosi M_j so'rovni qabul qiladi va birinchi navbatda tekshiradi $\Delta T_1 \geq T_i^* - T_i$ to'g'ri yoki noto'g'ri, agar to'g'ri bo'lsa, M_i to'plam a'zoning haqiqiylikini tekshirish va bir martalik maxfiy kalit yaratish uchun to'plam boshqaruvchisiga so'rov sifatida yuboradi $Req[E(TB_{och}(M_i||M_j||T_i||T_j))]$ yuboradi va javobni kutadi.
- To'plam boshqaruvchisi M_j dan so'rovni olgandan keyin, avval tekshiradi $\Delta T_2 \geq T_j^* - T_j$ agar to'g'ri bo'lsa, to'plam boshqaruvchisi ikkala a'zoni ham haqiqiylikini tekshiradi. Tekshirishdan so'ng, bir martalik maxfiy kalit S_k ni yaratadi, javobni ikkala a'zoga $Res[E(TB_{sha}(S_k \oplus M_i \oplus M_j)||T_j)]$, $Res[E(TB_{sha}(S_k \oplus M_i)||T_i)]$, M_j va

M_i a'zolariga mos ravishda yuboradi. Agar so'ragan a'zoldan biri to'plam boshqaruvchisi tomonidan topilmasa, boshqa to'plam boshqaruvchilar xabardor bo'lishi uchun ogohlantirish xabari ishlab chiqariladi.

- To'plam a'zosi M_i bir martalik maxfiy kalit S_k ni olish uchun qabul qilingan javobni $A = D(CKoch(E(TB_{sha}(S_k \oplus M_i)||T_i)))$ hisoblaydi va keyin $\Delta T_2 \geq T_i^* - T_i$ tekshiradi, agar to'g'ri bo'lsa $Get(S_k) = A \oplus M_i$ hisoblaydi va S_k ni aloqa uchun saqlab qo'yadi.
- To'plam a'zosi M_j javob sifatida $Res[T_i||T_j]$ ni M_i ga yuboradi, ya'ni u keyingi xabarni qabul qilishga tayyor.
- To'plam a'zosi M_i xabar yaratadi ($Xabr_1$) va uni bir martalik maxfiy kalit yordamida (AES shifrlash algoritmi) shifrlaydi $E(S_k(Xabr_1))$ va M_j ga yuboradi.
- To'plam a'zosi M_j qabul qiladi va xuddi shu kalit yordamida shifrnı ochadi, keyin u xabar yaratadi ($Xabr_2$) va uni shifrlagandan $E(S_k(Xabr_2))$ keyin M_i ga yuboradi, xuddi shunday qilib ikki to'plam a'zosi o'rtasida aloqa davom etadi.

Algoritm-2: Maxfiy kalitlarni yaratish.

Kirish: Q_n, R_n

Chiqish: S_k : bu bir martalik maxfiy kalit

1. $Q_n = randomNumber()$

2. $R_n = randomNumber()$

3. **agar** $Q_n = Tub\ son\ keyin$

agar $R_n = Tub\ son\ keyin$

$N = (Q_n - 1) * (R_n -$


1)

$E =$

$randomNumber()\%1000$ // "% mod operatsiyasi

$S_k = N^E$





6-rasm. Maxfiy kalit yaratish va M2M aloqa jarayoni

Xulosa. Bugungi kunga kelib IoT texnologiyalari rivojlangan bo‘lsada, xavfsizlik bilan bog‘liq jiddiy muammolar mavjudligini ko‘rish mumkin. Ushbu maqolada IoT texnologiyasida qo‘llaniladigan REST, CoAP, MQTT protokollari tahlil qilindi. IoT texnologiyasidagi xavfsizlik muammolari ko‘rsatib o‘tilgan. Blokcheyn yordamida IoT ilovalari uchun xavfsiz autentifikatsiya va ma’lumot almashish tizimi arxitekturasi ishlab chiqildi. Taklif etilayotgan tizim ko‘p qatlamli arxitektura bo‘lib, uchta qatlamdan iborat: qurilma qatlami, boshqaruvchi qatlami va saqlash qatlami. Tizimda autentifikatsiya algoritmi blokcheyn (aqli shartnoma) yordamida takomillashtirildi va ikki to‘plam a‘zolari o‘rtasidagi aloqa xavfsizligini ta’minlash uchun AES simmetrik va Elliptik egri chiziq murakkabligiga asoslangan elektron raqamli imzo algoritmlari foydalanilgan.

Keyingi ilmiy tadqiqotlarimizda taklif etilayotgan tizimni turli xil xavfsizlik hujumlariga qarshi tahlil qilish va mavjud boshqa tizimlar bilan solishtirma tahlil o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. HaddadPajouh H. et al. A survey on internet of things security: Requirements, challenges, and solutions //Internet of Things. -2021. -T.14. -C. 100129
2. Srivastava, S., Chaurasia, B.K., Singh, D.: Blockchain-based IoT security solutions. In: Distributed Computing to Blockchain, pp. 327–339. Academic Press (2023)

3. Roy T. Fielding. Chapter 5 of dissertation “Representational State Transfer (REST)”. - 2020.
https://ics.uci.edu/~fielding/pubs/dissertation/rest_arch_style.htm
4. RFC 7252, Constrained Application Protocol (CoAP).
<https://datatracker.ietf.org/doc/html/rfc7252>
5. Bryan Boyd et al. Building Real-time Mobile Solutions with MQTT and IBM MessageSight. IBM Redbooks, 2014
6. Jan Mian Ahmad, Priyadarsi Nanda, Xiangjian He, Zhiyuan Tan, Ren Ping Liu. A robust authentication scheme for observing resources in the internet of things environment 2014 IEEE 13th International Conference on Trust, Security and Privacy in Computing and Communications, IEEE (2014), pp. 205-211
7. Xuanxia Yao, Xiaoguang Han, Xiaojiang Du. A light-weight certificate-less public key cryptography scheme based on ECC. 2014 23rd International Conference on Computer Communication and Networks, ICCCN, IEEE (2014), pp. 1-8
8. Rodrigo Roman, Ruben Rios, Jose A. Onieva, Javier Lopez. Immune system for the internet of things using edge technologies. IEEE Int. Things J. (2018)
9. Fayez Alqahtani, Zafer Al-Makhadmeh, Amr Tolba, T.B.M. Omar Said. A trust-based monitoring security scheme to improve the service authentication in the Internet of Things communications. Comput. Commun., 150 (2020), pp. 216-225
10. Mohammad Wazid, Ashok Kumar Das, Vivekananda Bhat, Athanasios V. Vasilakos. LAM-CIoT: lightweight authentication mechanism in cloud-based IoT environment. J. Netw. Comput. Appl., 150 (2020), Article 102496
11. Meng Shen, Xiangyun Tang, Liehuang Zhu, Xiaojiang Du, Mohsen Guizani. Privacy-preserving support vector machine training



- over blockchain-based encrypted IoT data in smart cities. *IEEE Int. Things J.* (2019)
12. Hammi Mohamed Tahar, Badis Hammi, Patrick Bellot, Ahmed Serhrouchni. Bubbles of Trust: a decentralized blockchain-based authentication system for IoT. *Comput. Secur.*, 78 (2018), pp. 126-142
 13. Bo Tang, Hongjuan Kang, Jingwen Fan, Qi Li, Ravi Sandhu. IoT passport: a blockchain-based trust framework for collaborative internet-of-things. *Proceedings of the 24th ACM Symposium on Access Control Models and Technologies*, ACM (2019), pp. 83-92
 14. Wattana Viriyasitavat, Li Da Xu, Zhuming Bi, Assadaporn Sapsomboon. New blockchain-based architecture for service interoperations in Internet of Things. *IEEE Trans. Comput. Soc. Syst.*, 6 (4) (2019), pp. 739-748
 15. Beini Zhou, Hui Li, Li Xu. An authentication scheme using identity-based encryption & blockchain. *2018 IEEE Symposium on Computers and Communications, ISCC, IEEE* (2018), pp. 00556-00561
 16. Ali Dorri, Salil S. Kanhere, Raja Jurdak, Praveen Gauravaram. LSB: a lightweight scalable blockchain for IoT security and anonymity. *J. Parallel Distrib. Comput.*, 134 (2019), pp. 180-197
 17. Lei Zhang, Mingxing Luo, Jiangtao Li, Man Ho Au, Kim-Kwang Raymond Choo, Tong Chen, Shengwei Tian. Blockchain based secure data sharing system for Internet of vehicles: a position paper. *Veh. Commun.*, 16 (2019), pp. 85-93
 18. N Akhmedov, H Khujamatov, A Lazarev, M Seidullayev. Application of LPWAN technologies for the implementation of IoT projects in the Republic of Uzbekistan. *2021 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT)*.
 19. Nasrullayev, N., Seidullaev, M., Khudoykulov, Z., Abdjalilovich, G.A. (2024). Classification of Threats to Information Security of the “Smart Home” System. In: Aliev, R.A., et al. *12th World Conference “Intelligent System for Industrial Automation” (WCIS-2022)*. WCIS 2022. *Lecture Notes in Networks and Systems*, vol 718. Springer, Cham. https://doi.org/10.1007/978-3-031-51521-7_9.
 20. Madiyar Seidullayev. Internet of Things security based on blockchain technology. *Innovative Development in Educational Activities VOLUME 2 | ISSUE 11 | 2023*.
 21. Мадияр Сейдуллаев. Применение блокчейн-технологии в интернете вещей. *RESEARCH AND EDUCATION VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2023*.
 22. Ali Dorri, Salil S. Kanhere, Raja Jurdak, Praveen Gauravaram. LSB: a lightweight scalable blockchain for IoT security and anonymity. *J. Parallel Distrib. Comput.*, 134 (2019), pp. 180-197
 23. Lei Zhang, Mingxing Luo, Jiangtao Li, Man Ho Au, Kim-Kwang Raymond Choo, Tong Chen, Shengwei Tian. Blockchain based secure data sharing system for Internet of vehicles: a position paper. *Veh. Commun.*, 16 (2019), pp. 85-93
 24. Beini Zhou, Hui Li, Li Xu. An authentication scheme using identity-based encryption & blockchain. *2018 IEEE Symposium on Computers and Communications, ISCC, IEEE* (2018), pp. 00556-00561

